

Gulmira Absalamova

**MISHEL MONTEN IJODIDA
“OILA TARBIYASI FAZILATLARI”
LEKSIKASINING SEMANTIK
MAYDONI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

Absalamova Gulmira Sharifovna

**MISHEL MONTEN IJODIDA “OILA
TARBIYASI FAZILATLARI”
LEKSIKASINING SEMANTIK MAYDONI**

Monografiya

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti
Samarqand – 2025

UO‘K: 821.133.103

Absalamova Gulmira Sharifovna. Mishel Monten ijodida “oila tarbiyasi fazilatlari” leksikasining semantik maydoni. Monografiya. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2025 – 123 b.

Mazkur monografiya fransuz yozuvchisi M.Montenning “Les Essais” asarida oila va tarbiya bilan bog‘liq leksemalarning lingvosemantik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etadi. Ushbu asarda “oila tarbiyasi fazilatlari” konseptining fransuz tilining milliy-lisoniy va madaniy jihatlari bilan uzviy aloqasi ochib beriladi. Shuningdek, monografiya Monten merosining yangi qirralarini yoritishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Mas’ul muharrir:

M.M. Jo‘rayeva – filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Taqrizchilar:

M.X.Xamidova – Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

M.B. Axmedova – Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

B.X.Mardiyev – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali dotsenti

Ushbu monografiya Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti kengashining 2025-yil 30-avgustdagi 1-sonli yig‘ilish bayonida nashrga tavsiya etilgan.

© Absalamova Gulmira Sharifovna, 2025

©“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2025

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. TADQIQOTNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI	6
1.1. Uygʻonish davri: tadqiq va talqin ..	6
1.2. Renessans davri fransuz adabiyotida madaniyat taraqqiyoti	15
1.3. Mishel Monten – axloq-odob oʻrgatuvchi gumanist, maʼrifatparvar inson	25
Birinchi bob boʻyicha xulosalar	35
II BOB. MISHEL MONTEN “TAJRIBALAR” ASARIDA TARBIYAGA OID LEKSEMALARNING IFODALANISHI	37
2.1. Mishel Montening lingvofalsafiy qarashlari.....	37
2.2. “Tajribalar” asarida fazilat tushunchasi ifodasining tarixiy-komparativistik omillari.....	47
2.3. Farzand tarbiyasida “salbiy jihat” leksemalarining ijobiylik Tomonlari	58
Ikkinchi bob boʻyicha xulosalar	69
III BOB. MISHEL MONTENNING “TAJRIBALAR” ASARIDA “OILA TARBIYASI FAZILATLARI” LISONIY BIRLIKLARINING LEKSIK, SEMANTIK VA PARADIGMATIK XUSUSIYATLARI	71
3.1. M.Monten asarida “oila tarbiyasi fazilatlari” leksemalarining leksik-semantik jihatlari	71
3.2. Asarda “fazilat” taʼrifidagi leksemalarning berilishi	81
3.3. M.Monten asarida “insonparvarlik” tarbiyasiga doir leksemalarning paradigmatic tahlili	95
Uchinchi bob boʻyicha xulosalar	102
UMUMIY XULOSA	104
ATAMALAR IZOHI	106
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI	108

KIRISH

Jahon tilshunosligi va adabiyotshunosligida mutafakkirlarning ma'naviy-ma'rifiy merosi, ularning g'oyalari va asarlarida ifodalangan axloqiy-falsafiy qarashlarini o'rganish doimo dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Hozirgi globallashuv jarayonlari bu boradagi izlanishlarni yanada takomillashtirish, adabiy merosni madaniyatlararo va tillararo o'rganish, ularning tarbiyaviy, axloqiy va falsafiy jihatlarini yangi yondashuvlar asosida tadqiq etishni talab qilmoqda. Til va madaniyat munosabatini chuqur tahlil etish, lisoniy birliklarning semantik xususiyatlarini falsafiy-nazariy nuqtayi nazardan o'rganish bugungi ilmiy paradigmada alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois leksemalarning lingvomadaniy ma'nosi, ular muallif tafakkurida qanday konseptual mazmun kasb etishi masalasi hozirgi tadqiqotlarning metodologik asosini tashkil qiladi.

Yevropa Renessansi davri insoniyat tafakkurida ulkan burilish yasagan davrlardan biri bo'lib, unda insonparvarlik, bag'rikenglik, totuvlik, ilmga chanqoqlik va axloqiy kamolot kabi g'oyalar targ'ib qilingan. Shu davrning yirik vakillaridan biri bo'lgan Mishel Monten o'zining mashhur "Les Essais" ("Tajribalar") asarida inson shaxsiyati, oila muqaddasligi, farzand tarbiyasi, axloqiy fazilatlar va shaxs mas'uliyati masalalarini chuqur tahlil qilgan. Uning qarashlari nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlarda ham dolzarbligini saqlab qolib, jahon ilm-fanida tarbiya va axloqiy masalalarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning manbai sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonida buyuk mutafakkirlarning ilmiy va ma'naviy merosini izchil o'rganish, yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash alohida e'tiborda turibdi. Prezidentimiz farmon va qarorlarida belgilangan vazifalar – ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, xorijiy tillarni chuqur o'rganish, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni keng targ'ib etish masalalari mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Xususan, PF–5847-sonli Farmon, PQ–4884 va PQ–5117-sonli qarorlar, PF–60-sonli Farmonlar bu borada ilmiy izlanishlar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzu bo'yicha jahon va milliy adabiyotshunoslikda ko'plab izlanishlar olib borilgan. L.Lindvall, A.Jouanna, D.Coleman, P.Villey, Ph.Desan, D.Menager singari tadqiqotchilar Montening merosini falsafiy va pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilgan bo'lsa, o'zbek

olimlari orasida F.Sulaymonova, B.Qosimov, M.Ishanova, O.Hasanboeva singari olimlarning tadqiqotlari e'tiborga loyiqdir. Shu bilan birga, oila va farzand tarbiyasi, shaxs fazilatlarini shakllantirish masalalari bo'yicha xorijiy olimlar (A. Philippon, A.-L. Ferté, R. Herrero-Arias, E. Hoffman va b.) ham alohida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Biroq Montening "Tajribalar" asaridagi "oila tarbiyasi fazilatlariga" oid leksemalar lingvosemantik va lingvomadaniy nuqtayi nazardan monografik asosda izchil tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning obykti sifatida Montening "Les Essais" asarida oila va tarbiya bilan bog'liq "l'enfant" (bola), "la famille" (oila), "éducation" (tarbiya), "vertu" (fazilat) kabi leksemalar tanlangan. Predmetini esa ushbu leksemalarning lisoniy, semantik va madaniy xususiyatlari tashkil etadi. Tadqiqotda tarixiy-genetik, kognitiv-diskursiv, komponent va kontekstual metodlar asosida tahlillar olib boriladi. Shu orqali "oila tarbiyasi fazilatlariga" tushunchasining mazmun doirasi, semantik maydoni, lingvokulturologik va estetik vazifalari aniqlanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, Monten asaridagi "oila tarbiyasi fazilatlariga" konsepti fransuz tilining milliy-lisoniy va madaniy xususiyatlari bilan uzviy aloqada tadqiq qilinadi. Bu jarayonda leksemalarning badiiy-estetik ta'sirchanlikni oshirishdagi roli, shaxs tarbiyasi va komil insonni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari adabiyotshunoslik, lingvokulturologiya, pedagogika va falsafa fanlari bo'yicha nazariy va amaliy faoliyatda, shuningdek, oliy ta'lim tizimidagi maxsus kurslar, qo'llanmalar yaratishda keng qo'llanilishi mumkin. Shu ma'noda, mazkur monografiya o'zbek va jahon ilm-fanida Monten merosining yangi qirralarini ochishga xizmat qiladi.

I BOB. TADQIQOTNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Uygʻonish davri: tadqiq va talqin

Har bir davrning taraqqiyot bosqichlari tadrijiy xarakterda boʻlib, unda insoniyat maʼnaviy olamini boyituvchi adabiyotning oʻrni, ahamiyati yuksak hisoblanadi. Tarixiy tajribalardan maʼlumki, muayyan davr adabiyoti namoyandalarning asarlari tili va gʻoyaviy-badiiy jihatini tadqiq etish taraqqiyot uchun muhim. Zero, hozirda fan, madaniyat, sanʼat va adabiyot gullab yashnagan hamda qomusiy bilimlarga zamin boʻlgan Uygʻonish davridagi ilmiy, adabiy, falsafiy merosni sohalararo hamda bugungi kundagi ahamiyati nuqtai nazaridan oʻrganish ehtiyoji mavjud. Shu boisdan bu davrda yashab ijod etgan mutafakkirlarning ijodini tadqiq etish, adabiy merosini oʻrganish va farzandlar kamoli hamda tarbiyasida qoʻllash oʻsib kelayotgan avlodni maʼnaviy yuksaklikka erishtirishi tabiiy.

Antik madaniyat davridan qariyb oʻn asrdan ortiq vaqt oʻtgach, gʻarb tafakkurida yana bir ulkan koʻtarilish, yangilanish roʻy berdi, shuning uchun ham bu vaqt oraligʻi Uygʻonish davri sifatida nomlandi. Yevropada Uygʻonish davri XIV-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, XVII-asrgacha davom etdiki, renessans davrida ilm-fan, madaniyat va sanʼat misli koʻrilmagan darajada taraqqiyotga erishdi.

Uygʻonish davri namoyandalari butun eʼtiborlarini tiriklik olamining gultoji inson ekanligiga, inson shaxsini ulugʻlash, uning qadr-qimmatini, his-tuygʻulariga hurmat nazari bilan yondashish hamda ruh erkinligini hamma narsadan yuqori qoʻyishga qaratishdi. Shu boisdan, Uygʻonish davri vakillarini keyingi avlod gumanistlar sifatida tan olishdi. Gumanistlar antik adabiyotga alohida hurmat bilan qarab, Rim va yunon adabiyotiga yuqori baho berishdi, Gomer dostonlarini nashr qildirishib zamondoshlariga taqdim etildi. Shu davrda koʻp tillilikka alohida eʼtibor qaratildi, jumladan, Gʻarbiy Yevropada tashkil etilgan universitetlarda qadimgi – lotin, grek, yahudiy tillari oʻqitildi. Uygʻonish davrining boshlanishi dastavval Italiyada namoyon boʻlib, uning ilk yirik vakili sifatida Dante ijodi koʻzga tashlandi. Keyinchalik Petrarka sheʼrlari, Bokachcho hikoyalarida bu davrga xos asosiy belgilar mavhum ramziy obrazlar oʻrni realistik obrazlar egallashi, voqelikni asliga muvofiq tasvirlashga intilish kabi badiiy adabiyotning hayotiyliigi yaqqol namoyon boʻla boshladi. Keyinchalik bu holat butun Yevropaga tarqaldiki, oʻz asarlarida ijtimoiy turmush voqeligini real ifodalagan Leonardo da

Vinchi, Jordano Bruno, Kopernik, Rable, la Servantes kabi yirik mutafakkir va ulug‘ yozuvchilar nomi elga tanildi. Renessans G‘arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlari madaniyatidagi o‘rta asrdan yangi davrga o‘tish bosqichini anglatadi. Zero, nemis faylasufi Gegel – falsafa tarixida Uyg‘onish davrini – tong yo‘gdusi deya atashi bejiz emas edi. Uyg‘onish davri muhim xususiyatlari inson shaxsini ulug‘lash, kishi ongini din sarqitlaridan tozalash, tabiat va jamiyatni esa inson manfaatlariga xizmat ettirishda aks etadi¹. Cherkov inson qadr-qimmatini, his-tuyg‘ularini rad etib, uning dunyo lazzatlaridan bahramand bo‘lish istagini yomonlik, aql-idrok hukmronligini kishini halokatga, kibrlilikka olib boruvchi nojo‘ya his deb qoralaydi. Uyg‘onish davri harakati esa insonning ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan ozod bo‘lishi g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi. Uning qadr-qimmatini, aqli va qobiliyatini to‘la tan oldi. Uyg‘onish davrining xususiyatlaridan yana biri optik madaniyatga munosabat masalasida ham namoyon bo‘ladi. Gumanistlar antik davrga qaytish maqsadida emas, balki o‘zlarining ilg‘or fikrlarini asoslash va kelajakka ishonch bilan qadam tashlash uchun uzoq o‘tmishning ulug‘ siymolari ijodiga murojaat qiladi.

Yevropa Uyg‘onish davriga nazar solsak, Uilyam Shekspir (1564–1616 yy.) ushbu zamonning iste‘dodda tengsiz vakillaridan biri, aktyor va dramaturgi ekanligiga shubha qolmaydi². Allomaning asarlari oilada bolalar tarbiyasiga mas‘uliyatli yondashuvni targ‘ib etadi. Adib asarlari orqali insonlarni sevishga, yoshlarni hayotda baxtli bo‘lishga erishish uchun kurashishga, qiyinchiliklardan qo‘rqmay ularni mardona yengishga da‘vat etgan.

O‘sha davrning yana bir mutafakkiri Tomas Mor (1478–1555 yy.) o‘zining “Utopiya” asarida

1. shaxsiy manfaat jamiyat rivoji uchun zararli, aksincha,
2. barcha fuqarolarning jamiyat uchun foydali mehnatda birdek faol ishtirok etishlari ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili ekanligini ta‘kidlash orqali ikkita muhim tamoyilni ilgari surgan³.

Muallif tasavvurlarining mahsuli bo‘lgan Utopiya davlati (ilmiy asosga ega bo‘lmagan ideal jamiyat)da barcha fuqarolar mehnat qilishga majburdirlar, deya ta‘kidlaydi.

Shuningdek, bu kabi jamiyatda ayol, erkak hamda bolalarning huquqiy jihatdan tengligi e‘tirof etiladi, unga ko‘ra, hatto bolalar ham

¹ Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда. – Тошкент: Фан, 1978.– 5 б.

² Ўша манба 6б.

³ Волков Г.Н. Этнопедагогика. – Москва: Академия, 1999. – 31-с.

o‘qish bilan mehnatni birga olib borishlari zarur. Tomas Mor o‘z asarida bolalarni oilada, jamoada mehnat vositasida tarbiyalashning ahamiyatini ko‘rsatishga uringan. Yevropa Uyg‘onish davrining yetakchi siymolaridan yana biri – Tommazo Kampanella bo‘lib, uning pedagogik g‘oyalari “Quyosh shahri” asarida o‘z ifodasini topgan. Uning qayd etishicha, davlat hatto bo‘lg‘usi avlodning sog‘lom bo‘lishi uchun erkak va ayolning turmush qurishi haqida qayg‘urishi, bu jarayonni nazorat qilishi zarur. Shuningdek, bolani ikki yoshidan boshlab ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashni boshlash, uch yoshida ko‘rgazmali vositalardan samarali foydalangan holda to‘g‘ri talaffuz qilishga, alifboni o‘rganishga jalb etish maqsadga muvofiq, deb hisoblagan. Shu davrlarda bolalarning jismoniy tarbiyasini kuchaytirish, sakkiz yoshidan boshlab ularni tizimli ravishda o‘qitishni boshlash, o‘g‘il bolalar o‘n to‘qqiz yoshga to‘lgach, harbiy tayyorgarlik ko‘nikmalarini o‘zlashtira olishi zarur. Aytish joizki, T.Kampanellaning g‘oyalari oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiyani o‘zaro uyg‘un holda olib borishni targ‘ib etganligi bilan ahamiyatli.

XVI-asrdan boshlab mualliflarning hayotiy tajribalari asosida Yevropada bevosita ta‘lim hamda bolalarni to‘g‘ri tarbiyalash masalalarini yoritgan asarlar nashr etila boshladiki, ularning mualliflari ma‘rifatparvarlar deb nomlandi. O‘rta asr ma‘rifatparvarlari orasida chex pedagogi, “Didaktika” fanining asoschisi Yan Amos Komenskiy (1592–1670 yy.) alohida o‘rin tutadi. 1627-yilda pedagogik faoliyatini boshlagan Ya.A.Komenskiy 1632-yilda “Chex didaktikasi” asarini yaratdi. 1633–1638-yillarda ushbu asarni qayta ishlab, lotin tiliga tarjima qildi va uni “Buyuk didaktika” nomi bilan keng kitobxonlarga taqdim etdi. Har bir inson hayoti uchun muhim masalalar xususida so‘z yuritilgan mazkur asar ma‘rifatparvarlik davrining mumtoz asari hisoblanadi.

Yana bir ma‘rifatparvar faylasuf, ingliz olimi Jonn Lokk (1632–1704 yy.) o‘zining pedagogik qarashlarini “Tarbiya haqida ayrim fikrlar” (1693 y.) asarida bayon etdi. Jonn Lokk o‘z pedagogik qarashlarida bolalarni ham oilada, ham maktabda tarbiyalash zarurligiga e‘tibor qaratadi. Olimning fikricha, bolada axloqiy sifatlarni oila muhitida hosil qilish samarali bo‘lsa, maktab bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga tez erisha oladi⁴. Shuningdek, ma‘rifatparvar oilada bolalarni tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat berish zarurligini ta‘kidlaydi va “Salomatlik bizga kasbiy faoliyatimiz muvaffaqiyati uchun

⁴ Локк Ж. Таълим ҳақидаги фикрлар // Асарлар: 3 жилд. –Москва, 1988. – 352-б.

zarur”, deya barcha davrlar uchun o‘ta muhim bo‘lgan tizimni taklif etdi⁵. U bolalarni yoshligidanoq charchoq, qiyinchilik, g‘am-g‘ussani oson yengib o‘tishga tayyorlab borishni muhim deb hisoblaydi. Jonn Lokk bola hayotida qat’iy belgilangan tartibning ahamiyatini yuqori baholaydi. Shu bilan birga pedagog ota-onalarga turli yoshdagi bolalarni kiyintirish, ovqatlantirish yuzasidan maslahatlar beradi. Pedagog bolani erkalatib o‘stirishni zararli deb hisoblaydi va bunday yondashuvga qarshi turadi.

Yevropa ma’rifatparvarlari orasida Iogann Genrix Pestalossi (1746–1827 yy.)ning nomi alohida qayd etiladi. Shveytsariyalik bu pedagog-demokrat o‘zining butun hayotini xalq bolalarini tarbiyalash va o‘qitish ishiga bag‘ishlagan. Uning “Lingard va Gertruda” (1781–1787 yy.), “Gertruda o‘z bolalarini qanday qilib o‘qitadi”, “Onalar kitobi yoki onalar uchun o‘z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o‘rgatish haqida qo‘llanma” kabi asarlarida oilaning bola tarbiyasidagi o‘rni, onaning bu boradagi namunasi bayon etilgan.

Iogann Genrix Pestalossining fikricha, tarbiyaning maqsadi odamning barcha tabiiy kuchlari va qobiliyatlarini o‘stirish, o‘stirganda ham bir-biriga uyg‘un ravishda rivojlantirishdir. Tarbiyaviy omilning bolaga ko‘rsatayotgan ta’siri uning tabiatiga uyg‘un bo‘lishi lozim. I.G.Pestalossi tarbiyaning asosiy vazifasini kelgusida ijtimoiy jihatdan foyda keltira oladigan hamda har jihatdan uyg‘un kamol topgan insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdir, deb hisoblaydi⁶. Polyak pedagogi, bolalar yozuvchisi Yanush Korchak (taxallusi; haqiqiy ismi va familiyasi – Genrix Goldshmit; 1879–1942 yy.) tibbiy ma’lumotga egaligi sababli dastlab Varshava shahrida bolalar shifokori sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Ya. Korchak tomonidan ilgari surilgan pedagogik tushunchaning asosini har bir bolada shaxs sifatida qadr-qimmatga egalik g‘oyasi tashkil etadi. Korchak e’tiroficha, tarbiyaning maqsadi har bir bolaning qobiliyatini erkin, to‘laqonli rivojlantirish, uning shaxsini ezgulik, go‘zallik, erkinlik g‘oyalari asosida shakllantirishdan iborat bo‘lgan. Tarbiyaning zarur sharti sifatida Ya. Korchak oilada samimiylik, o‘zaro ishonchga asoslangan sog‘lom muhit yaratish, bolani turli zo‘ravonliklardan himoya qilish, deb hisoblaydi. Ya. Korchakning tarbiyaviy tizimlari negizini bolaning o‘z-o‘zini anglash, baholash, nazorat qilishi va takomillashtirishiga imkon beradigan iroda hamda uni shakllantirishni tashkil etadi.

⁵ Ўша манба. – 358-б.

⁶ Самадов А., Эргашева М. Шахс эстетик идеали: шаклланиш ва ривожланиши муаммолари. – Т., 2021. – 210

Mashhur rus yozuvchilari – A.I.Gersen, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy va N.A.Dobrolyubovlar taraqqiyparvar shaxslar sifatida jamiyat hayotiga daxldor, xususan, oila tarbiyasi samaradorligini oshirishga doir ilg‘or fikrlarni ilgari surishgan⁷. Boshqa ma‘rifatparvarlarning pedagogik yondashuvlaridan farqli o‘laroq ular oila tarbiyasining imkoniyatlarini yanada keng, alohida ajratib ko‘rsatishga urinishgan.

Rus pedagoglari orasida Konstantin Dmitriy Ushinskiy (1824–1870 yy.) munosib o‘rin tutadi. Pedagogik faoliyatini ilmiy-ijodiy ish bilan qo‘shib olib borgan K.D.Ushinskiy “Bolalar dunyosi” (“Detskiy mir”), “Muallimlar uchun qo‘llanma” (“Posobie dlya uchiteley”), “Shaxs – tarbiya predmeti sifatida” (“Chelovek kak subyekt obrazovaniya”), “Pedagogik antropologiyadan tajriba” (“Opyt pedagogicheskoy antropologii”) kabi asarlarida oila va uning bola tarbiyasidagi o‘rni masalasi batafsil yoritilgan. K.Ushinskiyga ko‘ra, maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning tabiiy vositasi – oila hisoblanadi. Binobarin, oilada bolalar borliq haqidagi dastlabki tushunchalarga ega bo‘ladi, eng oddiy bilim va ko‘nikmalarni egallaydi, odatlarni o‘zlashtiradi, farzand qobiliyatlarini rivojlantirishni asarida targ‘ib etadi⁸.

Rus yozuvchisi Natalya Grigorevna Dolinina (1928–1979 yy.) ham o‘z ocherklarida oila sharoitida bolalarni axloqiy tarbiyalash masalalarini keng yoritgan yozuvchilardan sanaladi⁹. Bola shaxsining rivojlanishida ota-ona va tarbiyachilar asosiy rol o‘ynashi, ularning hayoti, faoliyati, xulq-atvori, muomalasi bolalar uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi haqida o‘z qarashlarini yozib qoldiradi.

Gumanist, shifokor, atoqli jamoat arbobi Pyotr Fransevich Lesgaft (1837–1909 yy.) o‘z asarlarida insonparvarlik va demokratik g‘oyalar, insoniyatning ma‘naviy va ruhiy kamoloti uchun kurashuvi xususida bayon qiladi¹⁰. P.F.Lesgaftning yozishicha, jamiyatning mukammallik darajasi, ehtimol, uning bolalarga bo‘lgan munosabati, ularga g‘amxo‘rlik qilish va ularning farovonligi bilan belgilanadi. Bola uchun muhitning muhimligini ta‘kidlab, P.F.Lesgaft nazariyani amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan holda bola tabiatining yaxlit ko‘rinishini o‘z ichiga olgan oilaviy ta‘limga e‘tibor qaratadi.

⁷ Ушаков Д.Н. Русское правописание. Очерк его происхождения, отношения его к языку и вопроса о его реформе. – Москва, 1911. – 50-с.

⁸ Ушинский К. Д. Собрание сочинений. Москва, 1950, 10с.

⁹ Данилкина А.В., Долинина Н. Г. // Русские детские писатели XX века: Библиографический словарь. – М.: Флинта: Наука, 1997. – 13-с.

¹⁰ Эгорова С.Ф. Россияда педагогика тарихи. – Москва: Флинта, 2014. – 305-б.

Ilk Uygʻonish davri madaniyatining ijtimoiy ongida bolalar tarbiyasiga eʻtibor kuchliligi seziladiki, bu oʻsha davrning ijtimoiy siyosatida ham koʻzga tashlanadi: 1421-yilda Fransiyada oʻgʻil bolalar uchun bolalar uyi – Yevropada birinchilardan boʻlgan mehribonlik uyi qurilgan. Kech Uygʻonish davrining reproduktiv madaniyati oilaga nisbatan qarashlar, bolaning qadr-qimmatiga nisbatan oʻzgarishni ifodalaydi. Bola avvalgidek har qanday yoshda emas, balki kattalar tomonidan oʻziga nisbatan qimmatli shaxsiy fazilatlari bilan ijobiy munosabatda boʻlishga loyiq boʻlgan darajada qadrlanadi. Bu davrdagi oila va farzand tarbiyasidagi fikrlar ushbu davr vakili Mishel Monten merosida yozib qoldirgan durdonalari bugungi kunda ham dolzarbligini yoʻqotmaganini kuzatamiz.

Uygʻonish davrida aholining turli qatlamlarida koʻplab ijtimoiy faol va mustaqil fikrli ayollar ham bor edi. Oʻsha paytda davrning ijtimoiy masalalarini oʻrganishga va oʻz faoliyatlarini jamiyatning foydali yumushlari bilan bogʻlashga intilayotgan badavlat xonadon vakillari boʻlgan ayollar soni ortib borgan. Ular aksariyat hollarda bolalar muhofazasi, ularning taʻlim olishi borasida qaygʻurishgan. Vaholanki, shu davrda jamiyatda bolalarga oʻziga xos bolalarcha munosabat, ularga alohida gʻamxoʻrlik qilish alohida davr sifatida ajratilmagan edi. Bolalarning katta qismi oilaviy ahvoliga qarab ishlab chiqarish va maishiy taʻlim sharoitida tahsil olishgan¹¹. Shuningdek, bolalar oʻz ota-onalarining mavqeini, xulq-atvor modelini va aloqalarini takrorlashlari, turmush qurishga, mustaqil uy xoʻjaligiga yoki egasining uyida yashashga tayyorgarlik koʻrishlari kerak edi. Maktab taʻlimida asosiy mavzu din boʻlib, taʻlimga yoʻnaltirishning asosiy vositasi tayoq sanalgan. Tayoq yordamida bolalar egasiga va hokimiyatga boʻysunishga oʻrgatilgan. Boy odamlar oʻz farzandlari uchun uy ruhoniysi oʻqituvchisini yoki universitet professorini taklif qilishgan. Dvoryanlar maxsus toʻgaraklarga qatnashib til, badiiy adabiyot va tarixni oʻrganishgan, lotin tilida sheʻrlar mashq qilishganligi ham tarixdan maʼlum.

Ushbu jarayondagi tilning ijtimoiy va insoniy tabiatini mavjudligini madaniy borliq uchun sharoit yaratishini, uning ruhiy kuch va dunyoqarashini shakllantirish uchun muayyan jamiyatga xos boʻlgan

¹¹Ермоленко Г.Н., Лафонтен и Монтень. Философские аспекты культуры и литературный процесс в XVII столетии: материалы конференции “Пятое Лафонтеновские чтения” / под ред. А.А. Скакуна [идр.]. – СПб, 1999. – 35-с.

nutqiy aktlarning turlari va shakllari bo'yicha tuzilishiga yo'naltirilgan vazifalarini o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi¹².

Etnopedagog G.N.Volkov ta'kidicha, "Har bir xalqning kuchli va o'ziga xos jihatlarini ta'kidlovchi stereotip tavsiflar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas"¹³. Nemischa batartiblik, amerikacha ishbilarmonlik, fransuzcha xushmuomalalik, inglizcha rasmiyatchilik, o'zbekcha mehmondo'stlik kabi ijobiy fazilatlar sirasiga kiradi.

Xalqlarning pedagogik madaniyati bilan chuqur qiziqqan rus yozuvchisi V.G. Belinskiy: "Har bir millatning o'ziga xosligi, asosan, faqat shu millatga xos dunyoqarash, din, til, urf-odatlar va an'analardir," deb yozadi. O'tmishda yig'ilgan ma'rifiy boyliklarni buyuk faylasuf Gegel "o'zidan kuch taratuvchi ona yer" bilan taqqoslagan. Uning ta'kidicha: "Ilm-fan va ta'limning har bir yangiligi uning qadimiylikka murojaatidan kelib chiqadi". Demak, madaniyatning, jumladan, pedagogik madaniyatning an'anaviyligi xalqlarga xos yuqori madaniyatning muhim belgisi sanaladi.

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy: "Xalqlarning o'z qadimiy madaniyatiga e'tibori va qiziqishning uyg'onishi ularning haqiqiy donoligidan dalolatdir"¹⁴, deb baholaydi.

Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muqaddas kitoblar Qur'oni Karim, Hadisi sharif muhim sanaladi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlari", Alisher Navoiyning shoh asarlari, hikmatlari muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir¹⁵.

O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratgan. U yaratgan boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ismoil Al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Fariddin Attor, Marg'iloniy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilar go'zal axloq, baxt, insoflilik, poklik, iffatlilik, sabr-matnat, mehr-shafqat, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar¹⁶. Insoniylik o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy

¹²Гак В.Г. Актантная структура грехов и добродетелей // Логический анализ языка. Языки этики. – Москва, 2000. – 15-с.

¹³ Волков Г.Н. Этнопедагогика. –Т.: Фан, 2000.–10-б.

¹⁴ Форобий Абу Наср. Рисолалар. –Т.: Фан, 1975. –21-б.

¹⁵ К.У.Нажмиддинова, Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлокий маданиятнинг ўрни,- Т,2016,-14-б.

¹⁶ Самадов А., Эргашева М. Шахс эстетик идеали: шаклланиш ва ривожланиши муаммолари. -Т., 2021. – 11-б.

xususiyatlarini, ya'ni odamlar o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, do'stlik, ota-onaga sadoqat, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Ota-bobolarimiz bolalarda yoshligidan ana shunday go'zal fazilatlarni qaror toptirishga undagan.

Har bir xalqning nufuzi, obro'-shuhrati kishilarning axloq-odoblari, yaxshi xislat va fazilatlari bilan belgilanadi. Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim, degan g'oyani ilgari surgan edilar. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liq, degan g'oyani ilgari surishgan.

Farzandni sog'lom e'tiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasiga yuklangan. Rasululloh sallallohu alayhi vassallam: "Farzandlaringizga suvda suzishni, kamondan o'q otishni, nayza uloqtirishni, ot choptirishni o'rgatinglar"¹⁷, deb bolani chaqqon, sog'lom, baquvvat, ziyrak qilib tarbiyalashga ummatini targ'ib qilganlar. Zotan, sog'lom va baquvvat farzand har bir yurtda o'z vataniga naf keltiradi.

Oila va undagi tarbiyaning usul, vosita va omillari ko'proq yozma pandnomalarda, Kaykovusning "Qobusnoma", "Saodatnoma", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", shuningdek, "To'tinoma", "Shohnoma", "Odobnoma" kabilarda oila muammosiga doir masalalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan¹⁸. Mutafakkir va ma'rifatparvarlarning ijodiy faoliyatida oila muammosi asosiy o'rinni egallagan. Sababi, bo'lajak oila pedagogikasi fanining mazmundorligini ta'minlovchi badiiy adabiyot, san'at asarlari, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlardir. Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri yo'lga qo'yish¹⁹, ularning vaqtdan unumli foydalanishlarini ta'minlash, umuman, ota-onalar farzandlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishlari muhim sanaladi.

Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha Abu Ali Ibn Sino maxsus "Tadbir al-manazil" nomli asar yozgan. Unda olim ota-onaning bola tarbiyasidagi vazifalarini yoritgan, ota-onaning vazifasi va burchiga, oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa, ota-onalarning oilada mehnatsevarlik bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatishi zarurligi borasida muhim fikrlarni bayon etgan²⁰. Oilada farzand tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy

¹⁷ Абу Исо Термизий, Сахиҳи Термизий. Танланган ҳадислар.-Т.1993, -36-б.

¹⁸ Hasanboyeva O. va b. Oila pedagogikasi. -Т., 2007.-58-б.

¹⁹ Hasanboyeva O. va b. Oila pedagogikasi. -Т., 2007.-58-б.

²⁰ Х.Жонматова, Абу Али ибн Сино таълим тарбия тўғрисида, -Т.,1980,-8-б.

olamida e'tiqodni shakllantirish, deb hisoblagan ulug'lardan biri Yusuf Xos Hojib ham "Qutadg'u bilig" asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga keng e'tibor qaratgan²¹. Muatafakkir kishilarni uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etishi, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarni birma-bir bayon etgan.

Unsur-ul-maoniy Kaykovus "Qobusnoma" pandnomasida: "O'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lg'il, nedinkim, sen ota-onang haqida ne ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona mevali daraxtga o'xshaydir"²², deb yoshlarni ota-onasini hurmat qilishga, e'zozlashga, mehr-oqibatli bo'lishga da'vat etadi. Ota-ona o'z farzandi uchun hatto o'limga ham tayyorligini ta'kidlaydi²³.

Davoniyning fikricha: "Ota-ona bolaga jamiyatda mavjud bo'lgan axloq-odob qoidalarini singdirishga, yurish-turishga, yeyish-ichish, o'z qilgan ishi uchun mas'uliyatni sezish, shirinsuxan bo'lish, yaxshilik, ezgulik kabi axloq qoidalarini egallashiga yordam berishi lozim"²⁴.

Abdurauf Fitrat 1916-yilda "Oila" nomli falsafiy asarini yozgan, unda oilaviy hayot islohoti haqida bahs yuritilgan va adib najot yo'llarini axtarib, xalqlarning umuminsoniy qardoshlik g'oyasini targ'ib etgan²⁵. Fitrat oilaning ijtimoiy vazifalarini "Avlod tarbiyasi", "Fikriy tarbiya", "Axloqiy tarbiya" kabi qismlarga bo'lgan²⁶.

Rudakiy oilada bola tarbiyasi, yosh avlod kamolotida ota-onaning burchi haqida ham muhim fikrlarni ilgari suradi. Aksariyat odamlar, hatto ma'rifatli zotlar ham farzandlari tarbiyasiga e'tiborsizlik bilan qarab, donishmandning bolasi johil bo'lib qolayotganligidan afsuslanadi²⁷. Buning uchun oila muhitida ota-onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lsagina tarbiyada yaxshi natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Inson tug'ilgan paytidanoq tarbiyaga muhtoj. Uning ilk tarbiyachilari, albatta, ota-onasidir.

Inson tug'ilibdiki, ziyoga intiladi. Hayotning ibtidosi quyosh nuri bo'lib ona sayyoraga tushgan yorug'lik va iliqlik qo'ynida yashirin.

²¹ Юсуф Хос Ҳожиб. Кудатғу билиг. Қадимги ҳикматлар. –Т., 1987.–110-б.

²² Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar: Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. – T.: Ma'naviyat, 2009.– 102-b.

²³ Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar: Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. – T.: Ma'naviyat, 2009.– 102-b.

²⁴ Ishanova M. Oila pedagogikasi. – Andijon, 2019. –10-b.

²⁵ А.Фитрат, Оила ёки оила бошқариш тартиблари.-Т.,2000,-43-б.

²⁶ Aulotte R. Montaigne: "Essais". – Paris, 1988. – 11-p.

²⁷ Ҳамиджон Ҳомидий, Кўхна Шарқ дарғалари, -Т., 1999,-34-б.

Binobarin, yorug'likka intilish insoniyat xilqatidagi eng kuchli ehtiyoj. Adabiyotning oydinlikka talpinishi ham, aslida, ana shu ildizdan suv ichadi. Ko'rinadiki, ularning merosini targ'ib qilish asllikka, sog'lomlikka, mohiyatga yetaklaydi.

Moziyning tadqiq va talqinidan ko'rinadiki, ilm-ma'rifat, fanga e'tibor Uyg'onish davrining oila va farzand tarbiyasi to'g'risidagi merosi har bir davr uchun qimmatli. Shuningdek, bugungi kunda yurtimizda Uchinchi Renessans g'oyasiga poydevor yaratishda jahon adabiyotining shoh asarlarini tadqiq etish, jumladan, oila tarbiyasiga doir fazilatlarning ma'no maydonini o'rganish ham, shu bilan bir qatorda ma'lum bir til doirasida leksik-semantik maydon talqiniga aniqlik kiritib olish ham ma'rifatimiz boyligiga va tarbiya borasidagi rivojimizga o'z hissasini qo'shadi, deb hisoblaymiz.

1.2. Renessans davri fransuz adabiyotida madaniyat taraqqiyoti

“Renessans” atamasining lug'aviy ma'nosi fransuzcha “qayta tug'ilish” bo'lib, mazmunan madaniyat, ilm-fan, san'at, ta'lim-tarbiya, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanish, rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o'rta asrlar mutaassibliigidan keyin XV–XVI-asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan, mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deya o'girilgan²⁸.

Renessansning asosiy alomatlari: tafakkurda va ilmu ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o'tib, insonni ulug'lash, uning iste'dodi, aqliy-fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; antik davr (yunon-rum) madaniyatiga qaytib, uni tiklash va boyitish; cherkov sxolastikasidan qutulib, adabiyot va san'atda dunyoviy go'zallik, hayot taronalarini qizg'in kuylash; inson erki, hurfikrliligi uchun kurashish davri bo'lgan.

Uyg'onish davri ijodkorlari, ziyolilari bosma kitobning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatib, chop etishni avtomatlashtirishning ushbu davrga ta'siri kitoblarning keng tarqalishini nafaqat mualliflarning shuhratini sezilarli darajada oshirdi, balki boshqa yozuvchi-shoirlarning g'oyalari, hikoyalari va uslubiga osonroq kirish orqali o'z asarlarini boyitish imkonini ham berdi.

²⁸ Normatova Sh. Jahon adabiyoti. –T.: Cho'lpon, 2008. –13-14-6.

Bu davrda adabiyot kam qo‘lyozmalarga ega bo‘lgan o‘rta asrlarga qaraganda olim hamda ziyolilarning katta va xilma-xil guruhini tashkil etdi. Olimlar fransuz, italyan, ingliz, yunon va lotin adabiy asarlari, ilohiyot, falsafa, huquq, fan, filologiya fanlarida ko‘proq dunyoviy fikr va adabiyot rivoji uchun izlandi²⁹.

XIV-asr o‘rtalarida Italiyada paydo bo‘lgan Uyg‘onish harakati XV-asrning ikkinchi yarmida Yevropaning bir qancha yerlarda boshlanib, XVI-asrning boshlarida esa Fransiyada vujudga keladi. Fransuz Uyg‘onish davri adabiyotiga Italiya ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatdi. Bu vaqtda fransuz qiroli Fransisk I Italiyaga harbiy yurish boshlab, Italiya gumanist yozuvchilari Dante, Petrarka va Bokachcho asarlarini olib kelib, fransuz tiliga tarjima qildiriradi³⁰. XVI-asrda yashab ijod etgan Renessans davrining yirik vakillari bilim doiralarning kengligi bilan ajralib turadigan yozuvchi, faylasuf, tarixchi va tabiatshunos ham edilar³¹. Rable, Maro, Margarita Navarrskaya, Ronsard va boshqalar fransuz adabiyoti madaniyati yuksalishida katta hissa qo‘shgan, voqelikka real yondasha bilgan ulug‘ adib va shoir sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, davr yozuvchilari fransuz tilini boyitishda ishtirok etib, imlo, grammatika va sintaksis qonun-qoidalaridan munosib foydalandi. Milliy madaniyatning o‘rnatilishi davrida dastlabki lug‘atlar tuzildi, keyinchalik Fransiyada Robert Estienning birinchi ikki tilli yirik lug‘ati (fransuz-lotin) 1538-yilda chop etiladi.

Renessans davri adabiyotining asosiy xususiyati, shubhasiz, antik davrga oid murojaatlarning ko‘pligi bo‘lsa, XVI-asr yozuvchilari o‘z davri voqealaridan yoki zamondoshlarining asarlaridan ilhom olish bilan birga, san‘at va adabiyotning tiklanishiga yordam beradigan eski uslub hamda yangilarining aralashuvi bilan ham ijod qiladi.

Yoaxim du Bellay (1524–1560 yy.) fransuz shoir va yozuvchisi o‘zining qisqa 35 yillik umri davomida adabiyotda shuhrat qozongan³². Uning “*La Défense et Illustration de la langue française*” ikki tomli kitobi, birinchisi o‘n ikki bobdan iborat bo‘lib, fransuz tilini himoya qilishga bag‘ishlangan. Ijodkorning maqsadi fransuz tilini yunon va lotin tillariga teng badiiy til sifatida targ‘ib qilishdan iborat edi, ikkinchisi esa o‘ziga xos ideal portret hisoblanadi³³. Olim fransuz tili ichki resurslarini

²⁹ Bruneau Ch. Petite histoire de la langue française: des origines a la Revolution. – Paris: Armand Colin, 1958. – 46

³⁰ Шухрат Эргашев, Жаҳрн тарихи (Янги давр.1-қисм. XVI-XVIII асрлар) –Т., 2013,-31-б.

³¹ Н.Қосимов ва бoшқ. Jahon adabiyoti, -Т.2007.-354б.

³² Joachim du Bellay, Défense et illustration de la langue française, France,1549,-6-p.

³³ Васильева Н.М. История французского языка. – Москва,1963. –273-с.

rivojlantirish, italyan, lotin va yunon tillaridan ehtiyotkorlik bilan o‘zlashmalar olish orqali boyitilishi kerak, deya hisoblagan.

Bu davrda paydo bo‘lgan gumanizmning asosiy ko‘rinishi ritorik ta‘limotni tanqid qilish, umumiy madaniyatga ega bo‘lishni o‘rgatish, qadimgi matnlarni tadqiq etish istagi, hatto ular dinga zid bo‘lsa-da, buni amalga oshirishga uringan. Ijodkor Pyer de Ronsar (1524–1585 yy.) so‘zlarni yunon va lotin antik davridan olib, hatto lahjalardan ham qarz olishni maslahat bergan, u she‘rlarini jozibador va mazmunli qilish natijasida o‘rganilgan tillar va hudud jarg‘onlari aralashmasi italyan, yunon va lotin so‘zlari bilan fransuz tilini boyitishga hissa qo‘shgan³⁴.

Fransiyada teatr tarixida yangi davr ochgan va she‘riyatga havasmandligi baland bo‘lgan Etyen Jodel (1532–1575 yy.) hamda Giyom de Bargas (1544–1590 yy.) kabi ijodkorlar Renessans madaniyatida o‘ziga xos o‘rin tutishgan³⁵.

XVI-asrda nasr adabiy turi she‘riyat rivojiga qaraganda oqsar edi. Fransuz nasrining takomillashishiga qo‘shilgan hissa unda individuallik ustun bo‘lgan bir qancha mualliflar ijodining mavjudligi bilan bog‘liq. Aytish joizki, Uyg‘onish davrida shakllangan g‘oyalar va hissiyotlar oqimini ifoda etish uchun tilning mukammalligi zaruratga aylandi; bu davr nasrida qonunbuzarliklar, so‘zlarning erkin joylashuvi va hatto hayratga soladigan tushunarsizlik mavjud bo‘lsa-da, so‘z boyligining ko‘pligi va sintaksisning erkinligi tilni ishlatish uchun qulay vositaga aylantirdi va XVI-asrda yozuvchilar ijod janriga ko‘ra to‘rt toifaga ajratildi³⁶, jumladan:

1. Ilohiyotchilar va siyosiy yozuvchilar;
2. Axloqshunoslar va hikoyachilar;
3. Tarixchilar;
4. Tarjimonlar va olimlar.

Ilohiyotchilar va siyosiy yozuvchilar: yunon antik davrini g‘ayrat bilan o‘rganish tez orada o‘z samarasini berdi. Aynan qonun sof bilim va falsafa o‘rtasida o‘tish vazifasini o‘tagan: o‘rta asrlarda tarix, adabiyot Rim huquqi amaliyotini yo‘qotmasdan Uyg‘onish davriga xizmat qilgan. Bu tadqiqotlar, albatta, jamiyat asoslarini izlashga va La Boite (Étienne de La Boétie, 1530–1563 yy.), Jan Kalvin (Jean Calvin, 1509–1564 yy.) kabi siyosiy yozuvchilar yaratilishiga olib keldi. Siyosiy kurashdan hosil

³⁴ Ronsard (1524-1585), Daniel Bergez, Christiane Lauvergnat-Gagnière, Anne Paupert, Yves Stalloni, Gilles Vannier, Précis de littérature française (2020), 122 p.

³⁵ Головановская М.К. Французский менталитет с точки зрения носителя русского языка: монография. – Москва, 1997. – 264-с.

³⁶ Болдина Л.А. История французского языка. –Большая, 2006. –105-с.

bo‘lgan “Menippeia satirasi”ga (*La satire Ménippée*, 1594) Pyer Lerua, Gilles Durand, Nikolas Rapin, P.Pitou, Passerat kabi olimlar o‘z hissasini qo‘shishgan³⁷. Ushbu satira bu davrda “*un tableau de mœurs*” – odob jadvali, kinoya namunasi sifatida xizmat qilgan.

Axloqshunoslar va hikoyachilar tasnifida, eng avvalo, Fransua Rable (1494–1553 yy.) nomini jahon adabiyotining eng buyuk yozuvchilaridan biri sanash joiz. Ushbu davrda yetakchi rol o‘ynagan yozuvchi fransuz tiliga yuzlab so‘zlarni kiritgan va uning aforizmlari hamda iboralari bugungi kunda ham lug‘atlarda so‘zlarning ishlatilishini tasvirlash uchun qo‘llaniladi. Fransua Rablening romanining o‘ziga xos xususiyati va kulgi madaniyatini M.M.Baxtin “Fransua Rablening ijodi: O‘rta asrlar va Uyg‘onish davri kulgi madaniyati” asarida, S.Artamonov “Fransua Rable va uning romani” asarida, A.Jivelegov “Gargantuya va Pantagryuel” romani uchun tanishtiruv maqolasida, N.Revyaka tomonidan nashr etilgan “O‘rta asrlarga oid ensiklopediya”, V. Pinskiy “Kulgi va Rable”, shuningdek “O‘rta asrlar realizmi” asarlarida tadqiq etilgan.

Rablega tegishli “Gargantuya” va “Pantagryuel” ajralmas yaxlitlikdagi mifologik-allegorik asar orqali zamon ruhi va o‘zining ezgu fikrlari va his-tuyg‘ularini ifoda etgan³⁸. Rable qattiqqo‘llikka asoslangan tarbiyani doimiy qoralab, ilm o‘rganishda noodatiy usullarni joriy qilishni o‘z hayot tajribasidan kelib chiqib asarlarida targ‘ib etgan.

Shuningdek, hamma narsani jasorat bilan ifoda eta olgan va tilga o‘zining shaxsiy mulki sifatida qaragan axloqshunos Mishel de Monten (Michel de Montaigne, 1533–1592 yy.), mutafakkir yozuvchilarning shuhrati, ularning asarlaridan foydalanadiganlar soni bilan o‘lchansa, vaqt tartibida birinchi muallif sanaladi³⁹. Uning “Les Essais”i insonni chuqur va jiddiy o‘rganadi: o‘zi chizib, shunday umumiy g‘oyalarni, shunday haqqoniy va yorqin rasmlarni topadiki, u hamma zamonlarning kishisidek tuyuladi. Uning shiori: “*Que sais-je?*” (“Men nimani bilaman?”) jumlasini butun ta’limotini sarhisob qiladigan jumladir.

Tarixchilar sifatida fransuz tarixshunosi Dyü Haylan (Du Haillan), Fransua de Bellefort, Lancelot de la Popelinier, solnomachi Palma Kayet (Palma Cayet), Klod de Seyssel (Claude de Seyssel), Gakuin (Gaquin) va Nikol Gilles (Nicole Gilles)larni ko‘rishimiz mumkin⁴⁰. Tarixiy sharhlari aql va idrok, shuningdek, hazillari bilan kuchli va esda qolarli uslubda ijod qilgan Blez de Monlyuk (Blaise de Monluc, 1503–1577 yy.) hamda

³⁷ Болдина Л.А. История французского языка. –Большая, 2006. –105-с.

³⁸ <https://www.litres.ru/fransua-rable/gargantua-i-pantagryuel-4/chitat-onlayn/>

³⁹ Васильева Н.М. История французского языка. – Москва,1963. –437-с.

⁴⁰ Болдина Л.А. История французского языка. – Большая, 2006. –126-с.

Pyer de Brantom (Pierre de Brantôme, 1527–1614 yy.) o‘z davrining xotiralarini, tarixning diqqatga sazovor voqealarini asarlarida yozib qoldirgan.

Tarjimonlar va olimlar orasida tilni boyitgan Jak Amiyot (Jacques Amyot, 1513–1593 yy.) bu davrda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lgan Plutarx tarjimasini bilan ikki narsani amalga oshirdi: Ronsarning ishini davom ettirish hamda tilni boyitish. Amiyot muvaffaqiyatga erishdi: u usluban moslashuvchanlikni ta‘minladi va Plutarxga o‘zining fiziognomiyasini taqdim qilib, ritorikani sodda va yoqimli muallifiga aylantirdi. Amiotning tarjimasini maqtovg‘a loyiq deb hisoblagan Monten asarlarida ham shu holatni kuzatish mumkin.

Huquqshunos Etien Paskye (Étienne Pasquier, 1529–1615 yy.) – Renessans davrida huquqni o‘rganish so‘f bilim va falsafa o‘rtasida o‘tish vazifasini bajarishi mumkinligini aytgan va ilm-fanda yutuqlarga erishgan serqirra ijodkor.

Anri Estien (Henri Estienne, 1532–1598 yy.) – matbaa biznesida mashhur ijodkor. U hayotini eski qo‘lyozmalarni nusxalash, matnlarni tiklash va muhokama qilish bilan o‘tkazdi. Uning asosiy “*Le Thesaurus poeticus linguae graecae*” asari qiziqish va hayot munozaralariga to‘laligi bilan ajralib turadi.

Uyg‘onish davri fransuz adabiyotida esse janri ixtirochisi Mishel Monten uchun insho qiziqish obyektiga aylangan, shaxsiy tajriba uning fikrlarini yangilaydigan makon hisoblangan. Chunonchi, Monten qaysi mavzuga murojaat qilsa, uni hayotiy tajribaga asoslangan holda aks ettirishga intildi: u o‘z hayotiy hikoyasini aytmas, mukammallikka erishish uchun biografiyadan tashqariga chiqardi. Shunday qilib, insho g‘oyalar yoki mulohazalar adabiyotiga tegishli: bu yangi subyektivlik, o‘zi va dunyo o‘rtasidagi shaxsiy munosabatdir. Darhaqiqat, bugungi kunda ham insho shunday: “men”ga yozish, o‘z atrofimizdagi dunyo haqida fikr yuritish, to lirik shaklga kirgungacha fikrni boyitishdir.

Ushbu davrda Fransiyada adabiyot, san‘at, madaniyat rivojlanishi natijasida fonetika, grammatika, morfologiya, sintaksis hamda so‘z boyligida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi⁴¹.

O‘tgan asrlardan farqli o‘laroq, XVI- asrda o‘sha davrning talaffuzi bo‘yicha ko‘plab bugungi kundagi zamonaviy holatiga kelganligini tadqiqotimiz jarayonida aniqladik. XVI- asr oldingi asrlarga nisbatan fonetika evolyutsiyasini belgilab berdi: so‘z urg‘usi, monoftonizatsiya

⁴¹ Бородина Практикум по истории французского языка/Мелитина Александровна Бородина, Луиза Михайловна Скредина. – 1985.25-с.

(diftong monoftongga aylanishi, unli tovush o'zgarishi), burun undoshlari tizimining fonemalar sifatida shakllanish tendensiyalarini davom ettirdi. Ushbu davrdagi o'zgarishlarga so'z so'ngidagi undoshlardagi keskin jarangsizlashuv, so'z oxiridagi -e ning o'qilmasligi va burun tovushlari tufayli undosh guruhlarning kamayishini aytishimiz mumkin. Ahamiyatga ega bo'lgan burun fonemalarining hosil bo'lishi bilan bir qatorda unlilarda ochiqlik va yopiqlik ko'rinishi yuzaga kelib, tobora etimologik xususiyatini yo'qotganini kuzatish mumkin.

So'z urg'usi XVI-asrda belgilandi va bu so'zlar guruhlari shu darajada birlashtirib fonetik birlikka aylantiradiki, ularning elementlari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi⁴². Ketma-ketlik butunning genetik birligiga hissa qo'shadi, har qanday yakuniy undosh quyidagi singari so'zning boshlang'ich unlisiga tayanadi: *sur un banc*. So'zdagi urg'u oxirgi bo'g'inga yoki oxirgi bo'g'indagi talaffuz qilinmaydigan -e harfiga tushadi.

Fransuz vokalizmi XVI-asrda burun unlilari bilan ifodalangan yangi fonemalar qatori bilan boyitildi. Shuning uchun burun tovushi, xuddi lablashuv va ochiqlik kabi, fransuz fonetikasining tegishli xususiyatiga aylandi. Har qanday unli to'rta: *voyelle antérieure / voyelle postérieure; voyelle ouverte / voyelle fermée; voyelle labialisée / voyelle non labialisée; voyelle orale / voyelle nasale* kabi qarama-qarshilikka ega bo'ldi. XVI-asr oxirida fransuz tilida ã, õ, œ kabi burun tovushlari hosil bo'ldi. XVI-asrning oxirigacha tilshunoslarning guvohlik berishicha, y ning tabiati haqida aniq bir fikr yo'q edi; ular buni ko'proq yopiq tovush deb bilishgan. Qadimgi fransuz tilida etimologik xususiyatga ega bo'lgan *voyelle ouverte / voyelle fermée* qarama-qarshiligi o'rta fransuz tilida muhim o'zgarishlarga uchradi.

Tembr (ochiq yoki yopiq) unli tovushning nutq zanjiridagi holatiga tobora ko'proq ta'sir qildi. Unli tovushning tembri nafaqat undan keyingi undoshlarga, balki birinchi navbatda bo'g'inning xarakteriga ham bog'liq bo'la boshladi. Bu XVII-asrning oxirida ham saqlanib qoldi. Unli tovushning ohangi nafaqat unga ergashgan undoshlarga, balki, eng avvalo, bo'g'in tabiatiga ham bog'liqdir. So'z oxirgi unli talaffuz qilinmaganda, oxirgi bo'g'in yopiq bo'lib, unli ochiq tovushga aylandi. O'tgan asrlarda boshlangan yana bir qancha jarayonlar XVI-asrda davom etdi, ba'zilar esa tugadi. Bu vaqtda *au* diftongi yopiq *o* ga – *autre* [aótre > otra] kabi aylandi.

⁴² Болдина Л.А. История французского языка. – Больдина, 2006. – 121-с.

Soʻz ohiridagi undoshlarning aksariyati asr oxiriga kelib talaffuzda jarangsizlashdi, bu esa fransuz tilining boʻgin turi sifatida ochiq boʻgʻinni kuchaytirdi. Soʻz soʻngida boʻginlarning koʻp qismi ochiq boʻgʻin boʻlib, faqat soʻz ohiri ikki undosh bilan tugagan boʻgʻinlar yopiq boʻlib qoldi: *vert* [vert > ver]. Urgʻusiz *e* ning talaffuzda urgʻusizlashuvi unidan keyin nafaqat soʻz oxirida, balki soʻz ichida ham kelasi zamon shakllarida ot va ravish soʻz turkumlaridagi soʻzlarda kuzatildi: *aise(e)ment, vra(e)ment, remu(e)ment, pri(e)rai, salu(e)rais* kabi. Urgʻu tushgan *-e* jarangsizga almashtirildi: *peser* → *mais je pèse, tu pèses; chante-je > chantè-je* kabi.

Boshqa holatda *z, v, vr* harflari oldidan yopiq boʻgʻin *o* ga urgʻu tushsa, *s* tovushi oldidan kelganida jarangsizlashadi, yopiq boʻgʻinda esa portlovchi tovushga aylanishi kuzatildi: *chose et chouse, sanglot et sanglout, fossé et foussé* singari. Bu kabi talaffuz qilgan insonlarni “*ouistes*”lar deya atashgan.

XVI-asr morfologiyasiga nazar tashlaydigan boʻlsak, tahlil va tartibga solish tendensiyasi ushbu asrda davom etayotgan edi. Ammo tilning ikki qarama-qarshi holatida – biri qadimiy va sintetik, ikkinchisi zamonaviy va analitik – XVI-asr bir necha xil shakl va maʼnolarning birgalikda qolishi hamda ulardan foydalanishdagi koʻplab qarama-qarshiliklari bilan ajralib turdi.

Ot va sifat soʻz turkumidagi *-s* (–lar) koʻplik shakliga aylanib, otlarga alohida *-al, -ail / aux, -el / -eux* singari koʻplik qoʻshimchasi qoʻshilgan holda yasaldi. Ushbu shakllarining ozmi, koʻpmi barqaror holatiga qaramasdan, *-als* koʻrinishida analogik shakllarning paydo boʻlishi ham kuzatildi: *canal, canals; bals, bocals, cals, madrigals; bails, soupirails, gouvernails*.

Birlik shakldan hosil boʻlgan *–ouils*da koʻplik belgisi ham tez-tez uchraydi: *genouils, verrouils* kabi. Sifat soʻz turkumidagi *-e* qoʻshimchasi jinsni ifodalash uchun *-al, -el* bilan tugaydigan *libérale, royale, cruelle, éternelle, telle, quelle* singari sifatlarga ham yoyildi.

-e jenskoj rod belgisi sifatida qaralib, u oʻzgarmas tugallangan mujskoj rodsifatlaridan oʻchirildi va quyidagi kabi shakllarni keltirib chiqardi: *olimpicq, diabolicq, tiranicq; fidel, rebel; agil, viril*. Biroq bu sinfdagi soʻzlarda *-e* ikkala jins uchun ham saqlanib qolgan holatlari ham mavjud.

Tilda sifatlarning mujskoj rod shakli *beau, bel; fou, fol; mou, mol; vieux, vieil; nouveau, nouvel* singari berilgan. Analitik gaplarda qiyosiy va ustunlikni belgilash uchun: *plus (moins) facile; le (la, les) plus (moins) facile* kabi shaklda qoʻllangan.

Aniq artikldan foydalanish, bir tomondan, mavhum otlarga taalluqli bo‘lib, bu unga artikl qo‘llanilmasligi lozim bo‘lgan umumlashtiruvchi qiymatni ham beradi, boshqa tomondan, artiklning qo‘llanilishi endi sintaktik funksiyasi bilan ham qattiq chegaralanmaydi. Qoida umumiy bo‘lmasa-da, artikl to‘ldiruvchiga ko‘ra otning oldidan qo‘llangan.

Bu davrda noaniq artiklning rivojlanishi aniq artiklga nisbatan orqada qoladi. Sifatdan oldin kelgan otlar gohida noaniq artikl bilan ishlatiladi. O‘zgarimas bo‘lib qolgan maqol hamda hikmatli so‘zlarda artiklning qo‘llanilmaslik qoldiqlari ushbu zamonda ham misoldagi singari saqlanib qolgan: “*A grand cheval grand gué; Petite pluie abat grand vend*”.

Qism bildiruvchi artikllarga keladigan bo‘lsak, tadqiqotimizdan ko‘rinadiki, uning qo‘llanilishi hali hanuz “*manger pain*” va “*manger du pain*” kabi tizimlashmagan edi.

Ushbu davr morfologiyasining bir qismi bo‘lgan olmosh so‘z turkumida ham anchagina o‘zgarishlarni kuzatish mumkin. Shaxs olmoshlarining qo‘llanilishi ko‘payib, ba’zi o‘rinlarda belgisiz holati ham kam emas edi. Bu davrda kishilik olmoshining asta-sekin shaxssiz shaklga kirish hodisasi “*il faut*” kabi kuzatildi. *je, tu, il* olmoshlari o‘z mustaqilligini yo‘qotib, bora-bora ajralgan olmosh sifatida qo‘llanishdan to‘xtadi, ular fe‘l bilan birga kelib, bosh gapda bugungi kundagidek urg‘usiz olmosh vazifasida qo‘llandi va urg‘uli holatda o‘z o‘rnini *moi, toi, lui* mustaqil kishilik olmoshlariga bo‘shatib berdi.

To‘ldiruvchi olmoshlar fe‘ldan oldin qo‘llanib, o‘rta asr fransuz tilidagi tartib kuzatildi, shuningdek, vositali to‘ldiruvchi olmosh vositasiz to‘ldiruvchi olmoshdan oldin qo‘llanildi. Tildagi *mon, mes, tes, ses, notre, votre, leur, ton, son (ma, ta, sa), nos, vos, leurs* egalik sifatleri o‘rniga, aniq artikl bilan egalik olmoshlari *le mien* ko‘rinishida qo‘llanila boshlanganini aniqladik.

Bu zamondagi fe‘l so‘z turkumi tadqiqida, uning shaxssiz shakli sanalgan ravishdosh va hozirgi zamon sifatdoshi (*participe présent*) XV-asrdan beri chalkashliklarga duch keladi, hozirgi zamon sifatdoshining egaga moslashish hodisasi tushib qolib (*gérondif*) ravishdoshdan oldin qo‘llanishi aniqlandi. Biroq keyinchalik sifatga ergashgan holda hozirgi zamon sifatdoshi jenskoy rod -e va -s ko‘plik shaklini olishga moyil bo‘lib bordi.

Qo‘shma zamonlardagi barcha mayllar XVI-asrda to‘ldiruvchi bilan o‘tgan zamon sifatdoshining moslashuvi shakllandi. Yordamchi fe‘l vazifasini bajargan “*être*” doimo o‘tgan zamonlarda “*vous fussiez esté*” kabi saqlanib qoladi, ammo bu davrda “*j’ai sortez*” singari jumalalarda

“*être*” o‘z o‘rnini “*avoir*”ga bo‘shatib bergan holatlarni ham uchratish mumkin.

Aspektual ma’noga ega perifrastik iboralar eskirib, tobora harakatning boshi yoki oxirini bildiruvchi fe’llar “*il se met à...*”, “*il commence à...*”, “*il continue de...*”, “*il est en train de*” gap qurilmalarida almashtirilgan⁴³.

O‘tgan asrga nisbatan zamon shakli, ma’nosi va ishlatilishida sezilarli o‘zgarishlar yo‘q edi. O‘tgan zamon yordamida uzoq o‘tgan zamon (*l’antériorité*)ni ifodalashga moyillik tobora muhim ahamiyat kasb etgan. Istak (*subjonctif*) maylidan foydalanishda ma’lum cheklovlar bo‘lib, asosan, xabar (*indicatif*) maylida qo‘llangan, shubhaga urg‘u berilmagan “*croire*” va “*penser*” fe’llaridan keyinchalik foydalanildi. Bu davrda his-tuyg‘uni ifodalovchi (*regret, étonnement, douleur, plaisir*) fe’llar hali istak maylini talab qilmas edi. O‘timsiz fe’lning olmoshli shaklidan kamroq foydalaniladi va ba’zida, hatto olmoshli *se combattre* > *combattre*, *se dormir* > *dormir*, *se marcher* > *marcher* fe’llardan ham voz kechgani kuzatiladi.

Evolyutsiyaning analitiklikka yo‘naltirilgan holati morfologiyada ham, sintaksisda ham ta’kidlanadi. Ko‘p hollarda inversiya yasab, so‘roq, kesim, hol bilan kiritilgan gap, to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘z tartibini hosil qildi. Ega orqali kelgan so‘zlarning tartibi uni ishlatadigan har qanday so‘z birikmasining vazifasini bajardi, shu jumladan, predlog bilan kelgan noaniq shakl bugungi kundagi to‘ldiruvchining shaxssiz shakliga quyidagicha aylandi: “*car de trouver nourrice suffisante n’etoit possible en tout le pays (Rabelais)*”.

Garchi qo‘shma zamonlar shu davrgacha o‘z ustuvorlik qiymatida bo‘lsa-da, zamonlar moslashuvi har doim ham kuzatilmadi. XVI-asrning qo‘shma gaplari murakkab bo‘lib, aniqlik kiritish maqsadida *que* bog‘lovchili murakkab gaplar ko‘payib bordi, davomiylikni ifodalash uchun *quand, incontinent que, lorsque, cependant que, tant que* payt ravishlari qo‘llandi. Bu davrdagi ergashgan qo‘shma gaplar bog‘langan qo‘shma gaplarga nisbatan ko‘proq qo‘llanishi bilan ajralib turgan.

XVI-asr o‘zidan oldingi va keyingi asrlardan yozuv, san’at, hunarmandchilik hamda ilm-fanning gullab-yashnashi oqibatida leksikasining boyishi bilan farq qiladi.

Renessans davri ilmiy terminologiyaga asos solgan XIV- asr an’analarini davom ettirdi. XVI- XIV- asr kabi ko‘plab maxsus atamalarni

⁴³ Болдина Л.А. История французского языка. Больдина, 2006. – 122-с.

yaratdi. Gumanitar fanlar, grammatika, tarix, din, falsafa va aniq fanlar lotinlashtirilgan yurtlarning joylashuvi, lotin tilidagi kalkalar, derivatsiya yoki kompozitsiya orqali o‘sha davrdagi tirik tillardan so‘z o‘zlashtirish bilan sohaga oid so‘zlar oshib bordi.

Fransuz tili leksikasi, joiz bo‘lsa, lahjadagi leksikaga ham tayandi. Misol uchun *poulin* so‘zi Pikard yoki Normand kabi qadimiy dialektga tegishlidir. Derivatsiya va qo‘shimcha qo‘shish orqali yangi so‘z yasash -*ance*, -*ence*, -*ité*, -*té* suffikslari bilan namuna tarzida quyidagicha otlar hosil qildi: *bienseance* (R. Estienne), *clairvoyance* (Montaigne), *vraisemblance* (Amyot), *stupidité* (Calvin). Fe‘l so‘z turkumiga qo‘shilgan -*age* qo‘shimchasi orqali *attelage*, *navigage*, *fruitage*, *pelage* kabi jamlovchi otlar yasaldi. Sifat so‘z turkumiga -*able*, -*ible*, -*ique* qo‘shimchalari qo‘shilib, *énergique*, *fanatique*, *tragique* (Rabelais), *irrévocable*, *plausible*, *pliable*, *remarquable*, *sociable* kabi shakllar hosil qilindi.

Fe‘llarda, asosan, affiksatsiya va parasintetik qo‘shimcha qo‘shilishi namuna tarzida *avoisiner*, *degrafer*, *ramasser*, *derouter*, *assombrir* singari shaklga keldi. Ushbu davrda faqat og‘zaki nutqda qo‘llangan qo‘shma otlar yozma nutqqa *cache-nez*, *casse-noix*, *chasse-mouches*, *porte-clés*, *portefeuille*, *porte-croix*, *porte-drapeau* kabi shakllarda kirib kelishi kuzatildi.

Yuz yillik urushdan so‘ng, Lyudovik XI ko‘pgina viloyatlarni shtatlarga birlashtirishga muvaffaq bo‘lgach, qirol hokimiyatining nufuzi ortdi. Birlikka intilishlar milliy iboraga aylanishga loyiq tilga ega bo‘lishga intilishlar bilan chambarchas bog‘liq. Biroq XVI- asrning boshlarida lotin tilining adabiy til sifatida nafaqat ta‘lim va fanda, balki adabiyotda ham hukmron edi: o‘sha davrda lotin tilida fransuz tilidan o‘n barobar ko‘p she‘riy asarlar nashr etilgan⁴⁴. Bunday sharoitda Rable o‘zining ulkan dostonini “*langage vulgaire, le français*” – fransuz tilida yozib jasorat ko‘rsatdi. Ushbu ijod namunasi uni bir qator yangi so‘z va atamalar yaratishga imkon berdi.

Bu zamonda “*L’Ordonnance de Villers-Cotterêts*” (1539) farmoni fransuz tilidan foydalanishni belgilab qo‘ydi. Bu esa, o‘z o‘rnida, ko‘plab yangi so‘zlar va atamalar yaratishni taqozo etadi. “*L’Ordonnance de Villers-Cotterêts*” (1539) farmoniga ko‘ra, fransuz tilidan ma‘muriyat ishi va sud jarayonlarida foydalanish belgilangan edi. Taxminan shu asrning o‘rtalarida fransuz tili “*défense et l’illustration*” harakati Pleyada

⁴⁴ Гак Курс перевода. Французский язык. /Владимир Григорьевич Гак, Юлия Иосифовна Львин. – 1970.-38-с.

tomonidan boshqarilgan⁴⁵. Milliy til maqomiga erishish uchun fransuz tili o'zining adabiy qonun-qoidalariga ega bo'lishi kerak edi. Grammatiklar bunga erishdilar va, birinchi navbatda, fransuz imlosida ma'lum tartib o'rnatishga hamda grammatik qoidalarni shakllantirishga muvaffaq bo'lishdi. Ulardan ba'zilari bir nechta zamonaviy tasniflar va qoidalar uchun bugungi kunda ham namuna bo'lib xizmat qiladi.

1.3. Mishel Monten – axloq-odob o'rgatuvchi gumanist, ma'rifatparvar inson

Mishel Monten XVI-asrning buyuk axloqshunosi sifatida tarixga kirgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Monten "*Les Essais*" (*Tajribalar*) asarida o'zini, atrofidagi odamlarni, sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni o'rganadi, inson tabiatini tahlil qiladi, hayotiy hikmat, adolat, haqiqatni izlash va yolg'onni rad etish, ta'lim, sevgi va do'stlik xususida o'z kuzatish, fikr-mulohazalarini ifodalaydi.

XVI-asr Fransiyada insonparvarlik va islohotchilik asri, mafkuraviy va madaniy taraqqiyotning murakkab hamda samarali davri hisoblanadi. Fransuz Uyg'onish davri butun bir mutafakkirlar guruhini vujudga keltirdi, ular tomonidan cherkov sxolastik dunyoqarashidagi tub o'zgarishlarga yo'l ochildi, shu bilan bir qatorda, insoniyat tafakkurining turli xil sohalarida yangi mafkuraning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratildi.

Bundan tashqari, Uyg'onish davri fransuz tilining adabiyot, fan va huquqshunoslik tili sifatida yoyilishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Soha mutaxassislari ta'kidlaganlaridek, XVI-asr qadimgi fransuz va zamonaviy fransuz tillari o'rtasida o'tish davrini yaratdi⁴⁶. Aynan shu davrda ular so'z boyligining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish alohida ahamiyatga ega. XVI-asr lug'aviy boyligi turli manbalardan faol to'ldirilishi tufayli, ayniqsa, boy va rang-barang bo'lgan, masalan, qadimgi tillar (lotin va yunon), fransuz dialektlari, italyan tilidan olingan o'zlashmalar shular jumlasidandir⁴⁷. P.Giro ta'kidlaganidek, "XV–XVI-asrlarda juda ko'p yangi so'zlar yaratildi"⁴⁸. Shu munosabat bilan F.Bruno

⁴⁵ Болдина Л.А. История французского языка. – Больдина, 2006.–128-с.

⁴⁶ Guiraud P. Les champs morpho-semantiques: (criteres externes et criteres internes en etymologie) II Bulletin de la Societe de linguistique de Paris. –1956. – 298 p.

⁴⁷ Болдина Л.А. История французского языка. – Больдина, 2006.–118-с.

⁴⁸ Ehrlich H.-H. Montaigne: la critique et le langage. – Paris, 1972. – 63 p.

P.Ronsarning quyidagi fikrini keltiradi: “Tilimizda qancha so‘z ko‘p bo‘lsa, u shunchalik mukammal bo‘ladi”⁴⁹.

XVI-asr fransuz tili va milliy ongining o‘ziga xos rivojlanishida muhim o‘rin egallagan atoqli mutafakkir va yozuvchilardan biri, “*Tajribalar*” falsafiy traktatining muallifi Mishel Montendir⁵⁰. M.K.Golovanivskaya fikricha, axloqiy va etik ma‘nolarni ifodalovchi so‘zlar semantikasining evolyutsiyasi jamiyatning rivojlanish darajasi, fanlar va, birinchi navbatda, falsafaning holati bilan bog‘liq⁵¹. Bu so‘zlar abstrakt ma‘nolarining shakllanishi, ko‘pincha, yetuk faylasuflarning nomlari bilan aloqadorlik kasb etadi. Monten shaxsiyati diapazoni uning bevosita ta’siri ostida XVI asrning abstrakt lug‘ati shakllangan degan taxmini muayyan darajada asoslaydi.

“*Tajribalar*” asarining tuzilishi va mazmuni asar muallifining ichki qiyofasi (*livre consubstantiel à son auteur* – “muallifidan ajralmas kitob”, MM, II kitob, 593) uning tashqi dunyoni, insonni anglash hissi bilan uzviy bog‘liq, o‘z shaxsini butun “inson zoti” ustidan kuzatish uchun eng yaxshi obyekt sifatida berilgan fikr bilan aloqadordir. “*Tajribalar*” asari – o‘z-o‘zini kuzatish natijalarini umumlashtirmaydi, ular kuzatishning o‘zi va usulini so‘zda muhrlab, timsol sifatida ishlaydi. Asarda, birinchi navbatda, o‘z-o‘zini kuzatishdan kelib chiqqan holda, shaxsni real idrok etish aks ettirilgan tajriba shuni ko‘rsatadiki, inson o‘zgaruvchan va hamma narsaga bo‘ysunuvchi mavjudot, jumladan, atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga, taqdirga, ichki rivojlanish turlariga ham.

Nemis olimi E.Auerbax to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Monten usuli, uning borliqdagi barcha o‘zgarishlarni atroflicha hisobga olgan holda tashqi tomondan injiq va hech qanday rejaga bo‘ysunmaydigan, mohiyatan qat’iy eksperimental – bunday mavzuga mos keladigan yagona usuldir”⁵².

“*Tajribalar*”ning shakli va janri Monten tomonidan tanlanmagan bo‘lsa-da, aslida bu umumlashmalar uning ixtirosidir. Montenda u so‘z hali ham o‘zining asl etimologik ma‘nosini – “tajriba”ni saqlab qoladi, ya’ni insonning fikr yuritish qobiliyatiga asoslangan tajribadir. “*Je veux qu’on voye mon pas naturel et ordinaire, ainsin detraque qu’il est*”⁵³.

⁴⁹ Jouanna A. Recherches sur la notion d’honneur au XVIe siècle. Revue d’Histoire Moderne et Contemporaine, 1968. – 168 p.

⁵⁰ Голованивская М.К. Французский менталитет с точки зрения носителя русского языка: монография. – Москва, 1997. – 250 с.

⁵¹ Голованивская М.К. Французский менталитет с точки зрения носителя русского языка: монография. – Москва, 1997. – 279 с.

⁵² Ауэрбах Э. Мимесис. – Москва, 1976. – 292 с.

⁵³ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 409 p.

Yozuvchi, o‘zi ta’kidlaganidek, fikrlarining tabiiy va odatiy yo‘nalishida barcha chiziqlarini ko‘rishni xohlaydi. Monten erkinlikni insonning eng muhim jihati va eng oliy yaxshiligi deb hisoblaydi. *“Mes fantasies se suyvent, mais par fois c'est le loing, et se regardent, mais d'une veue oblique ... C'est l'indiligent lecteur qui pert mon subject, non pas moy...”*⁵⁴. Monten uslubining taniqli tadqiqotchilaridan biri F.Grey shunday yozadi: “Asarning boblari ichida, shubhasiz, deyarli sezilmaydigan fikr burilishlari orasida bog‘liqlik mavjud, lekin bu yerda oldindan belgilab qo‘yilgan hech narsa yo‘q va kompozitsiya xuddi Montendagi shubha ruhi takrorlayotgandek asarda doimiy izlanishga aylanadi”⁵⁵.

Mishel Eyquem de Monten 1533-yil 28-fevralda Fransiyaning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan Perigorddagi Monten qal’asida tug‘ilgan. Ota tomonidan Monten XV-asr oxirida zodagonlikni olgan va Montening bobosi (1477 yil) sotib olgan yer nomidan o‘z ismiga Monten familiyasini qo‘shgan badavlat savdogar oilasidan chiqqan. Italiyaga sayohat qilgan Montening otasi yangi gumanistik ma’rifatga shunchalik hurmat bilan singib ketgan ediki, u o‘zining to‘ng‘ich o‘g‘li Mishelni shu yo‘nalishda va shu ruhda o‘qitishga qaror qiladi. Montening otasi Pyer Eyquem o‘g‘lini, keyinchalik Monten yozganidek, uni “eng oddiy va eng qashshoq hayot tarziga” o‘rgatish uchun kambag‘al dehqon oilasiga yubordi⁵⁶.

Monten ikki yoshga to‘lganda otasi unga lotin tilini eng oddiy usulda o‘rgatish maqsadida fransuz tilini bir og‘iz ham bilmaydigan, lekin lotin tilini nihoyatda yaxshi biladigan nemis o‘qituvchisining qaromog‘iga berdi. Ota ham, ona ham, ba’zi lotin iboralarida o‘qitilgan xizmatkorlar ham bolaga faqat lotin tilida murojaat qilishgan. Ushbu original ta’lim tizimi tufayli kichkina Monten lotin tilini ona tilidek o‘rgandi. “Hech qanday hiyla-nayranglarsiz, – deb yozadi Monten, – kitoblarsiz, grammatikasiz va hech qanday qoidalarsiz, tayoqlar va ko‘z yoshlarsiz, men ustozimga tegishli bo‘lgan benuqson sof lotin tilini tushundim va o‘rgandim, chunki men uni buzmoq uchun boshqa hech narsani bilmas edim”⁵⁷.

⁵⁴ Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 994 p.

⁵⁵ Gray F. Montaigne bilingue. – Paris, 1991. – 27-p.

⁵⁶ МОНТЕНЬ М. ОПЫТЫ / отв. ред. Ю.Б. Виппер; пер. с франц. А.С. Бобовича. – Москва: Наука, 1979-1980. – Кн. 1-3. – 171-с.

⁵⁷Ўша манба – 163-с.

Mishel Monten olti yoshga to'lganda otasi o'g'lini Bordodagi kollejga yubordi. Ammo bu maktab, garchi unda bir qator taniqli gumanistlar dars bergan va Fransiyada eng yaxshi deb hisoblangan bo'lsa-da, Monten uchun unchalik katta foyda keltirmadi. Lotin tilini mukammal bilishi tufayli Monten o'qishni odatdagidan erta tugatdi. Monten hayotining keyingi yillari haqida ma'lumotlar kam uchraydi. Otasi uni sudyalik darajasiga tayyorlaganligi sababli uning huquqshunoslik bo'yicha tahsil olgani ma'lum. Monten 21 yoshga to'lganda Pyer Eyquem Genrix II tomonidan ta'sis etilgan lavozimlardan biri – Perigedagi Hisob sudi maslahatchisi lavozimini sotib oldi, ammo keyin Bordo shahrining meri etib saylanganidan so'ng u o'g'lining manfaatidan kelib chiqib egallagan lavozimidan voz kechadi⁵⁸.

1557-yilda Perigorddagi Hisob palatasi tugatiladi va uning xodimlari Bordo shahri parlamenti tarkibiga kiradi. Shunday qilib, Monten 25 yoshida Bordo shahri parlamentining maslahatchisi bo'ldi. Magistratura a'zosi sifatida Monten o'z vazifalarini sodiqlik bilan bajardi. Biroq Monten ko'rgan sud muhiti, uning mayliga mos kelmaydigan xizmatning o'zi kabi uni erta zeriktira boshladi.

1570-yilda Monten otasining o'limidan ikki yil o'tib Bordo shahri parlamenti maslahatchisi lavozimidan iste'foga chiqdi. Bordo shahri parlamentidagi uzoq yillik faoliyati Mishel Montenning hayotiy tajribasini sezilarli darajada oshirdi, unga turli xil ijtimoiy sharoitdagi va turli e'tiqoddagi ko'plab odamlar bilan uchrashish imkoniyatini berdi. Xizmatni tark etgach, Monten otasidan meros qolgan qasrga joylashadi.

Monten kutubxonasi devorlariga lotin yozuvida o'yib yozilgan jumalarda jamoat ishlaridan nafaqaga chiqqanligini izohlaydi. Unda Masihning tug'ilgan yili 1571da, hayotining 38 yilida, sudda qullarcha qolishdan va davlat vazifalaridan uzoq vaqt charchagan Mishel Monten hayotining eng qizg'in pallasida o'zini dono muzalar, homiylar qo'lida yashirishga qaror qiladi: shu yerda, tinchlik va osoyishtalikda, umrining qolgan qismini o'tkazishga, agar taqdir nasib etsa, o'zini ozodlikka bag'ishlagan mana shu turar joyini, ajdodlar panohining qurilishini tugatib, bu yerda tinchlik va osoyishtalikda dam olishga ahd qilganligini yozib qoldirgan⁵⁹.

Shunday qilib, Monten, o'z so'zlari bilan aytganda, qolgan umrini “muzalar xizmatiga” sarflashga qaror qiladi. Monten qishloqda

⁵⁸Монтень М. Опыты / отв. ред. Ю.Б. Вишпер; пер. с франц. А.С. Бобовича. – Москва: Наука, 1979-1980. – Кн. 1-3. – 171-с.

⁵⁹Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 327 p.

yolg'izlikda vaqtini ko'proq turli xil kitoblarni o'qishga bag'ishlaydi. O'zining ham 1580-yilda Bordoda nashr etilgan "Tajribalar"i, keyinchalik uning to'ldirilgan ikkinchi nashri o'sha yerda dunyoga keladi.

1581-yilda Monten Yevropa bo'ylab sayohat qiladi, bu paytda Bordo shahrining meri etib saylanganligi haqidagi qirollik xabarini oladi. Shunday qilib, Monten o'z hayotini amaliy ishlardan uzoqda tugatish rejasini tuzganidan keyin o'n yil o'tgach, sharoit uni yana jamoat faoliyati sohasiga kirishga majbur qiladi. Mishel Montenning mer sifatidagi dastlabki ikki yillik faoliyati fuqarolar urushidagi ikki yillik sulh davriga to'g'ri keldi, Monten yana ikki yilga qayta saylandi, bu hukumatning unga nisbatan katta ishonchi ifodasi edi⁶⁰.

Keyingi ikki yillik shahar hokimligidan so'ng Monten iste'foga chiqib, qasrga joylashadi, u yerda yana o'zining adabiy faoliyatini davom ettiradi. 1586–1587-yillarda u "Tajribalar"ning avval nashr etilgan qismlariga ko'p qo'shimchalar kiritadi va uchinchi kitobini yozadi. 1588-yilda "Tajribalar"ning to'rtinchi nashri chop etildi, bu esa esse janridagi asarning, shubhasiz, ulkan muvaffaqiyati edi. Keyingi yillarda ham Monten "Tajribalar"ni yangi nashr uchun tuzatish va mukammallashtirishni davom ettirdi, biroq kitobning chop etilishini ko'rish unga nasib etmadi. Mishel Monten 1592-yil 13-sentabrda 59 yoshida vafot etdi⁶¹.

Monten hayotining so'nggi kunlarigacha "*Tajribalar*" ustida ishladi, 1588-yilgi nashr nusxasiga tuzatishlar kiritdi. Monten vafotidan so'ng yozuvchining vataniga uning "asrandi qizi" Mari de Gurne keladi va adib esselarining keyingi nashri uchun g'amxo'rlik qiladi. Madmuazel de Gurne va Montenning boshqa do'stlari sa'y-harakatlari bilan muallif tomonidan so'nggi yillarda kiritilgan o'zgarishlar hisobga olingan nashr 1595-yilda chop etildi⁶².

Inson va uning atrofidagi olam o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, yaxshilik va yomonlikni idrok etish, yovuzlikka qarshi kurash haqidagi savol va muammolar faylasuf, shoir va barcha ziyoli insonlarni muntazam ravishda qiziqtirib kelgan. U asari orqali erkinlik va inson baxti, inson qalbining sirlarini kuzatadi, uning ko'rinmas chizgilarini yoritishga harakat qiladi. Shuningdek, "*Les Essais*" (*Tajribalar*) asari axloq-odob

⁶⁰ Montaigne M. *Les Essais* / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 330 p.

⁶¹Supple J.J. *Les Essais de Montaigne: Methode(s) et methodologies II The Modern Language Review*. – 2001. – 45 p.

⁶² Supple J.J. *Les Essais de Montaigne: Methode(s) et methodologies II The Modern Language Review*. – 2001. – 48 p.

o'rganuvchi uchun hamda tarbiyachiga oid o'ziga xos didaktik ko'rsatmadir.

Axloq (lotincha *moralis* – axloqiy) – axloq-odob, inson xatti-harakatlarini belgilaydigan va tartibga soluvchi me'yorlar hamda qadriyat g'oyalari tizimidir⁶³. Oddiy odat yoki an'anadan farqli o'laroq, axloqiy me'yorlar yaxshilik va yomonlik, adolat va boshqa ideallarga asoslanadi, ularga rioya qilish faqat ma'naviy ta'sir shakllari bilan tasdiqlanishi mumkin.

Darhaqiqat, “axloq” tushunchasi alohida qadriyatlarga ega bo'lgan ma'naviy hodisalardan biri bo'lib, og'zaki vositalar bilan ham tushuntirilishi lozim. Biroq bu tushunchaning mazmuni ham, tilda ifodalanish shakllari ham davrdan davrga o'tib o'zgarib boradi. Masalan, quyidagi fakt juda qiziq: Montening “*Les Essais*” (*Tajribalar*) asari yaratilgan o'sha yillarda fransuz tilidagi “*morale*” va “*moraliste*” so'zlari hali lug'aviy ro'yxatga olinmagan edi⁶⁴. Lug'atlarga ko'ra, “*morale*” XVII-asrda, “*moraliste*” esa XVII-asr o'rtalari – XVIII-asrlarda ot so'z sifatida qayd qilingan. O'z asarlaridan birini jamiyat tarixidagi so'z tarixiga bag'ishlagan R.A.Budagov madaniyat va sivilizatsiya, shaxs va insoniylik kabi abstrakt ma'noli so'zlarni ajratib ko'rsatadi⁶⁵. Olimning fikricha, ular ijtimoiy doiradagi so'zlar bo'lib, uzoq tarixga ega va odatda o'z semantik rivojlanishida to'xtab qolmaydi, bizning davrimizda ham yangicha tus olishda davom etadi. Tadqiqotdagi “*morale*” so'zi bilan xuddi shu kabi holat kuzatiladi.

Shubhasiz, “axloq” tushunchasi fransuz jamiyatida “*morale*” va “*moraliste*” so'zlarining fransuz lug'atlarida qayd etilishidan ancha oldin mavjud bo'lgan. Masalan, “*vertu*” so'zi o'rta asrlardan buyon shu ma'noni ifodalash uchun ishlatilgan. Monten tili yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra, bu davrda etimologik ma'noga ega bo'lgan “*vertu*” leksemasining hosila ma'nolari orasida “axloqiy kuch” (“fazilat”) ma'nosi bilan alohida ajralib turadi, u tor polisemiya asosida paydo bo'lgan umumiy semalarning o'ziga xosligi (“kuch”) bilan differensial semalar almashinuvi, ya'ni “jismoniy” semasining asl ma'nodan “o'chirilishi” va “axloqiy” ma'nodagi semaning qo'shilishi aniqlangan. “*Vertu*” leksemasi ushbu ma'noda shaxs xislatini bildiradi⁶⁶.

⁶³ Supple J.J. *Les Essais de Montaigne: Methode(s) et methodologies II The Modern Language Review*. – 2001. – 755 p.

⁶⁴ Supple J.J. *Les Essais de Montaigne: Methode(s) et methodologies II The Modern Language Review*. – 2001. – 700p.

⁶⁵ Будагов Р.А. Что такое развитие и совершенствование языка. – Москва: Наука, 1977. – 3-5-с.

⁶⁶ Кузнецов Э.В. О путях выделения компонентов значений слов при описании ЛСГ // Актуальные проблемы лексикологии и лексикографии. – Пермь, 1972. – 6 с.

Bu fikrni F. Godefroy'ning IX–XV-asr soʻzlari lugʻati tasdiqlaydi, bu oʻrinda “*vertu*” soʻzining asl maʼnosi “*puissance physique ou morale*”⁶⁷, yaʼni “jismoniy yoki maʼnaviy kuch”dir.

Biroq XVII-asrgacha “axloq” tushunchasi hali bir soʻzli ifodaga ega emas edi. Lugʻatlarga koʻra, dastlab axloq va odob gʻoyasi *moraliste* lotinizmiga borib taqaladigan – “*vertu*” va “*philosophie*” kabi otlar bilan birgalikda axloq bilan bogʻliq maʼnosini ifodalagan. Masalan: “*Les vertus morales sont aussi comme mors (meurs) de nature: car nos trouvons aucune foiz l’ome fort, chaste et juste des enfance*”⁶⁸. *Et aussi en especial De philosophie morele (!) Et celle qui est naturelle*⁶⁹” fikri Monten asarining axloqiy jihatlarini tadqiq qilgan izlanuvchilar tomonidan qayd qilinadi.

“*Robert Historique*” lugʻatiga koʻra, XVIII-asrgacha “axloq” tushunchasi “*vertu morale*” iborasidagi “*vertu*” soʻzi bilan yoki boshqa abstrakt soʻzlar yordamida, masalan, “*philosophie morale*”⁷⁰ iborasida ifodalangan. “*Moral*”, yaʼni ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan tushuncha mustaqil nominatsiyaga ega boʻlmagan va abstrakt maʼnoli otning axloqiy sifatdoş birikmasi hisoblangan.

Asarning matn tahlili koʻrsatadiki, “axloq” tushunchasi Montening “*Les Essais*” (*Tajribalar*) asaridagi matnida ham xuddi shu tarzda oʻz ifodasini topgan: “*Je propose une vie basse et sans lustre, c’est tout un. On attache aussi bien toute la philosophie morale a une vie populaire et privee que a une vie de plus riche estoffe: chaque homme porte la forme entiere de l’humaine condition*”⁷¹. Yaʼni: “Men oddiylik va yorqinlik uygʻunlashgan hayotni taklif qilaman. Barcha axloqiy falsafa mashhur va shaxsiy hayot bilan bogʻliq boʻlgani kabi boyroq hayotga ham bogʻlangan: har bir kishi inson holatining butun shaklini oʻz zimmasiga olishi taʼkidlangan”⁷².

Bundan tashqari, fransuz oʻrta asrlar davrida “axloq”, “odob” tushunchalari “*moeurs*” va “*moralité*” kabi otlar yordamida ham ifodalangan. Birinchisi, lotincha “*mores*” soʻzidan olingan boʻlib, qonun

⁶⁷ Godefroy F. Dictionnaire de Pancienne langue francaise et de tous ses dialectes du IX au XV siecle. – Paris: Bouillon, 1881-1902. – 10 volume.

⁶⁸ Legros A. Essais sur poutres: Peintures et inscriptions chez Montaigne. – Paris, 2000. – 117 p.

⁶⁹ Recueil des sujets d’explication de texte de l’épreuve de philosophie, Academie Montpellier, 2021.-57 p.

⁷⁰ Кузнецова Э.В. О путях выделения компонентов значений слов при описании ЛСГ // Актуальные проблемы лексикологии и лексикографии. –Пермь, 1972. – 10с.

⁷¹ Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 585 p.

⁷² Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 585 p.

bilan emas, balki odatlar bilan belgilanadigan xulq-atvor (jismoniy yoki axloqiylik)ni anglatadi. Ko‘pincha “xarakter, fe’l” ma’nosida ishlatiladi.

Lotincha “*moralitas*” (xarakter, xususiyat) so‘zidan olingan “*moralité*” so‘zi ot sifatida XVIII-asrdan boshlab “axloq, odob” ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan (adabiy asardan olinishi mumkin bo‘lgan, ya’ni pand, nasihat, o‘git). “*Ces philosophes icy donnoient extreme prix a la vertu et refusoient toutes autres disciplines que la morale*⁷³”. Bu o‘rinda ta’lim berishning (pand-nasihatning) kuchli konseptual ma’nosi mavjud. XV-asrdan boshlab “*moralité*” so‘zi o‘rta asrlarning dramatik janrini ham anglatishga xizmat qilgan. XVII-asrdan boshlab so‘zning terminologik ma’nosi zaiflashgan va “*moralité*” so‘zi insonning qadr-qimmatini ifoda etishga nisbatan qo‘llanila boshlagan, unga ko‘ra, u axloqiy (*de la morale*) talablarga javob beradi, masalan: “*Quelle est la moralité de cet homme?*” (“Bu insonning axloqi qanday?”).

“*Morale*” so‘zi, yuqorida ta’kidlanganidek, fransuz adabiy tili tarkibidan XVII-asrga kelib o‘rin olgan, “*philosophie morale*” (1637) iborasidan aniqlangan ellipsis natijasidir, buning natijasida jensko y roddagi *morale – la morale* so‘zi belgilangan. Dastlab bu so‘z to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilingan va qo‘llanishi mumkin deb hisoblangan xulq-atvor qoidalarini ifodalagan. 1688-yildan boshlab “*la morale*” so‘zi “axloqiy falsafiy risolalar” va “asardan olingan axloqiy saboq” ma’nosida qo‘llanila boshlagani tadqiqotlarda qayd qilinadi. L.Undhagen ta’kidlanganidek, XVII-asrda “axloq” ma’nosida qo‘llanilgan “*la morale*” so‘zi “*la vertu*” otiga o‘xshashdir. Masalan, (*morale = vertu*): “*J’aime mieux mourir mille fois que d’enfreindre les principes de morale et de vertu dont on a mon enfance*⁷⁴”. Bugungi kunda “*la morale*” so‘zi quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. Xulq-atvorning axloqiy me’yorlari, odamlar bilan munosabatlar, shuningdek, axloqning o‘zi (insonni boshqaradigan ichki, ma’naviy fazilatlar, axloqiy me’yorlar, shu fazilatlar bilan belgilangan xulq-atvor qoidalari);

2. Biror narsadan mantiqiy, ibratli xulosa chiqarish;

3. Axloq-odobga oid ko‘rsatma.

“*Moraliste*” so‘zi fransuz tilida XVII-asrning oxiri – XVIII-asrning o‘rtalarida XVI-asr tilini to‘liq aks ettiruvchi (E.Huguet) lug‘atiga ko‘ra, 1690-yilgacha “moralist/axloqshunos” tushunchasi sifatdosh “*morale –*

⁷³ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 580 p.

⁷⁴ Villey P. Les Sources et evolution des Essais de Montaigne. – Paris, 1933. – 36 p.

philosophe” so‘z birikmasi yordamida ifodalangan: “*Ce bon vieillard athenien père des philosophes moriaux, qui beuvoit toute la nuict*⁷⁵.”

Fransuz tilining etimologik lug‘atlariga ko‘ra, “*moraliste*” so‘zi 1690-yildagi “*morale*” so‘zidan shakllangan. Dastavval *moraliste* – odob-axloq haqida yozuvchi va gapiruvchi muallifdir. 1762-yildan boshlab bu so‘z kengroq ma’noga ega bo‘la boshlagan, jumladan, axloq, odob, tarbiya haqida fikr yuritadigan, shu tushunchalar doirasidagi masalaga daxldor vazifalar bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan.

XVI-asrda fransuz lug‘atlarida “*moraliste*” so‘zi hali qayd etilmaganiga qaramay, ko‘pchilik tadqiqotchilar Mishel Montenga aynan shu so‘z – moralist vositasida odobshunos-axloqshunos deb baho berishadi. Ko‘pchilik Montenni moralist, ayrimlar esa uni gumanist, uchinchilari esa uni faylasuf deb hisoblashadi. Xususan, G.Tryuk va P.Ville Montening faylasuf emas, balki axloqshunos, ehtimol, eng buyuk axloqiy ko‘rsatmalar berishga qodir shaxs ekanligini ta’kidlaydilar⁷⁶. To‘g‘ri, odob-axloq mavzusi “Tajribalar”ning asosiy mavzularidan biri. Biroq XII - asr shaxsi nuqtai nazaridan, axloqiy tarbiyalash axloqiylashtirish yoki ko‘rsatma sifatida emas (bu XVII - asrga xos bo‘lgan), balki axloqiy, ma’naviy omil sifatida, xulq-atvorni va ularni belgilaydigan qoidalar sifatida taqdim etilgan va buni amalga oshirish jamiyatda shaxs uchun zarur bo‘lgan ma’naviy fazilatlar sifatida belgilangan⁷⁷. Ya’ni Monten davridagi shaxs ongida “axloq” tushunchasi hali “muayyan voqelikdan kelib chiqadigan mantiqiy, ibratli xulosa” ma’nosiga ega emas edi. Keyingi davrlarga xos bo‘lgan bu ma’no “*la morale*” so‘zida XVII-asrga kelib Paskal va Lafonten kabi mashhur moralistlar (axloqshunoslar) hayoti va faoliyati davrida aks etgan.

Monten axloqi esa pand-nasihatsiz o‘git berguvchidir. Muallif inson uchun zarur bo‘lgan odob-axloq, uning doirasidagi qoidalar va fazilatlarni o‘rgatadi, uning xatti-harakatini shaxsiy hayotiy tajriba asosida belgilaydi. Qayd qilinganlar va “*Les Essais*” (*Tajribalar*) asari mazmuniga asoslangan holda Montenni o‘z davrining (XVI-asr) moralisti deb hisoblash mumkin. Bu o‘rinda moralist sifatida “odob-axloq haqida fikr yuritadigan shaxs”ni bilish lozim, ya’ni odob-axloq masalasida pand-nasihahat beruvchi va shu kabi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs tushunchasi anglashiladi. A.Chassan va Sh.Senninjer fikrlaricha, Monten

⁷⁵ Montaigne M. *Les Essais* / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 585 p.

⁷⁶ Montaigne n'est pas un philosophe mais un moraliste, le plus grand peut-etre, True 1945.-72: Villey, 1988.-25 p.

⁷⁷ Villey P. *Les Sources et evolution des Essais de Montaigne*. – Paris, 1933. – 47 p.

ham intellektual, ham insonparvar, kitoblarga singib ketgan insondir. Ayrim olimlar Mishel Monten gumanist hamda axloqiy ko'rsatmalar berishga qodir shaxs ekanligini ta'kidlaydilar. Tadqiqotchi A.Mishaga ko'ra, *“Monten XVI-asrning gumanist va axloqshunosi, oliy ma'lumotli, qadimgi adabiyotni mukammal biladi va unga ergashishini tan oladi”* (*“Montaigne est humaniste et moraliste au XVI s. tout lettre qui a une bonne connaissance et le culte des lettres anciennes”*⁷⁸).

“Humaniste” (insonparvar) so'zi tarixiy manbalarga ko'ra, 1539-yildan boshlab fransuz tilining izohli lug'atlarida uchraydi. So'zning dastlabki etimologik ma'nosi “qadimgi yunon va lotin tillari hamda adabiyotini, ya'ni gumanistik fanlar (*les humanités*) deb ataladigan sohalarni chuqur biladigan bilimli, insonparvar shaxs”dir. 1677-yildan boshlab *“humaniste”* so'zi o'zining asl ma'nosidan boshqa ma'noni ifodalashga, ya'ni XV–XVI-asrlar ma'rifatparvarlarini anglatishga nisbatan qo'llanila boshlagan va 1740-yildan boshlab bu so'z gumanitar fanlardan dars beruvchi shaxs ma'nosida ham ishlatilgan. Ammo odatda “gumanist” atamasi Uyg'onish davrida lotincha *“humanista”* so'zidan olingan deb izohlanadi. Mazkur so'zning aynan shu ma'nosi adabiyot va tarixda juda faol ekani ko'pchilikka ayon.

Demak, Monten – gumanist, lekin masala atamaning zamonaviy tushunchasi va talqinida emas, balki uning asl mohiyatida, ya'ni insonlarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'la olish, ijtimoiy faoliyatda insonparvarlikning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, uni targ'ib qiluvchi, insonparvarlik tuyg'usini shakllantirishda amaliy faoliyatni amalga oshiruvchi ma'rifatparvarlik muhim masala hisoblanadi.

Ma'lumki, Mishel Montenni aynan faylasuf sifatida tavsiflagan uchinchi nuqtai nazar ham mavjud. A. Kont-Sponvil ta'kidlaganidek: *“On se trompe sur lui quand on veut en faire un moraliste: il ne dit pas ce qu'il faut faire mais ce qu'on fait, non le bien, mais le reel, non la sagesse mais la vie. C'est en quoi il est philosophe, quoi qu'il en dise parfois, et sage à sa facon, et plus philosophe que nos sophistes, et plus sage que les sages”* (Comte-Sponville 1989: 12). Ya'ni: “Biz Montenni axloqshunos demoqchi bo'lganimizda xato qilamiz, u nima qilish kerakligi haqida emas, balki biz qilayotgan ishlar haqida gapiradi, yaxshilik haqida emas, haqiqat, donolik haqida ham emas, balki hayot haqida so'zlaydi⁷⁹. Binobarin, u ba'zan nima desa ham, faylasuf va o'ziga

⁷⁸ Micha A. Introduction II Michel de Montaigne. Essais. – Paris, 1995. – 19-p.

⁷⁹ Micha A. Introduction II Michel de Montaigne. Essais. – Paris, 1995. – 15-p.

xos donishmand, bizning sofistlarimizdan buyukroq faylasuf, donishmandlardan ham donoroqdir”.

Fikrimizcha, muallif Mishel Montenni moralist emas, balki faylasuf sifatida baholar ekan, bu soʻzning zamonaviy tushuncha maʼnosida axloqshunosni, koʻrsatma va oʻgit beruvchi, axloqiylashtirish bilan shugʻullanuvchi shaxsni nazarda tutadi. Binobarin, “*philosophe*” soʻzining oʻzi “*moraliste*” va “*humaniste*” leksikalariga nisbatan kengroq semantikaga egaligi aniqlanadi.

Maʼlumki, faylasuf dunyoqarash masalalari bilan shugʻullanuvchi nazariyotchi, mutaxassis, mutafakkir sanaladi. XIII-asrdan boshlab “*philosophe*” soʻzi fan va axloqiy donishmandlik bilan shugʻullanuvchi shaxsga nisbatan qoʻllanila boshlangan, 1670-yildan boshlab esa “falsafa oʻqituvchisi” maʼnosida ham uchraydi. “*Robert Historique*” lugʻatiga koʻra, XVI-asrda “*philosophe*” soʻzi bilan ifodalangan shaxsning vazifalari sezilarli darajada kengaygan. XVII-asr falsafasi “spekulyativ mashqlar”dan axloq va inson bilimi faniga (1660), yaʼni “*moraliste*” soʻzi zamiriga asoslanadigan tushunchani diqqat markaziga olib oʻtadi. Umuman olganda, bu davrda “*moraliste*” va “*philosophe*” soʻzlari muayyan darajada maʼnodoshlik munosabati doirasida qaralishini ham inkor etib boʻlmaydi.

Demak, Monten shaxsi oʻz davrining fransuz tili prizmasi orqali bir-birini toʻldiruvchi “*humaniste*” va “*philosophe*” soʻzlari vositasida tavsiflangan. Buning natijasida, keyinchalik “*moraliste*” soʻzida kristallangan tarkibli maʼno ham shakllangan, bu esa Mishel Montenni moralist sifatida bilishga hamda XVII-asrda ushbu soʻz semantik koʻlamining mazmunan boyish imkonini yaratgan.

Birinchi bob boʻyicha xulosalar

1. Insoniyat paydo boʻlgan davrlardan beri oʻz zurriyodining munosib farzand, insoniy fazilatlar egasi boʻlishiga intilib keladi. Bu borada ayniqsa, Uygʻonish davrining tadqiq va talqinida jahon olim va mutafakkirlari, ajdodlarimizning oʻz qarashlarini asarlarida yozgan fikr va mulohazalarida oila qurish zaruratidan tortib, oila aʼzolarining oʻzaro munosabatlari, ota-ona va farzandlarning huquq va burchlari, hatto goʻdaklarni tarbiyalash haqidagi masalalar yoritib berilgani; ijtimoiy omil sifatida oilaning jamiyatdagi oʻrni, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratish zarurati; sogʻlom, maʼrifatli

oila va u voyaga yetkazadigan yetuk avlod tarbiyasidagi ahamiyati o'rganildi.

2. Tadqiqotda Renessans davri fransuz adabiyotining madaniyat taraqqiyotida ishtirok etgan olim va yozuvchilar Fransua Rable, Mishel de Monten, Yoaxim du Bellay, Pyer de Ronsar, Giyom de Bartas, Etien Jodel, Pyer Lerua, Gilles Durand, Nikolas Rapin, P.Pitou, Passeratlarining fransuz tilini boyitishdagi o'rni, leksikologiya, imlo, grammatika va sintaksis qoliplari shakllanishidagi hissasi va ishtiroki yoritildi.

3. Uyg'onish davri fransuz tilining shakllanishi va rivojlanishi katta so'z boyligiga egaligi tufayli XVI-asr fransuz tilini o'rganmaslik mumkin emas edi. Bu XVI-asrga oid E.Huguetning keng qamrovli lug'atida ham o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotmadi. Jumladan, ko'plab leksikologik va leksikografik tadqiqotlar, alohida lisoniy birliklar va so'z turkumlariga bag'ishlangan izlanishlar ham fransuz lug'atining rivojlanishiga XVI-asrda o'z hissasini qo'shganlar orasida doimo buyuk Rable va Monten ham qayd qilinganligi ma'lum bo'ldi.

4. Fransuz lisoniy jamoasi uchun faol va umumiy ma'noga ega bo'lgan madaniy taraqqiyot bilan tanishish ushbu millatning madaniy kodiga kirishni, fransuz lingvomadaniyatidagi Renessans bazasini tushunishni ta'minlaydi. Fransuz adabiyotining milliy-madaniy tarkibining ajralmas qismi dinamik xarakterga ega bo'lib, uning bugungi kun strukturasidagi ushbu poydevorni o'rganish va ijtimoiy-baholash lisoniy tizimiga xos fon bilimlari asosida o'rganish tadqiqotimizni tizimlashtiradi.

5. Axloqning murakkab tabiati va qonuniyatlarini tushunish ta'limni eng yaxshi narsalarni to'playdigan axloq kontekstidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmasligi, bu insoniyatning ma'naviy hayot sohasidagi yutuqlari va realikni aks ettirishida o'z hissasini qo'shib kelayotgani ta'kidlandi. Axloqiy ong asoslari nafaqat qalbda rivojlanishi, balki uning manbasi din ham ekani, axloq barcha ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanib, u insonning turli hodisalar va narsalarga munosabatini ko'rsatishi Monten asarida o'z ifodasini topganligi aniqlandi.

6. XVI-asr fransuz tili parallel asoslari orqali Mishel Monten faoliyati "*humaniste*" va "*philosophe*" so'zlari bilan ifodalanishi mumkin, ular bir-birini to'ldirib, keyinchalik "*moraliste*" so'zida mustahkamlangan mazmunni ifodalaydi. Aynan shu holat Montenni moralist sifatida anglashga imkon beradi.

II BOB. MISHEL MONTEN “TAJRIBALAR” ASARIDA TARBIYAGA OID LEKSEMALARNING IFODALANISHI

2.1. Mishel Montening lingvofalsafiy qarashlari

Soha tadqiqotchilari “Mishel Montening falsafiy qarashlari montenshunoslikning murakkab muammolaridan biridir”, deb hisoblashadi. Montening “Tajribalar”ini sinchiklab o‘rganish mutafakkirning falsafiy qarashlarini bir chiziqda yoki bir yo‘nalishda tavsiflab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. U sof faylasuf emas edi, “lekin Uyg‘onish davrining barcha yozuvchilari singari u ham davom etayotgan jarayonlarni falsafiy tushunish va yangi yo‘l-yo‘riqlar izlashga sho‘ng‘ib ketgan”. Monten falsafasi – bu hayotiy fikrlash falsafasi, ammo antik davr, o‘rta asrlar va insonparvarlik falsafiy ta’limotlarini yodda tutgan holda, intellektual inson arsenalida chuqur gumanitar ta’limni o‘z ichiga olgan shaxsning fikridir. Shunday qilib, Mishel Montening falsafiy qarashlari stoik, skeptik, epikur va ratsionalizmga xos bo‘lgan g‘oyalarning murakkab birikmasini ifodalaydi.

Monten yoshligida do‘sti La Boite ta’siri ostida Stoikning murakkab go‘zalligiga hurmat ko‘rsatdi. Bu Monten dunyoqarashining birinchi bosqichi bo‘lib, u Senekaga, Katon Tsenzorning qahramonliklariga qoyil qoldi (Monten Katonni, asosan, o‘zining sevimli ustoz Plutarx orqali idrok etgan). Bu bosqich natijalari 1580-yilda birinchi marta nashr etilgan “Tajribalar”ning dastlabki ikki kitobida o‘z ifodasini topgan⁸⁰.

Stoik ta’limotida (miloddan avvalgi 300-yillar) fizika (tabiiy falsafa) va mantiqqa asoslangan etika yetakchi o‘rinni egallaydi. Dunyo (kosmos) stoiklarda cheksiz bo‘shliqdagi jonlantirilgan sharsimon jism – oqilona mavjudot sifatida ifodalanadi, uning barcha qismlari maqsadga muvofiq tartiblangan yaxlitlikka aylantiriladi. Inson ruhi, dunyo aqliy ruhining bir qismi – nafas, tanadir; butun tanani qamrab oladi va o‘lim bilan u tanadan ajralib, shaxsiy xususiyatlarning tashuvchisi bo‘lishni to‘xtatadi. Ruhning “yetakchi qismi” yurakda joylashgan bo‘lib, u yerda barcha psixologik jarayonlar sodir bo‘ladi. Bilim hissiyot va g‘oyalardan tug‘iladi.

Insonning yakuniy maqsadi – baxt. Stoiklar tomonidan tabiat, hayot *logos* (xudo) deb ta’riflanadi va faqat shunday hayotgina fazilatli hisoblanadi. Yaxshilik va yomonlikni tushunish, yagona yaxshilik va yomonlik – yagona yomonlik deb ta’riflangan “ezgulik” tushunchasi:

⁸⁰Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка, их личностная и национальная специфика: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Воронеж, 1998. – 41 с.

qolgan hamma narsa befarq deb hisoblanadi, chunki u yaxshilikka ham, yomonlikka ham hissa qo‘shishi mumkin. Bu befarqlikda “afzal” (masalan, sog‘lik, boylik) va “afzal bo‘lmagan” (kasallik, qashshoqlik) farqlanadi. Stoiklarning axloqiy ideali – fazilat va befarqlikka erishgan, “o‘zidan qanoatlangan” (*avtarkhiya*), ya’ni tashqi sharoitga bog‘liq bo‘lmagan donishmanddir⁸¹.

U tabiiy qonunlarga muvofiq harakat qiladi, ya’ni ixtiyoriy ravishda taqdirga ergashadi: uning barcha harakatlari to‘g‘ri, ular “to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshiriladigan ishlar”dir, chunki ular qalbning doimiy ezgu niyatidan, boshqacha qilishning ichki imkonsizligidan kelib chiqadi. Bunday harakatlarda, ko‘pincha, odamning nazorati ostida bo‘lmagan tashqi maqsadga erishish emas, balki faqat harakatning axloqiy tabiati, insonning dunyoga va boshqa odamlarga bo‘lgan munosabati, odamning o‘ziga to‘liq bog‘liqligi muhimdir. Boshqalar, jumladan, fazilatga intilayotganlar yoki amallarni, yoki “to‘g‘ri ishlarni” bajaradilar, ya’ni axloqiy jihatdan oqlangan va majburiydir, ammo bular donishmandga xos aqliy holatni anglatmaydi. Demak, stoik maktabi uchun asosiy pozitsiya – yagona yaxshilik sifatidagi fazilat haqidagi ta’limotdir⁸².

“Tajribalar” asarining 1580-yildagi nashrida ta’kidlanishicha, Stoiklar fazilat (fransuzcha “*vertu*” so‘zi)ni ulug‘laydi. Asarning “*Ezgulik haqida*” nomli bobida muallif shunday yozadi: “Ezgulikning oliy maqsadi va toji – doimiylikdir”⁸³.

Bunday yondashuv muallifning ushbu g‘oyaga, umuman, ta’lim-tarbiya, xususan, bolalar tarbiyasi masalasiga juda katta e’tibor qaratganligidan dalolat beradi. Monten uchun “yaxshi fazilat” barcha insoniy fazilatlarning idealidir. Muallif falsafiy tafakkur rivojining hozirgi bosqichida “yaxshi fazilat” faqat irodani doimiy hamda tinimsiz sa’y-harakatlari natijasi bo‘lishi mumkinligini va shu bilan u odatdagi tabiiy mehr-oqibatdan farq qilishini ta’kidlaydi.

Inson uchun harakat qilish, ehtirolarga qarshi kurashish kerak bo‘lmagan joyda “yaxshi fazilat” ham bo‘lmaydi. Bu kurash faqat aqlning faol ishtirokida bo‘lishi mumkin. Mishel Monten “yaxshi fazilat”ni “yomon xulq”dan ajratishga da’vat qiladi. Unga ko‘ra yomon xulqlarni

⁸¹ Бабушкин А.П. Типыконцептов в лексико-фразеологической семантике языка, их личностная и национальная специфика: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Воронеж, 1998. – 28 с.

⁸²Бабушкин А.П.Типыконцептов лексико-фразеологической семантике языка, их личностная и национальная специфика: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Воронеж, 1998. – 14 с.

⁸³ Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 294 p.

ajrata olish qobiliyati bilimsiz yovuz odamdan fazilatli odamni ajratib olish uchun muhimdir.

XVII- asrning atoqli faylasufi va mutafakkiri Borux Spinoza ta'kidlaganidek, fazilat – inson tabiati qonunlariga rioya qilishdir. Gunoh (illat) insonning farovonligiga putur yetkazuvchi sanaladi va har bir inson tabiatan farovonlikka intilayotganligi sababli uning e'tibori, birinchi navbatda, oldi olinishi mumkin bo'lgan gunohlarga (illatlarga) qaratilishi kerak, shunda inson gunohdan qochishi mumkin⁸⁴.

Yetuklik davrida – Mishel Monten Bordo shahri parlamentining amaldori sifatida hayot bilan tanishganida – Fransiya tomonidan erishilgan milliy birlashuv va mamlakatni parchalab tashlagan fuqarolar urushi ta'sirida azoblangan qattiqqo'l Senekadan Lukretsiyga murojaat qiladi, u orqali Epikurni idrok etadi. Endi Monten Demokrit va Epikurga ishora qilib, ruh va tana o'rtasidagi munosabat masalasini hal qiladi: u (masalan, *"Mashq qilish to'g'risida"*, II kitob, VI bobda) ong organizmda sodir bo'ladigan o'zgarishlarga qarab vujudga kelishi, o'zgarishi va yo'qolib borishini asoslab beradi. Shu bilan birga, Montening himoyalangan tananing ruhdan ustunligi to'g'risidagi g'oyasi polemik jihatdan keskinligi va Stoiklarning qarashlariga zidligi bilan alohida ahamiyatlidir.

Inson tabiat tomonidan berilgan barcha jismoniy va ma'naviy zavqlardan bahramand bo'lishi kerak – bu Montening hayotni sevish falsafasi asosiy qoidalaridan biri bo'lib, u stoikka bo'lgan ishtiyoqini yengib o'tadi. Bundan tashqari, fransuz mutafakkiri Epikurning Lukretsiy she'rida bayon etilgan g'oyalarini o'zlashtirib, ruh inson tanasining bir qismi ekanligini isbotlaydi. Ammo agar ruh tanaga butunlay bog'liq bo'lsa, Montenga ko'ra, u ham tananing o'limi bilan birga yo'qlikka yuz tutishi lozim. Shunday qilib, ruhning tanaga bog'liqligini tan olish Mishel Monten uchun ruhning o'lmasligini inkor etishga olib keladi. Bu tabiat qonunlarini o'rganish bilan tasdiqlanadi, unga ko'ra, tug'ilgan hamma narsa yetuklikka erishadi, keyin eskiradi va nihoyat o'ladi⁸⁵.

1580-yildan keyingi nashrlarida Monten *"Tajribalar"*ida yaxshi fazilat va zavq uyg'unligini ulug'laydi, *"yaxshi fazilat"*ning pirovard maqsadi zavq ekanligini ta'kidlaydi⁸⁶. Mutafakkir falsafiy taraqqiyotining ushbu bosqichida *"yaxshi fazilat"* *"qualité plaisante et gaye"* (*"yoqimli va quvnoq narsa"*) sifatida namoyon bo'ladi. U *"Tajribalar"* kitobining

⁸⁴ Спиноза Б. Избранные произведения. Т.1. – Москва: Госполитиздат, 1957. – 525 с.

⁸⁵ Aulotte R. Montaigne: "Essais". – Paris, 1988. – 267.

⁸⁶ Aulotte R. Montaigne: "Essais". – Paris, 1988. – 77-р. Яна қараг: 181, 267-270; 92, 102-103

1588-yildagi nashridagi XX-bobiga kiritilgan qo‘shimchalarda quyidagilarni qayd etadi: “*L’heur et la béatitude qui reluit en la vertu, remplit toutes ses appartenances et avenues, jusques à la première entrée et extrême barrière. Or des principaux bienfaits de la vertu est le mépris de la mort, moyen qui fournit nostre vie d’une molle tranquillité, nous en donne le goust pur et amiable, sans qui toute autre volupté est esteinte*” [176, 82]. Bizning fikrimizcha ham, saodat va baxt bilan fazilat porlaydi, so‘ngi chegarasigacha unga tegishli hamma narsani yorqin nur bilan to‘ldiradi, hayotimizga tinchlik va osoyishtalik beradi. Mishel Monten so‘zlarni qo‘llashdagi mohirlikni uslubning soddaligi, adabiy tilni boyitishdagi munosabatida ko‘ramiz.

Montenning bolaligida ona tili lotin tili bo‘lgan, ammo gaskon dialekti bu davrda muhim o‘rin egallagan, shu sabab ham asarda 30 ga yaqin gaskon dialektiga xos *appiler, asture, bastine, bavasser, bonnetade, boutades, desconsoler, estrette, harpade, palot, parentalle, passade, retirer à revirade, stropiat* kabi so‘zlarni kuzatish mumkin. Yozuvchi mujskoy rod otlarini jenskoy rodga – *debte, patenostre, couple* qo‘llaydi yoki, aksincha, jenskoy rodga Shimoliy Oksitan dialektlarining boshqa xususiyatlarini ham o‘z asarida ifodalashga erishadi⁸⁷.

O‘zining sof ovozliligi bilan hayratga soladigan gaskon shevasini Monten mazmunli deb hisoblashini o‘z asarida qayd qilgan. Bundan tashqari, “*Les Essais*” (*Tajribalar*) asaridagi interferensiya hodisasidan, ya’ni ona tili ta’siri ostidagi ikkinchi tildan foydalangan. Ma’lumki, interferensiya ikki tilda so‘zlashuvchi shaxs nutqida xorijiy til urg‘usi sifatida namoyon bo‘lib, u turg‘un (jamoaga nutqining o‘ziga xos xususiyati sifatida) va o‘tkinchi (idiolektning xususiyati sifatida) bo‘ladi⁸⁸. Interferensiya (so‘zning tor ma’nosida urg‘u) tilning barcha darajalarini qamrab olishga qodir, ayniqsa fonetikada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Interferensiyaning asosiy manbai – o‘zaro ta’sir qiluvchi tillar tizimidagi nomuvofiqliklar: har xil fonematik tarkib, fonemalarning pozitsion amalga oshirilishidagi turli qoidalar, ularning mosligi, turli intonatsiya, differensial va integral xususiyatlarning har xil nisbati, grammatik kategoriyalarning turli-tuman tarkibi yoki ularni ifodalashning turli usullari shular jumlasidandir⁸⁹. Uning mexanizmidagi interferensiya

⁸⁷ Montaigne M. *Les Essais* / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. 98-104 p.

⁸⁸ Головановская М.К. Французский менталитет с точки зрения носителя русского языка. Монография. – Москва, 1997. – 90с.

⁸⁹ Ж.Жалолов Чет тили ўқитиш методикаси, -Т., Ўқитувчи, 1996.,-Б.31

hodisasi fonologiyadagi asosiy diaxronik o'zgarishlarga o'xshaydi. Munosabat tovushlar aralashishi natijasida hosil bo'ladi.

Qayd qilingan ayni holatlarni hozirgi fransuz tili va Monten "*Les Essais*" (*Tajribalar*) asarida qo'llangan so'zlarning o'zaro qiyosi orqali ham kuzatishimiz mumkin. "*Les Essais*" (*Tajribalar*) asari birinchi kitobining 23-bobidagi "*De la coutume et de ne changer aisément une loi reçue*" qismida farzand tarbiyasiga doir fikr ifodalangan quyidagi gap o'rin olgan: "*Platon tança un enfant qui jouait aux noix*⁹⁰." Aflotun yong'oq bilan qimor o'ynayotgan bolani koyishi gapidagi farzand tarbiyasiga oid fazilat *tancer* fe'li orqali ochib berilgan, ushbu fe'l o'zbek tilida "kingadir qattiq tanbeh bermoq" degan ma'noni anglatadi.

Muallif tomonidan ushbu so'zning o'ndan ortiq sinonimlari bo'lishiga qaramasdan, farzand tarbiyasida qattiqqo'llik muhimligini alohida ta'kidlash maqsadida yadro sifatida ma'noni kuchaytirish uchun ushbu fe'l tanlangan. *Tancer qqn pour, sur qqch.: tancer qqn durement, sévèrement, vertement, d'importance* – "kimnidir nimadir uchun keskin tanqid qilmoq" ma'nosiga ega fe'l dastlab 1100 yilda *tencier a aucun* – "injurier, outrager quelqu'un", ya'ni "kimnidir haqorat qilmoq" ma'nosida ishlatilgan. XIII-asr birinchi choragiga kelib *tancier*, XIII-asr ikkinchi yarmida o'timli fe'l *tenchier* – "injurier, gronder, réprimander", ya'ni "la'natlamoq", "tanbeh bermoq" ma'nosida qo'llangan. Lotin tilidagi vulgarizmdan kirib kelgan fe'l *tentiare* shaklidan *tentus*, o'tgan zamon sifatdoshi *tendere* – "tendre, faire effort", lug'atlarda "chorlamoq", "harakat qildirmoq" ma'nolarida izohlanadi.

Shu o'rinda tarjima bilan bog'liq kalka xususida ham to'xtalish joiz. Kalka (fransuzcha *calque* – nusxa) – muayyan xorijiy til birligini so'zmaso'z tarjima qilish orqali yangi frazeologik birlik, so'z yoki so'zning yangi ma'nosini shakllantirishdir. Kalka semantik, frazeologik bo'lishi mumkin, har qanday holatda ham so'z boyligining oshishiga xizmat qiladi. Xususan, asarga ko'ra: "*le jeu de noix*" (lotin tilidan olingan *nucibus ludus*) – yong'oq o'yini bilan Qadimgi Rimda shug'ullanilgan bo'lib, u bugungi kundagi billiard o'yiniga to'g'ri keladi⁹¹.

Lotin tilidan o'zlashtirilgan boshqa so'zlar sifatida "*Ludus castellorum*" (qal'a o'yini)ni qayd qilish mumkin. Bu so'zlar bilan ifodalangan o'yin qoidasiga ko'ra, aldamoqchi bo'lgan o'yinchi qasrni tashkil etuvchi to'rtta yong'oqni bir yoki ikki marta nishonga olib,

⁹⁰ Montaigne M. *Les Essais* / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 91-p.

⁹¹ Céard J. "La culture du corps. Montaigne et la diététique de son temps", *Le Parcours des Essais. Montaigne 1588-1988*, éd. M.Tetel et M.Masters. – Paris, 1989. – 71-84-p.

bittasini uning ostiga qo'yilgan uchning yoniga qo'shadi. Boshqalar esa yong'oqni belgilangan tekislikka tushirishadi va uni yong'oqlardan biriga tekkizishga harakat qilishadi. Yong'oq ham toq va yakka o'yinda ishlatiladi, g'olib bo'lgan o'yin sovringa ega bo'ladi. Bu davr lotin, yunon va fransuz tilining shakllanish bosqichlari davri bo'lganligi sababli Montening asarida bu kabi kalkalarni ko'plab uchratish mumkin. Til voqelikning har qanday hodisasi kabi barqaror emas, muntazam ravishda goh sekin, goh tez o'zgarishga uchraydi, rivojlanadi. O'zgarish tilning doimiy xususiyatidir. D.N.Ushakov ta'biri bilan aytganda: "...bu o'zgarish tilning hayotidir⁹²".

Mishel Montening asarlari tarixiy, adabiy-tanqidiy, falsafiy yondashuvlar nuqtai nazaridan ko'plab tadqiqotlarning o'rganish manbai bo'lib kelgan. Monten asarlari tiliga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar, ushbu masala talqiniga doir asarlar miqdoran kam bo'lsa-da, adib asarining lingvo-falsafiy xususiyatlari ko'pgina tadqiqotchilarni o'ziga bevosita, bilvosita jalb etganligini kuzatishimiz mumkin⁹³.

Montening yozuvchi va faylasuf sifatidagi o'ziga xos uslubi qisqa vaqt oralig'ida shakllanmagan, "*Les Essais*" (*Tajribalar*) ustidagi yigirma yillik ijodiy izlanishi mobaynida sayqallanganini kuzatishimiz mumkin. Uslub Monten falsafiy qarashlarining rivojlanishiga parallel ravishda evolyutsiyani boshdan kechirdi. "Tajribalar"dagi dastlabki esselar keyingi davrdagi yetuk esselarga nisbatan qisqa va "bir chiziqli". Ular orasidagi farqni asarda ko'p bora qayd etilgan "hikoyalar" funksiyalarining o'zgarishida ham kuzatish mumkin. Agar "birinchi davr" esselarida fikr, ko'pincha, "tarix"ning sharhi tarzida bo'lsa, keyingilari, aksincha, "tarix", "tasodif" tafakkur illyustratsiyasiga aylanadi. M.Demonet ta'kidlaganidek, "Monten tanlagan "bilvosita", chetlab o'tilgan taqdimot usuli kitobxon e'tiborini jalb qilish, fikrning barcha evrilishlariga ergashish, yashirin ishoralarni tushunish va sukunatlarni ochish uchun juda murakkab yondashuvni talab qildi".

Metaforalar va antitezalar, paradokslar, so'z o'yinlari – bularning barchasi Mishel Monten tomonidan ko'p va oqilona qo'llaniladi. Xususan, yozuvchi ijodining bir tadqiqotchisi "Tajribalar"da 1263 ta obrazli iborani qayd etgan.

Mutafakkir Monten ijodining barcha tadqiqotchilari tomonidan uning iborasi, ayniqsa, moslashuvchan ekani alohida ta'kidlanadi. Bu o'sha

⁹² Попова З.Д. Понятие "концепт" в лингвистических исследованиях / З.Д. Попова, И.А. Стернин. – Воронеж, 2000. – 13-с.

⁹³ Bourgeois Noëlle, Marie-Françoise Chauve, Jean-Yves Guillaumin Jeux de noix de la Rome antique et jeux de billes de Franche-Comté Dialogues d'histoire ancienne Année, 2007. – 84-p.

paytda shakllanish davriga oid zamonaviy fransuz tilining tuzilishi bilan bog'liq edi. XVI-asrda hali ham barqaror bo'lmagan grammatik iboradagi so'zlarning erkin tartibi, ularning tanlovi ham qat'iy qoidalar bilan cheklanmagan. Mazkur grammatikaning xizmati shundan iboratki, unda tilning umumiy nazariyasini yaratishga, u yoki bu hodisalarni mental nuqtai nazardan tushuntirishga intilish xarakterlidir.

XVI-asr grammatikachilari orasida ikki xil fikr mavjud bo'lib, ba'zilar (Boze, Rene Dymarse) Por Royal grammatikasining g'oyalarini rivojlantirgan bo'lsa, boshqalari (Kondiyak, Destyut de Trasi) tilning fikr ifodalashdagi roli va uning fikrga nisbatan birlamchi ekanini ta'kidlab, falsafaning bilish nazariyasi oqimiga kirdilar⁹⁴. XVIII-asr grammatikachilari gap, xususan, qo'shma gap so'z tartibi, gapdan katta birlik va matn tuzilishini o'rganishga hissa qo'shganlar. Ular tilda tavsiflanayotgan narsalarning holatini aks ettiruvchi tabiiy qurilmalar va ularni o'rganish natijasida hosil bo'ladigan ko'chma qurilmalar mavjudligini alohida qayd qilishadi.

Tilshunoslik sohasidagi paradigmatic bog'lanishlarga kiritilgan ushbu turdagi so'zlarni o'rganish uchun matn juda muhimdir, chunki aynan shu matnda o'tmishdagi odamning tafakkuri, uning g'oyalari, e'tiqodlari va qiziqishlari aks ettirilgan⁹⁵. S.Brunoning fikricha, Montening "Tajribalar"i yorqin shaklning tafakkur chuqurligi bilan birlashtirilganligi tufayli adabiyot tarixchilari va g'oyalar tarixchilari uchun alohida ahamiyatga ega⁹⁶.

Monten asariga berishni xohlagan xarakterni berishda xalqona tanish ohanglardan foydalanadi. Bu holat ijodkorning o'quvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishiga yordam beradi. Bundan tashqari, maqollardan foydalanilganda mohiyatan uni hamma tushunadi va ijodkor hamda kitobxon o'rtasida muloqot muvaffaqiyati mustahkamlanadiki, bunda maqol formulalarining soddaligi, ifoda intensivligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Monten, birinchi navbatda, tildan nimani talab qilsa, uning "fikrlovchi" bo'lishiga erishadi, uning g'oyalarini uzatishda va aynan maqollar uning yanada aniqroq bo'lishiga yordam beradi. U shakl haqida qayg'urishdan yiroq, lekin uning uchun eng muhimi, til ifodasidan ko'ra, tushunchaning mahsuldorligidir.

Monten uslubiy chegaralarni tan olmaydi. Bu uning asar ifoda shakliga mutlaqo ahamiyat bermaydi, degani emas, zero, uning uchun eng

⁹⁴ Baertschi B. Sens moral. Dictionnaire d'éthique et de philosophie morale. – Paris, 2004. – 103-p.

⁹⁵ Сафаров Ш.С. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 344 б.

⁹⁶ Bruneau Ch. Petite histoire de la langue française: des origines a la Revolution. – Paris: Armand Colin, 1958. – 135-p.

muhimi: “*de la fécondité des conceptions, plus que du langage*” – til ifodasidan ham ko‘proq tushunchaning samaradorligidir⁹⁷. Shunga qaramay, so‘zlar va narsalar o‘rtasida masofa bor. Buni Monten insholar davomida, xususan, “*De la vanité des paroles*” bobida tasvirlab bergan. Monten o‘zining tabiiy uslubiga qarshi chiqib, ularning mohiyatini aniqroq tushunishga intilgani kuzatiladi.

Ommabop formulalardan foydalanishni yoqtiradigan Rabledan farqli o‘laroq, Monten ularning “umumiy” ishlatilishini va, ayniqsa, metaforik ma’nosiga ko‘proq e’tibor qaratadi. Fikrlarni mavhum sohadan moddiy va jismoniy sohaga o‘tkazadigan majoziy ma’no ularga qaysidir ma’noda aniq shakl beradi. Xalq doimo xalqona tilda o‘z haqiqatini aytadi, hatto ular nomoddiy narsalar bilan muomala qilsalar ham, ularni kundalik hayotdan olingan yorqin tasvirlarga taqqoslaydilar, o‘xshatadilar va ularga tez-tez murojaat qiladilar, fikrlarni mavhumlik olamidan majoziy ma’no orqali aniqlikka ko‘chiradilar. Matnga narsalarning moddiyligini kiritish orqali formulalarning, shuningdek, mazmuni tufayli ixcham shaklda to‘plangan diskursiv bo‘shliqning, ifodalar kuchli sezilishi keraksiz aylanishining oldi olinadi va ortiqcha so‘zlar, moddiylik yetishmasligini yashiradi, shunga qaramay, u Monten tomonidan tez-tez tanqid qilinadi.

Muallif Sitseronni, ayniqsa, so‘z erkinligi borasida tanqid qiladi va u buni Rable tomonidan ishlatilgan maqol iborasi yordamida amalga oshiradi: “*Ni les subtilités grammairiennes, ni l’ingénieuse contexture de paroles et d’argumentations, n’y servent: Je veux des discours qui donnent la première charge dans le plus fort du doute: les siens languissent autour du pot*”⁹⁸. Monten grammatik noziklik, so‘z va dalillarning mohir tuzilishi so‘z erkinligiga xizmat qilmasligini, qaror qabul qilishi kechiksa-da, birinchi navbatda, shubha bilan gapiradigan nutqni xohlashini ta’kidlaydi.

“*Tourner autour du pot*” – biror narsani aniq aytishda qiynalish degan ma’noni anglatib, Monten bu o‘rinda “*tourner*” fe’lini “*languir*” fe’li bilan almashtirib qo‘llaydi. O‘z navbatida, Monten “*en tournant en rond*”, “*autour du pot*” aylanish orqali nafaqat bahsga yetib bormaydigan, balki to‘liq charchagan nutqning zaifligini ta’kidlash uchun shunday qiladi. Demak, “*languir*” fe’lidan foydalanish orqali muallif Sitseron uslubida kuch va jonkuyarlik yetishmasligini ta’kidlaydi. Qattiq

⁹⁷ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 267-p.

⁹⁸ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 414-p.

jismni chaqiruvchi “*pot*” – qozon tasviri Sitseronning bo‘sh nutqiga qarshi vazn sifatida xizmat qilishini ta‘minlashga erishish uchun qo‘llangan. Bunday muxolifat tanqidni kuchaytiradi va yozuvchi masalaning mohiyatiga kirish, fikrning “*moelle*”, ya‘ni “iligi”ni uzatish uchun qanday fikr bildirish kerakligini amalda ko‘rsatadi⁹⁹.

Asarda maqollardan o‘rinli foydalanish muallif g‘oyasini samarali va aniq ifodalashga yordam beradi. Monten ta‘kidlaganidek, u o‘quvchining fikrini jalb etadi va atrofdagi boshqa fikrlarga chalg‘imasligini ta‘minlaydi. Zero, qisqalik, ma‘no konsentratsiyasi va soddaligi talaffuzga qarshi, bo‘sh, ortiqcha, san‘at va so‘z san‘atidagi tabiiy uslubdir.

San‘at va tabiat Monten fikrining ikki qutbini tashkil qiladi. Muallif bu antinomiyaadan insholar davomida bir nechta parcha yaratishda foydalanadi. Ma‘lumki, ijodkor so‘z san‘atini tabiiylashtirish uchun o‘z tasvirini shunday olib boradi, deydi Pyer Luis Jozep Ville¹⁰⁰. U yana Sitseronni tanqid qilib: “*Si ce n’est qu’on dise que celle [éloquence] de Cicéron, étant en si extrême perfection, se donne corps elle-même¹⁰¹*”, Sitseronning notiqligini nihoyatda mukammal, o‘ziga xos shaklga ega, deyish hamisha ham haqiqatga to‘g‘ri kelavermaydi, zero, so‘z san‘atkorligi o‘ziga xos qonuniyatlari asosida muqobil ochiq haqiqatni yopiq tizimda qamrab ola bilishni taqozo etadi.

Montenning maqsadi o‘quvchiga o‘zining haqiqiy va chuqur tabiatini yetkazib berishdir. Sun‘iy ritorika so‘zlarni narsalardan uzoqlashtiradi, tabiiy ritorika fikrlar ifodasiga jon bag‘ishlaydi, fikrlar ifodasining soddaligi yozuvchi bilan obyekt o‘rtasidagi masofani qisqartirib boraveradi. Eng muhimi, aynan yozish orqali Monten o‘zining “sodda shaklini” qayta kashf etganini hech bir tadqiqot inkor etmaydi. U uchun sodda bo‘lish – bu nafaqat tabiiy bo‘lish, balki tabiatning tabiiyligini, bizga ko‘rsatadigan tartibli hayotiylikni izlashdir. “Uning bu qadimiy ko‘rsatmasini ko‘rib chiqqanimiz uchun: biz tabiatga rioya qilmasligimiz mumkin emas, hukmronlik qoidasining o‘zi unga rioya qilishdir”, deydi XVI- asr fransuz adabiyoti bilan shug‘ullangan mutaxassis Pyer Luis Jozep Ville. Pyer Ville (1879–1933 yy.) 4 marotaba Fransuz akademiyasi laureati bo‘lgan, 1909-yilda Ville “*Les sources et l’évolution des essais de Montaigne*”, ya‘ni “*Monten insholari evolyutsiyasi va manbalari*” uchun Marselin-Geren mukofotini olgan. Monten asarlarining nashrini

⁹⁹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 305-p.

¹⁰⁰ Ўша манба. – 270-p.

¹⁰¹ Ўша манба. – 390-p.

amalga oshirishda o‘z hissasini qo‘shganki, nusxalar ichida eng mashhuri, shubhasiz, uning “*Essais de Montaigne*” izohli nashri sanaladi.

Adabiy sohada Monten uchun odam o‘zini ruh va tananing, mavhum va aniq, tushuncha va sezgilarning organik birligi sifatida namoyon qiladi. An’anaviy oziq-ovqat metaforalari kishilar o‘zaro bir-birini tez va oson tushunishlariga yordam beradi, chunki ular intellektual hayotni fiziologik hayotga yaqinlashtiradi. “*De l’Institution des enfants*”, ya’ni “*Farzand tarbiyasi*” bobida bilim olish oziq-ovqat mahsulotini hazm qilish jarayoniga o‘xshatiladi.

Monten ruhni intellektual boyitish uchun *mordre* – tishlamoq fe’lini ishlatadi: “*Ce sont là préceptes épineux et mal plaisants, et des mots vains et décharnés, où il n’y a point de prise, rien qui vous éveille l’esprit: en cette-ci l’âme trouve où mordre, où se paître. Ce fruit est plus grand sans comparaison, et si sera bien tôt mûri*”¹⁰², ya’ni *mordre* fe’lining majoziy ma’nosi Antuan Fyoretyer (Antoin Furetière) tomonidan tasdiqlangan. “*Mordre*” – intilish, biror narsaga erishish ma’nosini bildiradi. “*L’Algebre est une science si eslevee, que peu de gens y peuvent mordre*” (1998: *mordre*). Ya’ni: “Algebra – shunchalik yuksak fanki, uni kam odamlargina uddalay oladi”. Xuddi shunday, fransuz aktyori va dramaturgi Hippolyte le Roux ham “intilmoq, tushunmoq” ma’nosida iqtibos keltirib: “*Connaître les causes et la raison des choses*” – “sababini bilish narsalarning mohiyatini bilishdir”, deya ta’kidlaydi. Shu tarzda fe’lning bilimga intilish, tegishli qiyin mavzuni tushunish kabi ma’nosi hosil bo‘lgan.

Fe’llarni majoziy ma’noda ishlatish XV- asrda keng tarqalgan. Ayniqsa, fe’lning keyingi ma’no tasviri XVI - asrda Xolyer va Rableda ko‘proq. Ikkinchisi uni *Pantagruelda* uch marta qo‘llaydi. Birinchi marta tasvirlanganidan keyin “*l’année des grosses mesles*”, hikoyachi xulosa qiladi, bu hodisalar “*matières tant dures et difficiles, que les Astrologues ne y peuvent mordre*” – munajjimlar bilmaydigan darajada qiyin va og‘ir masalalar bo‘lishi mumkin. “*Aussy auroient ilz les dens bien longues s’ils pouvoient toucher jusques là*” – ya’ni “agar ular shu yerga yetib bora olsalar, uzoq vaqt turar edi”¹⁰³. Darhaqiqat, biz iqtibos keltirgan uchta parchada, Rablening ta’kidlashicha, tushunish qiyinligi ma’nosiga e’tibor berilsa, ayni chog‘da Monten hamma narsadan avval aqlga intilish ma’nosiga urg‘u beradi. Bundan tashqari, oziq-ovqatga oid so‘zlarni

¹⁰² Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 245-p.

¹⁰³ Ўша манба. – 218-р.

ishlatib, qarama-qarshilik bilan “*mots décharnés*”, ya’ni nozik soʻzlar bilan ma’no kuchaytiriladi, “*paître*” – oʻtlatmoq, boqmoq fe’li orqali oʻquvchiga beriladigan ta’limni oʻzlashtirishi, meva va uning pishib yetish davridagi foydaliligi bilan tengligi solishtiriladi. “*Prise*” soʻzini tushunish ma’nosida qoʻllaydi.

Xullas, Monten oʻz asarida qoʻllagan metaforalari, umuman, majoziy ma’noni mohirlik bilan ifodalashda idroki kuchli ijodkor boʻlganligini namoyon etadi.

2.2. “Tajribalar” asarida fazilat tushunchasi ifodasining tarixiy-komparativistik omillari

Ma’lumki, tarixiy leksikologiyaning asosiy tamoyillari doirasida soʻzni til tarkibidagi asosiy semantik birlik sifatida tan olish, uni paradigmatic va sintagmatic aspektida leksik-semantik guruh hamda semantik maydonlarning tashkil etuvchisi sifatida oʻrganish kabi masalalar asosiy oʻrinni egallaydi¹⁰⁴. Leksik birliklar nafaqat lugʻatning tarkibiy qismi sifatida, balki ijtimoiy jihatni eʼtiborga olgan holda amalga oshiriladigan elementlar sifatida ham oʻrganiladi¹⁰⁵. Muayyan davr yozma yodgorliklarida biror soʻz yoki soʻzlar guruhini tahlil qilish soʻz ma’nosining oʻzgarishlarini, tilning soʻz boyligi dinamikasini, uning davr bilan bogʻliqligini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Oʻtgan asrning 40-yillarida akademik V.V.Vinogradov shunday ta’kidlaydi: “Tarixiy leksikologiyada soʻzlarning ma’nolarini oʻzgartirish qonuniyatlari individual aniq tarixiy birliklar sifatida, semantik jihatdan yopiq va tarixiy jihatdan shartlangan leksik tizimlarning a’zolari sifatida izlanadi¹⁰⁶”.

Fransuz tilini oʻrganishda muhim uch davr oʻzaro farqlanadi:

1. XVI–XVIII - asrlar;
2. XIX - asr;
3. XX - asr.

Bular sirasida XVI–XVIII - asrlar fransuz tili grammatikasini sinxron oʻrganishga dastlabki urinishlar davri sifatida eʼtirof etiladi. Birinchi grammatika XVI-asrda paydo boʻlgan (J. Dubua yoki Silviyus, 1531; J.

¹⁰⁴ Виноградов В.В. Слово и значение как предмет историко-лексикологического исследования // Вопросы языкознания, 1995. – 10-с.

¹⁰⁵ Постовалова В.И. Лингвокультурология в свете антропологической парадигмы (к проблеме оснований и границ современной фразеологии) // Фразеология в контексте культуры. – Москва, 1999. – 13-с.

¹⁰⁶ Виноградов В.В. Слово и значение как предмет историко-лексикологического исследования // Вопросы языкознания, 1995. – 9-с.

Pile, 1550; L. Megre, 1550; A. Etien, 1565). Bu davrda fransuz tili lotin yoki qadimgi yunon tili ta'sirida boyib borgan, o'zga tilga oid qoida va ta'riflar fransuz tiliga kirib kelgan.

F.Grey o'zining ikki tillilik hodisasiga bag'ishlangan asari "*Montaigne bilingue*"ning muqaddimasida qayd etganidek, o'quvchi matn bilan birinchi aloqada bo'lgan paytdan boshlab, ikki tilga duch keladi. Fransuz tili va lotin tiliga, hatto, ko'pincha, "*fleurs estrangeres*" – "*begona gullar*"dek yoki "*parements empruntez*"¹⁰⁷ – "*tashqi kiritmalar*" sifatidagi lotin tiliga oid so'zlar bilan to'la davr edi. Montanning "*Les Essais*" ("*Tajribalar*") asarining 1588 - yilgi nashrida 500 dan ortiq lotin sitatlarini ko'rish mumkin. Bugungi kundagi nashrlari matnida 400 dan ortiq lotin tiliga oid so'zlarni uchratamiz¹⁰⁸. Bu sitatlar o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun hozirgi kundagi nashrlarda arxaik so'zlarning izohi berilgan.

Ikkinchi tomondan grammatikachilar fransuz tiliga xos xususiyatlarni ham ilg'amasligi mumkin emas edi. Hozirgi davr tadqiqotchilarining yozishicha, Uyg'onish davri grammatikasi bilan shug'ullanganlar bugungi nazariyalarga yaqin qator qiziqarli fikrlarni bildirgan. Ular ham birinchi marta til me'yori haqidagi masalani ko'targan. Agar XV-asr grammatikashunoslari fransuz tili grammatikasi haqida fikr bildirgan bo'lsalar, ularning XVII - asrdagi hamkasblari uni tushuntirishga harakat qilganlar¹⁰⁹. Shu tariqa ikki oqim paydo bo'lgan. Birinchi yo'nalish Vojlanning asarida kuzatiladi (*Remarques sur la langue française*, 1647). Uning uchun til masalalarida "*bon usage*", ya'ni sifat doiralarining nutq me'yori namuna hisoblangan. Bu yo'nalishning ijobiy tomoni – me'yoriy tushunchalar ishlab chiqilgani bo'lsa, salbiy tomoni – umuminsoniy grammatik nazariyaning yo'qligi, ortiqcha sinchkovlik, me'yorning tor ma'noda (tajribaga asoslanmagan holda) tushunilishidir. Ikkinchi yo'nalish yondashuvi mashhur Port-Royal grammatikasida o'z ifodasini topgan (Arnaud A., Lancelot C. *Grammaire générale et raisonnée*, 1660).

Monten hech qachon Gretsiyaga bormagan va yunon tilini ham qisman bilgan. Bu haqda "Tajribalar"ning birinchi kitobi "*De l'institution des enfants*" 26-bobining 174-sahifasida, ikkinchi kitobi "*À demain les affaires*" 4-bobining 363-sahifasida yozib qoldirilgan qaydlar orqali

¹⁰⁷ Montaigne M. *Les Essais* / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 1055 p.

¹⁰⁸ Gray F. *Montaigne bilingue*. – Paris, 1991. – 4-p.

¹⁰⁹ Gisele M.-C. *Montaigne: l'écriture de l'essai*. – Paris, 1988. – 106-p.

ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Biroq "Tajribalar"da 40 dan ortiq iqtibos, eslatma, ishoralar uchragan, ularning ko'p qismi esa yunon mualliflari ijodiga tegishli ekani aniqlangan. Bu davrda Montenga lotin va fransuz tiliga qilingan tarjimalar va Krestin, Stobe, Gambaralarning asarlari orqali ma'lum edi.

Shuningdek, izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Monten yunon madaniyatini bilishda ancha ilg'or bo'lgan, u muntazam ravishda asarda yunon mutafakkirlari va faylasuflaridan iqtiboslar keltirgan, Qadimgi Gretsiya tarixidan olingan lavhalar ustida mushohada yuritgan hamda o'z kutubxonasida, asosan, yunon tilidagi iqtiboslar bilan bezalgan shift ostida o'tirib ijod qilgani, ularning ko'pchiligi uning yagona asari "Tajribalar"ida o'z ifodasini topgani ma'lum bo'ladi¹¹⁰. Jumladan, II.14.50; II.47.281; III.12.496, 526, 601; III.15.612 bob sahifalari kuzatuvi orqali endigina ijod olamiga kirishiga qaramay muallif yunon tilida esselar yozishni uddalaganligi aniqlanadi.

Monten yunon mualliflari asarlariga murojaat qilib, "Tajribalar"ni yozishning birinchi bosqichida, ya'ni 1572–1580-yillarda Plutarxning "*Vies parallèles*" kitobiga ko'p marta murojaat etganligi tufayli asarda yunon adabiyoti va unga oid elementlar anchagina ekanligi aniqlandi. 1580-yildan e'tiboran Monten ushbu asardan 90 ta ko'chirma (iqtibos) oladi [174, 8]. "*Oeuvres morales*" asaridan esa 125 ta ko'chirma oladi. Monten 1565 - yilda yaratilgan "*Vies*" va 1572- yilda yozilgan "*Oeuvres morales*" asarlarining Jak Amiot tarjimasidagi variantlarini mutolaa qilib, o'z asarida axloqiy masalalarni yoritishda ulardan foydalangan.

Shuningdek, Monten o'z asarini yaratish davomida tarixchilarning keltirgan faktlaridan ham unumli foydalangan. U Jak Amiot tarjimasi asosida Sitsiliyalik Diodorning asarlarini o'rganib chiqadi va "Tajribalar"ni yozish jarayonida ushbu asardan 25 ta so'zni o'zlashtirma sifatida oladi, shulardan 4 tasi 1580-yilda umumiste'molga kirib kelgan edi. Vizantiyalik tarixchi Zonar isning *Mille Cent Amour* tarjimasidagi 1550-yilda nashr etilgan asaridan ham ko'plab ko'chirmalar olingan. Bu borada ikkinchi kitob "De ne contrefaire le malade"ning 25-bobi 688-sahifasida, Monten Seisil tarjimasida bosilib chiqqan kitobga ko'ra, yoddan Aptiyendan ko'chirmalar keltirgani aniqlandi¹¹¹. Dion asarlarini mutolaa qilish natijasida Monten undan "*Les Essais*" (*Tajribalar*) asaridagi ikkinchi kitob "Des armes des Parthes"ning 9-bobi 405-sahifasida,

¹¹⁰ Konstantinovic I. Montaigne et Plutarque. – Geneve, 1989. – 503-p.

¹¹¹ Jouanna A. Recherches sur la notion d'honneur au XVIe siècle. Revue d'Histoire Moderne et Contemporaine, 1968. – 234-p.

“*Défense de Sénèque et de Plutarque*” asarining 32-bobi 405-sahifasida yozilgan ikkita kichik iqtibosni keltiradi.

Birinchi bosqichning o‘rtasida Monten Sextus Empirik qalamiga mansub “*Hypotyposes pyrrhoniennes*” (*Pirron gipotезalari*) asari bilan tanishadi, bu asar XVI-asrning dastlabki o‘n yilligida chop etilgan edi, 1562-yildagi Anri Estienning bu nashri Montening kitob javonidan joy oladi¹¹². Ma’lumki, perronizm esseist yozuvchisi ijodida mustahkam o‘ringa ega, u o‘z oldiga qo‘ygan vazifasida, shuningdek, essening konsepsiyasida ham ahamiyatlidir.

Ikkinchi davrda, ya’ni 1588-yildan boshlab Plutarx Montening sevimli yunon yozuvchisiga aylangan (50 ta ko‘chirma “*Vies*”da, 125 ta ko‘chirma “*Oeuvres morales*”da). Shu bilan birga, u tarixchilarning asarlarini o‘rganishni davom ettiradi, xususan, Nikomediyalik Arrian asarlaridan 4 ta ko‘chirma oladi. Plutarx 1588-yildan keyin ham Montening e’tiboridan chetda qolmaydi, uning asarlaridan 15 ta ko‘chirma olgan. Aqliy rivojlanishning so‘nggi davri yunon faylasuflari, xususan, Aristotelning “*L’Éthique à Nicomaque*” asaridan 18 ta, Diogen Laerts asarlaridan 130 ta havola olgan va Platonning ko‘plab asarlarini jiddiy o‘rgangan. Shuningdek, tarixchi Gerodotdan “*Les Essais*” (*Tajribalar*) asarida 50 ta, Sitsiliyalik Diodordan 23 ta, Ksenofondan 20 ta va Vizantiyalik tarixchi Kalkonditdan 14 ta ko‘chirma o‘zlashtirilganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Monten asari matnining loyihasini yunon mualliflari, jumladan, Plutarx ma’lumotlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uning nomi “*Les Essais*” (*Tajribalar*) asarida 89 marta takrorlanadi va uning asarlariga 500 marta murojaat qilinadi.

Monten Plutarxni, ayniqsa, axloqiy mushohadalari uchun olqishlaydi: Plutarxni “*si parfait et excellent juge des actions humaines*” deya baholaydi. U hamma tomondan havas qilarlik, ammo, asosan, “*admirable par tout, mais principalement où il juge des actions humaines*¹¹³” – insoniy amallarga baho berishda a’lo darajadagi hakam sifatida ko‘radi. “*Mais qui considerera la vérité de la chose et les hommes en eux memes, à quoy Plutarque a plus visé, et à balancer leurs meurs, leurs naturels, leur suffisance*¹¹⁴”, ammo unda ham insonlarga xos xato va kamchiliklari borligini ham aytib o‘tadi. “*Des livres*” bobida Monten

¹¹² Guiraud P. Les champs morpho-semantiques: (criteres externes et criteres internes en etymologie) II Bulletin de la Societe de linguistique de Paris. –1956. – 276-p.

¹¹³ Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 726-p.

¹¹⁴ Ўша манба– 726-р.

Plutarx risolalarini Senekaning maktublari bilan qiyoslaydi hamda birinchisini “*plus uniforme et constant*” – bir xil mazmundagi va o‘zgarmas deb ta’riflaydi hamda “*Plutarque a les opinions Platoniques, douces et accommodables à la société civile*” ya’ni Plutarx Platonchasiga fikrlaydi, fikrlari sokin va fuqarolik jamiyatiga mos deb qo‘shimcha qiladi muallif¹¹⁵.

Montenda Plutarxning “*Vies*” asaridan zavqlanish yaqqol sezilib turadi, “*ceux qui écrivent les vies ceux là me sont plus propres. Voilà pourquoi, en toutes sortes, c’est mon homme que Plutarque*¹¹⁶” – uning hayot haqidagi fikrlari unga yaqinligini ta’kidlaydi. Monten uni “*c’est un philosophe qui nous apprend la vertu*” – bizga yaxshi odam bo‘lishni o‘rgatuvchi faylasuf, “*Quel profit ne fera-il en cette part là, à la lecture des vies de nostre Plutarque?*¹¹⁷” – uni mutolaa qilib manfaat olish mumkinligini aytib o‘tadi. Plutarx fikrlariga bo‘lgan maqtoov, olqishlar tuzatishlar nashri 1588 yildan keyin ham o‘zgarmadi.

Shuningdek, Platon va Aristotel ham “*Les Essais*” (*Tajribalar*) asarida mos ravishda 197 va 83 marta takrorlanadi, ammo “Tajribalar”ning 1580-yilgi nashrida muallifning ular haqidagi fikrlari o‘zgarganligi seziladi. Asarning “*De l’institution des enfans*” bobida 1588-yildan avvalgi nashrida ushbu ikkala muallifni ham tanqid qiladi: “*De m’estre rongé les ongles à l’estude de Platon ou d’Aristote, ou opiniatré apres quelque science, je ne l’ay jamais faict*¹¹⁸” ya’ni Platon yoki Aristotelni o‘rganishda tirnog‘ini chaynash bilan zo‘r berib harakat qilsa-da, ulardan hech narsa ololmaganini yozib qoldirgan. Bu fikr 1588-yildagi nashrida Platon nomini chiqarib tashlash uchun qayta tahrir qilinadi. Yillar davomida Montening Platon qarashlari haqidagi fikri o‘zgaradi. “Tajribalar”ning 1580-yildagi nashrida Platon haqida kam eslansa, 1588-yilgi nashrida uni chuqurroq o‘rganib, 110 dan ortiq iqtibos keltirgan.

Shuningdek, Suqrotning shaxsiyatiga mahliyo bo‘lgan Monten qiziqish va diqqat bilan uni o‘rganadi. Nihoyat, Monten “*De la physionomie*” – fiziognomiyada uzun ko‘chirmasini, “*l’Apologie de Socrate*”, “*Des coches*”, “*Banquet*” kabi asarlarni Suqrotning

¹¹⁵ Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 413-p.

¹¹⁶ Ўша манба– 716-p.

¹¹⁷ Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 416,

¹¹⁸ Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 726-156

asarlaridan oladi¹¹⁹. Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, “*Les Essais*” (*Tajribalar*) asariga “*Loix*” va “*République*” asarlarining har biri 20 dan ziyod ko‘chirma bilan o‘z hissasini qo‘shgan, “*Timée*”dan 16 ta, “*Gorgias*” va “*Phédon*” asarlaridan 6 ta va 4 ta iqtibos keltirgan. “*Dialogues*” ham nihoyat bir qator iqtiboslar beradi, bu esa Monten o‘zi tanlagan asarni atroflicha o‘rganib chiqqanligini asoslaydi.

Montenning Aristotelga nisbatan munosabati biroz tushunarsizroq. Monten unga boshqa hech bir muallifga bildirilgan tanqidiy munosabatlarni ham kuzatamiz. Ba‘zan Aristotel haqida “*monarque de la doctrine moderne*¹²⁰” – yangi ta‘limot qiroli, “*le Dieu de la science scholastique*¹²¹” – sxolastika fani xudosi deya ta‘riflangan o‘rinlarga ham duch kelamiz. Faylasufdan keladigan qat‘iy fikrlarga Monten doimiy izlanish va harakatchan fikrlarini qarshi ishlatgan. Sxolastikaning dogmatizmiga qarshi Peronning sokin estetikasi ustun turadi. Keskin aytilgan fikrlarga vazmin mulohazalarni qarshi qo‘yadi. U Aristotel mantig‘idan olgan saboqlari tufayli hamma narsani kulgiga burib yuborar edi. Jumladan, maktab o‘quvchilarning jargoni bo‘lgan Organon ustidan kulib, u haqidagi iboralar salbiy bo‘lganligi asarda aniqlanadi¹²².

Aristotel tanqidlaridan xoli qolgan “*Politiques*” asarini Monten Le Ruaning fransuz tiliga tarjimasida o‘qigan edi va mana shu asardan o‘zining “*De la præsumption*” hamda “*Les Æthiopes et les Indiens*” boblarida foydalangan. Zotan, 1588-yildan keyin biroz o‘shish ko‘zga tashlanib, Monten “*l’Éthique à Nicomaque*” asarini yoqtirib mutolaa qiladi.

Sekstus Empirik asarlarini mutolaa qilish Montenni rag‘batlantirgani uning 25 dan 30 martagacha “*Apologie de Raimond Sebond*” bobida uzun parchalar tilga olinishi orqali kuzatiladi. “*Les Essais*” (“*Tajribalar*”) asarining 1595-yildagi nashrida Diogen Laerts “*Vie de Pyrrhon*” asaridan ixcham va lo‘nda xulosa hamda 130 tagacha iqtibos hamda eslatmalar kiritilgan edi.

Monten asarda “*Les Historiens sont ma droite bale*¹²³” deya yunon adabiyotining falsafa va tarixni afzal ko‘rganini ta‘kidlaydi. Aynan shu narsa uning yunon madaniyatini lotin madaniyatidan farqlaydigan

¹¹⁹ Montaigne M. *Les Essais* / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 875-899,539-p.

¹²⁰ Montaigne M. *Les Essais* / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 146-p.

¹²¹ Ўша манба. – 510-p.

¹²² Lebrun F. *La Vie conjugale sous l’Ancien Régime*. – Paris, 1975. –100-p.

¹²³ Ўша манба. – 416-p.

omildir, bunda adabiyot, ayniqsa, she'riyat uning taraqqiyoti bosqichlarida ko'p marotaba tilga olinadi.

Bir qancha unsurlar yoki xususiyatlarni uyg'unlashtira olgan yunon mualliflari Montening olqishlariga sabab bo'lib, yuqorida kuzatganimizdek, Plutarx, Ksenofon, Gomer 22 marta eslangan bo'lsa-da, ulardan kam iqtibos olingan, ammo "*Des plus excellens hommes*" bobida ularga bir bo'limini bag'ishlaydi va hayratlanishini ifodalaydi: "*plusieurs autres circonstances qui me rendent ce personnage quasi au dessus de l'humaine condition*"¹²⁴". Zotan, Monten afzal ko'rgan yunon mualliflari qoidalari oddiy matndagi ishoralar doirasidan chiqib ketadigan yaxlit bir madaniy-ma'rifiy guruhni tashkil etadi.

Monten fransuz, italyan va, hatto, yunon tilida ijod qilgan ijodkorlarni mutolaa qiladi, biroq u faqatgina lotin mualliflarinigina "*rumine*"¹²⁵ – "hazm qiladi". Chunki aynan shu mualliflar tufayligina u "*premier goust*"¹²⁶ – kitobga mehr qo'yadi. "*Plaisir de la Métamorphose d'Ovide*"¹²⁷ – "Ovid metamorfazasining zavqi"dan ruhlanib, u "*cette mienne desbauche*"¹²⁸ – "o'zimning haddan oshishim" deb ataydigan pallada "*tout d'un train Virgile en l'Æneide et puis Terence, et puis Plaute*"¹²⁹ – bir urinishda Vergiliy *Aeneid*adan boshlab Terentsiy, so'ng Plautni o'qib chiqadi. Rim shahrida 1580-yilning noyabrida ko'rgan shu mualliflarning "*tombeau*"¹³⁰ – maqbarasi uning bolalikdan boshlab, u yerda yotganlardan ma'naviy ozuqa olganligini asarda ta'kidlaydi: "*Or j'ay esté nourry dès mon enfance avec ceux icy*"¹³¹". "Bolaligimning tili, – deb ta'kidlaydi u, – menga ona tilidek bo'lgan lotin tili edi: "*qui m'a esté donné pour maternel*"¹³²". Otasining unga fransuz tilini bilmaydigan o'qituvchini yollashi, u bola bilan faqat lotin tilida so'zlashi uchun qilingan tashabbusi lotin tilida yozilgan asarlar bilan ancha erta tanishgan degan taxminga olib keladi.

Otasi uni olti yoshida yuborgan Giyenna kollejida lotin tilining o'qitilishi bu tilni eng sevuvchilarning ham ko'nglini sovutib yuborish darajasida bo'lsa-da, Monten o'sha mualliflarga bo'lgan mehrini yo'qotmadi. Kollejdagi ayrim o'qituvchilar yosh o'quvchining

¹²⁴ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 175,752, 872-873,996,639-p.

¹²⁵ Ўша манба. – 752-р.

¹²⁶ Ўша манба. – 872-р.

¹²⁷ Ўша манба. – 873-р.

¹²⁸ Ўша манба. – 996-р.

¹²⁹ Ўша манба. – 639-р.

¹³⁰ Ўша манба. – 638-р.

¹³¹ Ўша манба. – 637-р.

¹³² Ўша манба. – 639-р.

g'ayrioddiy tayyorgarligini yuqori baholagan edilar. Ularning orasida o'z davrining eng yaxshi lotin tili mutaxassislari bo'lib, ularning o'zlari ham lotin tilida ijod qiladigan yetuk mualliflar edi: Nikola Grushi Monten e'tirof etgan "*De comitiis romanorum*" asari muallifi, Giyom Gerent Aristotel sharhlovchisi, Grushi – Normandiyalik olim, Jorj Buchanan – "*ce grand poëte Escossois*" – bu buyuk shotland shoiri, lotin tilida yozilgan fojialar muallifi edi. Monten ularda aktyor sifatida qatnashib: "*meilleur orateur de son temps*" Mark Antoni Myure, davrning mashhur notig'i, "*Julius Caesar*" fojiasi muallifi, bu asar ham san'atga moyilligi bor Montenning yana bir marta sahnaga chiqishiga imkon bergan edi: "*J'ai soustenu les premiers personnages és tragedies latines de Bucanan, de Guerente et de Muret, qui se representent en nostre college de Guienn*"¹³³. Bu o'qituvchilar yosh o'quvchilarining lotin mualliflari haqidagi bilimni kolleжда bo'lgan vaqtida boyitdilar¹³⁴. Shu ma'noda ular Montenga poydevor yaratib, u asosida o'z uslubi va yozuvchi sifatidagi idealini yaratdi. "Tajribalar"ning ilhom beruvchisi lotin mualliflaridir. Monten ular bilan birga o'zining uchinchi "*commerce*", ya'ni munosabatini, shuningdek, kitob yozishni yo'lga qo'yganini asarda qayd qilgan¹³⁵.

Monten mualliflarga dastlab hoshiyalarga bitilgan fikrlari bilan munosabat bildirgan, ular puxta o'ylangan sharhlar ko'rinishida asardan joy olgan. Ayni shu holat dastlabki esselarga turtki bo'ldi, ammo bu 1559-yilda yozgan shoh asarida ko'rinadi. U asar uchun iqtiboslarni lotin manba va asarlaridan olishni afzal ko'rgan. Uning "*librairie*" (kitob do'koni)da lotin tilidagi kitoblar ko'p edi hamda xonasining bolor va to'sinlariga yozilgan hikmatlar soni bo'yicha lotin tilidagi hikmatlar 39 ta yoki 54,9% yoki 44,5%¹³⁶ tashkil etishi A.Legroning "To'sinlar haqida esse"sida "*Janob Monten uyidagi suratlar va yozuvlar*" to'g'risidagi bobida alohida qayd qilingan. Uning ilk lotin tilidagi e'lon qilingan asarlari "*Poemata de La Boétie*", Sebondning "*Théologie naturelle*"¹³⁷ asar tarjimasi bo'lgan.

Aynan lotin tili orqali Monten o'z fransuz tili va o'zining asl uslubini tarbiyalagan. Monten lotin mualliflarini "*d'une particulière inclination*" – alohida sevadigan she'riyat orqali kashf etgan. "*Du jeune Caton*"

¹³³ Trinquet R. La Jeunesse de Montaigne. Ses origines familiales, son enfance et ses études. – Paris, 1972. 450-466

¹³⁴ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 174-176

¹³⁵ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 146-827

¹³⁶ Legros A. Essais sur poutres: Peintures et inscriptions chez Montaigne. – Paris, 2000. – 10-15-p.

¹³⁷ Villey P. Les Sources et évolution des Essais de Montaigne. – Paris, 1933. – 89-144-p.

bobida: “*Dès ma première enfance, la poésie a eu cela, de me transpercer et transporter*” deya o‘ziga turli yo‘sinda ta’sir etgan Ovid, Lukan va Vergiliy shoirlarni tan oladi: Monten Marsial, Maniliy, Lukan, Goras va Vergiliynalarning Katonni madh etuvchi she’rlarini qiyoslash bilan tugatadi. Lotin she’riyatining ohangi uni chuqur ta’sirlangan: “*point assez fort pour ouyr en sens rassis des vers d’Horace et de Catulle, chantez d’une voix suffisante par une belle et jeune bouche*¹³⁸”. Monten balki shu muhabbat tufaylidir, rimliklarning she’riyatga bo‘lgan muhabbatiga qaramasdan, o‘zini she’r yozishga layoqati yo‘qligini tan oladi: “*je l’ayme infiniment, mais je fay, à la vérité, l’enfant quand j’y veux mettre la main: je ne me puis souffrir*”¹³⁹. Biroq u o‘z asarlarida tasvirlar, mavzular va lotin she’riyati ohangidan foydalanishdan tortinmaydi. U shoirlar nomlarini sanab o‘tishi nashr sahifalarida doimo balqib turadi.

Lotin tilida kelgan iqtibos “*Tajribalar*” sahifasini boyitadi, kitobxon u yerda Monten bilan uzoq o‘tmishdagi lotin shoiri bilan bahsni payqashi mumkin. Ba’zan bu bahs ziddiyatli, Monten lotin muallifini o‘zining fikrini mustahkamlash uchun antik davr shoirining fikriga zid holda ishlatadi. Masalan, shunday holat Monten Gorasning “*l’Art poétique*” (“*She’r san’ati*”) asarini yosh aka-uka Pizonlarning miyasiga muallif g‘oyasiga zid qoidalarni qo‘ymoqchi bo‘lganida yuzaga chiqadi. Bu kabi misollar birinchi kitob 8-bob “*De l’oisiveté*” 32-sahifasida va 28-bob “*De l’amitié*” 183-sahifasida ham kuzatiladi.

Monten “*Sur des vers de Virgile*” bobida lotin shoirlariga eng yuksak olqish va maqtovlarni yo‘llaydi. Monten unda Vergiliy va Lyukretsiy she’rlari orasidagi yaqinlikni yoqtirishini aytib, ularni ko‘rsatib o‘tadi va ma’nosini “*rumine*” – “chaynab yurishi”ni ta’kidlaydi. Ikkinchi kitobning iqtiboslarida Rim shoirlari guruhini to‘playdi: Ovid, Goras, Katul, Propers, Tibul, Marsial, Juvenal, Terens va Lukan asar boblarida ularni “*ce notable commentaire*” deb ataydi.

She’riyat ham, tarix ham Montenni qiziqtirgan. U tarixni o‘zining “*gibier*” – o‘ljasi deb ataydi, hamda tarixchilarni “*droite bale*” – ozuqam deb nomlaydi. U tarixchilar asarlarining har birini “*il faut feuilleter sans distinction*” – ajratmasdan varaqlash kerak deb aytadi, barcha turdagi mualliflarni barcha turdagi tillarda tarixchilar o‘rganishi kerakligi uchun, uning faoliyatidagi shu maslahatiga o‘zi ham rioya qilganligini tasdiqlaydi. Plutarxni hisobga olmaganda, uning tarixchilari, asosan, lotin

¹³⁸ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –593.

¹³⁹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –146 220,232,593,635.

mualliflari bo‘lib qolaveradi. U Sezarning faoliyatidan ta’sirlanadi va “*non pour la science de l’Histoire seulement, mais pour luy mesme*” – faqatgina tarix fani uchun emas, balki o‘zi uchun uni o‘rganadi, uni “*révérence et respect*” – ta’zim va hurmat bilan uning “*la pureté et inimitable polissure de son langage*¹⁴⁰” – amallari va mo‘jizaviy buyukligi uchun hamda tilining sof va taqlid qilib bo‘lmas sayqali uchun ham mutolaa qiladi.

Monten Sitseronning: “Sezar o‘z tili bilan barcha tarixchilardan o‘tib ketdi” (“*à l’aventure Cicero mesme*”) degan fikrini takrorlaydi. Monten biroz ayyorona zavq bilan: Sitseronning boshi oqgan tomonda – “*l’homme dont les gestes ont surpassé de loin l’éloquence*¹⁴¹”, deya qo‘shimcha qiladi. Monten Sezarni yaxshi xulq sohibi hamda notiq deb baholaydi. Montening Tsezarga bo‘lgan munosabati sifatida “*Commentaires*”ning o‘ziga tegishli nusxasi hoshiyalariga 650 dan ortiq izoh, belgilar, hikmatli so‘zlar, qaydlar va sharhlar yozib qoldirilganligida ham ko‘rinadi. Ushbu fikrni A.Tournonning “*Montaigne et La glose et l’essai*¹⁴²” asaridagi ma’lumotlar ham dalillaydi. Tarixchilarga tegishli manbalardan olingan ko‘chirmalar Tit-Liv va 1588-yildan keyingi davrlardagi Tasit va Suetonlarga tegishli. Katta Pliniy ham uni ko‘p sonli noodatiy misollar bilan ta’minlaydi, ular, asosan, asarning “*Apologie de Raimond Sebond*” bobida keltirilgan.

Monten faylasuf va axloqshunoslarning asarlarini o‘rganganida ko‘proq ta’limotdan ko‘ra shaxsni qidirayotgandek ko‘rinadi¹⁴³. Chunki mulohazalarida ham uslub, ham g‘oyaga undaydiganlar ustida ko‘proq to‘xtaladi. “Tajribalar”da ko‘p esga olinadigan ikki lotin muallifi Sitseron va Seneka bunga misol bo‘la oladi. Monten birinchi kitobining 39–41 boblarida Sitseronni tanqid qilgan. Monten asarida Plutarx va Seneka u yoqtirgan yozuvchilar sifatida gavdalanadi. Monten izlagan bilim mayda bo‘laklarga bo‘linib, tahlilga tortilgan fazilat shu ijodkorlarda mavjudligi uchun ularni maqtaydi: “*que la science que j’y cherche, y est traictée à pieces décousue*”. Monten Senekaning uslubini “*plus ondoyant et divers plein de pointes et saillies*” – o‘tkir uchli va past-balandlikka to‘la deya yozib qoldirgan¹⁴⁴.

¹⁴⁰ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –849.

¹⁴¹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –849-872,897,146,416,249.

¹⁴² Tournon A. Montaigne La glose et l’essai. – Lyon, 1984. 96, 203-256, 311-351, 97, 307-308, 311-351.

¹⁴³ Legros A. Essais sur poutres: Peintures et inscriptions chez Montaigne. – Paris, 2000. – 530,331-341-p.

¹⁴⁴ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –146-413,638.

She'riyatni sevishini tushuntirib Monten Senekaning nasrida uchratgan *“tout ainsi que la voix, contrainte dans l'étroit canal d'une trompette¹⁴⁵”* misolini keltiradi. Senekadan 1580-yilda ko'p iqtiboslar oladi va 1588-yilda ularni takrorlab sharhlagani haqidagi ma'lumotlar mavjud¹⁴⁶. Monten stoiklik ta'limotini undan o'rgandi, Seneka, nima bo'lganda ham, “Tajribalar”ning uslubida faol, katta taassurot qoldirgan shaxslardan biri sifatida harakatlanadi. Monten foydalangan *Injil* ham lotin tilida bitilgan kitobdir, u Injilni boshqa tillarga tarjima qilinishiga qarshiligini bayon qilgan, unga ko'ra, muhim so'zni ko'p iboralar bilan behuda sarflash deya ta'kidlaydi.

Ushbu bayonotga qaramasdan, “Tajribalar”dagi Injildan keltirilgan iqtiboslarning yarmidan ko'pi fransuz tiliga oid. Injildan olingan yigirmata iqtibos lotin tilida keltirilgan. Adabiy taqlid shartlari eski mualliflarni “modernes”larni yo'ldan olib tashlashga qulay sharoitlar yaratib berar edi. Boden, Just, Lips, Fisin, Sebok va, albatta, Erazm; shuningdek, shoirlar Polissiyen, Sekon, Dora va ularning Giyenna kollejidagi ustozlari Buxanan va Myure kabi “néo-latins”lar ham “Tajribalar”ning sahifalarida o'z izlarini qoldirganligi ko'rinadi¹⁴⁷.

Monten “Tajribalar”ning uchinchi kitob 13-bob 1081-sahifasida eng xilma-xil mavzulardagi yigirmata kitobdan iborat, grammatika, tarix, falsafa, she'riyat va ilm-fanga oid ma'lumotlar manbai hisoblangan *“Nuits attiques¹⁴⁸”* kitobining muallifi tilshunos Aulu-Gellening nomini yozayotib, tirik do'stning vazni o'sha kitobning og'irligiga teng, deya aytadi. Monten do'sti bilan yaqin munosabatini yozib qoldiradi. Bu yaqinlik xilma-xillikka bo'lgan qiziqish bilan izohlanadi, o'sha paytda tahririyatda shunday ruh hukm surar edi¹⁴⁹, u o'shanda imtihonsiz va buyruqsiz topilgan *“sans examen et sans ordre”* – yunon va lotin tilidagi kitoblar qo'lga tushib qolganda, ulardan qiziqarli voqealarni yozib olganini *“lorsqu'un livre grec ou latin [lui] tombait sous la main”* deya ta'kidlaydi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida Mishel Monten quyidagilar to'g'risida: Antiokh va Kannibal, Busefal, Sitsipionning buyuk qalb egasi ekanligi, Androdurs arsloni, o'z ko'zini o'yayotgan Demokrit, Protagor

¹⁴⁵ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. —413.

¹⁴⁶ Charpentier F. “Figure de La Boétie dans les Essais de Montaigne”, Revue Française de Psychanalyse, 52, 1988. – 42-62, 71-93-p.

¹⁴⁷ Jouanna A. Recherches sur la notion d'honneur au XVIe siècle. Revue d'Histoire Moderne et Contemporaine, 1968. – 208-p.

¹⁴⁸ Les Nuits Attiques... (French Edition) Paperback – November 5, 2011,-438.

¹⁴⁹ Frame D. Montaigne's “Essais”: a study. – N.J.Englewood Cliffs, 1969. – 7-23, 41-42-p.

d'Abder va uning matematikadan tuzgan jumboqlari, Aleksandr va Sitsipionning bosiqqligi, Plutarx va uning quli, Fedonning buzuqligi, hamda fikr yuritishga layoqatsiz Areopagitlar (qadimgi Afinadagi Aeropag a'zolari) haqidagi ko'chimalardan foydalanganligi aniqlanadi. Shuningdek, ijodkor undan Aristotel sevgan qorong'ilik haqidagi kuzatuvlarini, axloq haqidagi mavzularni, oziq-ovqat va o'zini tutish, "dire mensonge" – yolg'on aytish va "mentir" – aldash o'rtasidagi farq haqida, butunlay yeyiladigan "bequefigue" meros haqida, yaxshi ovqatlanish shartlari, qadimgi dunyo haqidagi fikrlar, inson yoshi, qadimgi mualliflarning parchalarini, Pakiviyus to'g'risidagi "Publilius Sirus, Publius le farseur¹⁵⁰" ko'chimalardan (quyidagi II.28.190; III.38.234; III.1.332 bob sahifalarida) foydalanganligi aniqlandi.

2.3. Farzand tarbiyasida "salbiy jihat" leksemalarining ijobiylik tomonlari

Tilshunos olimlar, ko'pincha, "salbiy xususiyat" leksemalari nafaqat predmet va hodisalar o'rtasidagi real farqlarni, balki ular haqidagi tasavvurlarni ham ifodalashini ta'kidlaganlar. Sababki, ong nafaqat bilish jarayoni, balki shu bilan birga anglash mumkin bo'lgan tajriba, narsalar, xususiyatlar, munosabatlarning muayyan bahosidir.

Farzand tarbiyalash jarayonida bolada muhokama qilish, mulohaza yuritish, tafakkur qilish, bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga zaiflik, ojizlik, aqlsizlik hamda kishiga halokat keltiruvchi xatarlarning oqibatini ham o'rgatib tarbiyalash zarurati har bir davrda muhim sanalgan.

Shuningdek, Mishel Montening "Tajribalar" matnida farzand tarbiyasida salbiy jihatlarning ijobiy tomonlarini ifodalash maqsadida *bêtise, colère, condescendance, confession, contradiction, folie, haine, maladie, mensonge – menteurs, mépris, naïveté* leksemalari misolida ijobiylik semalari aniqlandi. Fazilat (*vertus*) leksemalari guruhi illat (*vices*) leksemalar paradigmatic qatoriga qarama-qarshidir. Fenomenologik jihatdan yaxshilik va yomonlik me'yoriy-baholovchi tushuncha hamda hodisalar sifatida namoyon bo'ladi va nima baholanishi kerakligiga qarab, ular axloqiy qadriyatlarga ega bo'lgan fazilatlar, unda bo'lmagan illatlarga ko'ra ajralib turadi.

¹⁵⁰ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –283, 288-289, 368, 477, 652, 569, 716-717, 870, 1030,995,1099,1106,327,753.

Suqrot davridan beri eng mashhur fazilatlar majmualari (*vertus*) donolik, jasorat, mo‘tadillik, adolatni o‘z ichiga oladi; iymon, umid, sevgi, tavba va kamtarlik, rahm-shafqat kabi fazilatlar; zo‘ravonlik qilmaslik etikasi; bag‘rikenglik, rozilik, sevgi, tushunish kabi xususiyatlar ham shular jumlasidandir. Hayotdagi ezgulikning namoyon bo‘lishi salomatlik, tinchlik, ekologiya, ixtiyoriy harakat, burch, o‘zini-o‘zi anglash, shaxsga munosabat bilan bog‘liq. Aksincha, yovuzlikning umumiy ko‘rinishlariga yomonlik, odamga dushmanlik qilish yoki befarqlik, johillik, gunohkorlik va buzuqlik, xudbinlik kabilar kiradi.

V.G.Gakning qayd etishicha, xristianlikda gunoh – inson va Xudo o‘rtasidagi munosabatlarni buzish, ilohiy tartib-qoidaga zid bo‘lgan jinoyatdir. Gunoh – bu ahdni buzish, Xudoga qaramlikdan xalos bo‘lishga urinishdir. Gunoh jinoyat, illat esa insonni gunoh qilishga undaydigan xususiyatdir. Gunoh va yomonlik kundalik nutqdagi qo‘llanilishida o‘zaro birlashadi. Shuningdek, hasad yettita halokatli gunohlardan biri bo‘lib, ayni paytda insonning salbiy xususiyatlarini ifodalaydi. Bizningcha, farzand tarbiyasida bu jihatlarni anglatish, ularga qarshi tura olishni o‘rgatish maxsus korrelyatsiyalarga ega emas, ya’ni ijobiy tomonga xizmat qiladi.

Bu borada N.G.Sevostyanova yaxshilik va yomonlikni dialektik ko‘rib chiqish lozimligini ta’kidlaydi, yaxshilik o‘lchovini tushunishga harakat qiladi, bundan tashqari, u yomonlikka aylanishi ham mumkin. Yaxshilik hamda yovuzlikning qarama-qarshiligi to‘g‘ri va haqiqat, ideal va haqiqat, motiv va ish, o‘zini-o‘zi qadrlash va jamoatchilik fikri o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatadi. Fikrimizcha, farzand tarbiyasida ong tushunchasi nisbiy, yakuniy darajasi aniq, ko‘pincha ularning individual imtiyozlari tufayli farqlanmasligi, axloq fenomenining ko‘p ma’noiligi va ko‘p funktsionalligi tufayli ijtimoiy-madaniy sharoitlarni aniqlashning o‘zgaruvchan va qaytarilmas ma’nosi bilan vaziyat o‘zgarib boraveradi. Shunga monand holda, Monten insholari matnida qayd qilingan asosiy intellektual va axloqiy fazilatlar farzand tarbiyasida “salbiy xususiyat” semali leksemalarning ijobiylik jihatlarini aniqladik.

Mutafakkir *état violent et passager* ifodasi “*colère*” (n.f.) – g‘azab, nafrat, qahr, jahl, zarda, jaholat leksemasini *pronom+nom, déterminative+nom, nom+préposition+nom, verb+préposition+nom, adverb+nom, nom+verb, adjectif+nom* qurshovida qo‘llagan. “*Colère*” lisoniy birligini asardagi qo‘llanish chastotasi – 79 ta. Monten g‘azab haqida mulohaza yuritib, u xususida kishida ijobiy xislatlarni paydo qiladigan uchta maslahatni tavsiya qiladi: oilada tinchlikni

ta'minlaydigan qoidaga rioya qilish xatti-harakatlari; arzimas narsalarga g'azablanmaslik, harakatlarning samarali bo'lishi uchun g'azabdan bizga yetkazilgan zararga moslashish va aniq muloqotni bilish; g'azab obyektini tan olish, shundagina kishi faqat g'azab qilganning o'ziga murojaat qilishi zarurligi to'g'risida aytib o'tgan. 1578-yillarda yozilgan "Tajribalar"ning ikkinchi kitob 31-bobi g'azab tuyg'usiga bag'ishlangan. Yozuvchi asarda yuqori pog'onadagi birlik qilib tanlagan leksemaga bir qancha polisemem leksemalarni "*colère*" (n.f.) – jahl o'rnida qo'llaydi, jumladan: "*rage*" – qahr, "*hayne*" – nafrat, "*despit*" – zulmkor, "*fureur*" – g'azab, "*inflammation*" – yallig'lanish, "*fièvre*" – asablarning tashqi ta'sirdan qo'zg'alishi, "*excès*" – suiiste'mol qilish, "*ulcère*" – ranjitish, "*vitieuse aspreté*" – o'ta qo'pollik, "*passion vaine*" – tuyg'uga beriluvchan kabi denotat ma'nosida qo'llagan.

"*Larousse*" izohli lug'atida "*colère*" (n.f.) leksemasiga sinonim bo'lgan quyidagi signifikativ birliklar: *emportement*, *exaspération*, *fureur*, *furie*, *rage* berilgan. Aytish mumkinki, Monten "*colère*" leksemasiga ma'nodosh sifatida "*rage*" – qahr, "*fureur*" – g'azab so'zlarini bugungi kundagi ma'nosiga mos sinonimik qatorga ko'ra qo'llagan bo'lsa, *hayne*, *despit*, *inflammation*, *fièvre*, *excès*, *ulcère*, *vitieuse aspreté*, *passion vaine* leksemalarini emotiv uslubiy komponentni shakllantirish, nutq ta'sirchanligini oshirish maqsadida matn tarkibiga olib kirgan.

Shuningdek, adib kitobxonga uslubiy bo'yoqdor ifodalardan foydalanib "*condescendance*" (n.f.) – viqor, kibr, kekkayish tushunchasini "*Par divers moyens on arrive à pareille fin*" nomli bobida yoritadi, biroq aynan ushbu leksemani qo'llamaydi. Termining yunoncha shakli "*sygkatabasis*" (o'zini past mavjudot darajasiga qo'yish qobiliyati) XVI-asrda mashhur "*Lexique gréco-latin de Suidas*" ma'lumotnomasida qayd etilgan. Skholastik ilohiyotda "*condescensio*" va "*condescendentia*" atamaları dastlab bir-birining o'rnida qo'llangan. Ushbu tushunchani *la furie de son maître*, *la prodigieuse force* so'z birikmasi bilan da'vo qilingan holatlarda raqiblarining olijanob xulq-atvori bilan mag'lub bo'lgan va mag'lubiyatga uchraganlarga nisbatan *la compassion qu'à l'estimation* – hurmat ma'nosidan ham ko'ra rahm-shafqat tushunchasida, nemis imperatorining Bavariya qal'asini qamal qilib, shahar ayollariga xavfsiz yo'l taklif qilishga rozi bo'lishi va oxir-oqibat barcha qamal qilinganlardan o'ch olishdan bosh tortganligi bilan bog'liq voqealarda ifoda etgan.

“*Tajribalar*” asarida katta leksik hududni qamrab olgan “*confession*” (n.f.) – *confesser* leksemasi (*action d’avouer ses fautes*) – tavba, gunohlariga tavba qilish, tan olish, bo‘yin olish; (*appartenance à une religion*) – diniy e’tiqod, din, mazhab kabi ifoda ma’nolari mavjud. Asarda Monten bir tomondan umumiy ma’nosini, ikkinchi tomondan, iqrор bo‘lish ma’nosini: “*quant aux bransles de l’âme, je veux icy confesser ce que j’en sens*” – ruhning titroqlariga kelsak, men his qilganimga ko‘ra iqrор bo‘lmoqchiman, deya, boshqa tomondan ham din, ham sud ma’nolariga e’tibor qaratgan.

Aytish joizki, “*Du repentir*” bobida muallif “*je me repens rarement*” – deya “*confession*” leksemasining semantik ma’nosini *repentir* fe’lini *rarement* ravishi bilan gapda qo‘llab gunohlariga tavba qilishni inkor etadi. G.Hoffman ham ushbu gapni ta’kidlab shundan fikr bildirgan: “*Si Montaigne se prononce à maintes reprises sans ‘repentance’, le terme ‘contrition’ demeure absent des Essais.*” Monten asarida “*ces traits de ma confession*” – “iqrорinning bu jihatlari” deya so‘z birikmasini hosil qiladi. Shuningdek, *parler* – gapirmoq va *écouter* – eshitmoq fe’lini iqrор ma’nosida qo‘llaydi: “*J’escoute à mes resveries par ce que j’ay à les enroller*” – Men o‘z orzularimga iqrор bo‘laman, chunki men ularning izmidaman; “*je parle au papier*” – men qog‘ozga so‘zlayman. Alohida ahamiyat berishni *écouter* fe’lini tanlash bilan amalga oshirgan. Tadqiqot jarayonida Monten *confession* leksemasi o‘rnida tushuncha ma’nosini saqlagan holda boshqa sememalardan foydalanadi, masalan, u *poitrine* – ko‘krak haqida emas, *conscience* – vijdon bo‘shliqlari haqida gapiradi, *maux de l’âme* – qalb kasalliklari haqida emas, *péchés* – gunohlar to‘g‘risida eslaydi. Monten *confession*ga bag‘ishlangan bobini oshkora latifa bilan yakunlar ekan, “*Confession*” vaziyatga ko‘ra to‘g‘ri yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin, ammo empirik dalillar yolg‘on gapirmaydi, deya ta’kidlaydi.

Action de contredire une affirmation ifodasidagi “*contradiction*” (n.f.) – ziddiyat, qarama-qarshilik, zidlik, teskarilik kabi ma’nodagi navbatdagi leksemaning mutafakkir tomonidan asarda qo‘llanish chastotasi 19 ta. Monten “*contradiction*” tushunchasining fazilatini his qilib, qachon zidlik, teskarilikka duch kelinsa, buni inkor etish zarur, deya ta’kidlagan. Aristotel tamoyil sifatida ushbu leksemani haqiqat o‘rtasidagi bo‘shliqni aniqlash uchun amalga oshiriladi, deya noto‘g‘ri qo‘llagan. Munozara erkinlashtiruvchi intellektual amaliyotga aylanadi, aynan “*De l’art de conférer*” bobida “*l’altercation*” – bahsli janjal, munozara, tajovuzkorlarga qarshi taklif harakati yangi munozarali fikrdan hosil

bo‘lishi maqsadida Monten bu leksema ortidagi tushunchani: “*de hautes raciness; les contradictions donc des jugemens ne m’offencent ny m’alterent; elles m’esveillent seulement et m’exercent*” deya ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlaydi. Adib ushbu leksemani *une extrême contradiction* – nafrat, *une ridicule contradiction* – ahmoqonalik deya so‘z birikmalari bilan matn mazmunida ifodalasa, sinonim sifatida *cette contrariété, les contrariétés* sememalarini *contradiction(s)* ifodasiga ma‘nodosh sifatida qo‘llaydi.

Shuningdek, navbatdagi tarbiyadagi “salbiy xususiyat” leksemasining ijobiylik jihatida qo‘llangan *manque d’intelligence* ifodasidagi “bêtise” (n.f) leksemasi ahmoqlik, tentaklik ma‘nolarida kelgan. Ushbu tushunchaning “Tajribalar” asaridagi qo‘llanilish chastotasi 37 ta, birlik va ko‘plik shakllarida *déterminatif+nom, adverbe+déterminatif+nom, pronom+nom, nom+nom (l’humaine bêtise), adjectif+nom (grandes bêtises)* kabi qurshovlarda matnda ishtirok etganligi aniqlandi. Yozuvchi “bêtise” leksemasiga sinonim qilib “sot”, “sotte” sememasini ko‘p o‘rinlarda qo‘llaydi.

Aytish mumkinki, Monten o‘zining “De l’art de conférer” bobida suhbatdoshlarining ahmoqligidan g‘azablanganini yoritadi. Bu murosasizlik obyekt sifatida haqiqiy mulohazalar tengsizlikmi yoki qahrli kayfiyat ifodasimi? Mazkur savollariga o‘sha bobda javob qaytariladi.

Mutafakkir asarda xuddiki, kitobxonga o‘z mulohazalarini aniqlashtirish maqsadida “conférer”, ya’ni “kengashmoq” uchun o‘zini ochiq muhokama o‘tkazayotgandek ko‘rinishda yondashadi. Ko‘rinadiki, “bêtise” leksemasiga ta’rif berib uning ifodasini tushuntirar ekan, ahmoqlik – bu o‘lim kabi odatiydir, odat yoki behudalikka o‘xshash inson holatining bir qismi deb hisoblaydi.

Shuningdek, hech kim be‘mani gaplardan xoli emas: “*Somme, il faut vivre entre les vivants, et laisser courre la rivière sous le pont sans nostre soing, ou, à tout le moins, sans nostre alteration*”¹⁵¹ izoh beradigan bo‘lsak, inson tiriklar orasida yashashi kerak, daryo ko‘prik ostidan bizning qarovimizsiz yoki hech bo‘lmaganda o‘zgartirishimizsiz oqsin, deydi.

Adibning “*Les Essais*” (“Tajribalar”) asarini kuzatib, mulohazalarini tahlil qilib, kishidagi ahmoqlik illati fikrning dushmani deb hisoblash, lekin ayni chog‘da uning oddiy hamrohi ekanligi, boshqa tomondan, har

¹⁵¹ Montaigne M. *Les Essais* / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965.,116.

birimiz har kuni ahmoqligimiz izlarini ortimizda ko‘rishimiz mumkinligini asoslab berganiga amin bo‘ldik.

Navbatdagi *dérèglement mental* ifodasidagi “folie” (n.f) – jinnilik, ahmoqlik leksemasi orqali yuqori darajadagi ehtirosli ko‘rinishga ega aqldan ozishning namoyon bo‘lishini kuzatish va baholash imkoniyati misollarda tasvirlaydi. Ushbu lisoniy birlikning qo‘llanilish chastotasi 73, shuningdek, *adjectif+nom, adverbe+nom, déterminatif+nom, nom+nom, verbe+nom, pronom+nom* kabi qurshovlarda qo‘llangan. Muallif jinnilikning kelib chiqish sabablari sifatida his-tuyg‘ularning ohirgi nuqtasiga yetib borgan barcha holatlarni, uning chegarasida “rassom”ning zukkoligi ortida o‘zining temperamentini ham ifodalab beradi¹⁵².

Monten haddan tashqari qayg‘u, jinnilik bilan chegaralangan ehtirosdan ogohlantiradi, insonlarni bunday holatni boshdan kechirish darajasigacha bormaslikka undaydi.

Monten o‘z asarida ota-onalar yoki maktab o‘qituvchilarining bolalarga nisbatan g‘azabini tavsiflaydi: “*Entre autres choses, combien de fois m’a-il prins envie passant par nos ruës, de dresser une farce, pour venger des garçonnetz que je voyoi escorcher, assommer et meurtrir à quelque pere ou mere furieux et forcenez de colere! Vous leur voyez sortir le feu et la rage des yeux à tout une voix tranchante et esclatante, souvent contre qui ne faict que sortir de nourrisse*”¹⁵³. Ushbu jumlada Monten aqlni yo‘qotishning, ayniqsa, ota-onaga nisbatan naqadar og‘riqli ekanligini “*dresser une farce, venger des garçonnetz, pere ou mere furieux, forcenez de colere, une voix tranchante et esclatante, sortir le feu et la rage des yeux*”¹⁵⁴ kabi so‘z birikmalari yordamida yoritib bergan.

Asardagi “folie” tushunchasini izohlashda kishini mulohaza yuritish qobiliyatidan mahrum qiladigan haddan tashqari qo‘rquv, ba‘zan u bizning tovonimizga qanot beradi, ba‘zida u oyoqlarimizni mixlaydi va yo‘limizga to‘sqinlik qiladi¹⁵⁵, deya ta‘kidlaydi. Monten ushbu ifodani jinnilikning namunasi zamiridagi tarbiyaviy jihatni ochib beradi¹⁵⁶. Shuningdek, mutafakkir asarda insonning eng dahshatli ahmoqligi o‘z chegaralarini to‘liq amalga oshirishni istamasligi va aql-idrokidan undagi

¹⁵² Tournon A. Montaigne La glose et l’essai. – Lyon, 1984. – 203-p.

¹⁵³ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. -714.

¹⁵⁴ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. -714.

¹⁵⁵ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. 11,714,76.

¹⁵⁶ Heller L.M. “Les Essais sous le signe de la folie”, Montaigne et les Essais 1580-1980, éd. F.Moureau, R.Grandroute et C.Blum. – Paris-Genève, 1983. – 40-47-p.

aqlsizlikning muqarrar qismini ochish uchun foydalanmasligini aytib, ahmoqlikning chiziq va chegaralarini, oqibatini *ardeur et manie, en tête cette rêverie, la folie furieuse, un grain de folie, vice et folie, ressortir de la folie* soʻz birikmalari orqali kitobxonga yetkazib beradi.

Tajribalar asaridagi *vive hostilité envers quelqu'un* ifodasida keltirilgan “haine” (n.f) – nafrat, yomon koʻrish, adovat, kek, xusumat, gina, qahr, gʻazab kabi maʼnolardagi leksema oʻz oʻrnida bagʻrikenglik, murosa lisoniy bilimlariga zid maʼnoda qoʻllangan. Izlanishlarga koʻra, “haine(s)” soʻzining qoʻllanilish chastotasi 47 ta, feʼl shaklidagi “hair” (“nafratlanmoq”) emotiv leksemasining foydalanish chastotasi 73 ta boʻlib, turli shakllarda ishlatilgan. “Haine” – nafrat tushunchasi ikki xil maʼnoda: kimnidir xafa qilmoqchi boʻlgan zoʻravonlik hissi hamda biror narsadan chuqur nafratlanish mazmunini ifodalashda qoʻllanilgan¹⁵⁷.

Adib feʼl shaklida birinchi shaxs “je hay” tarzida qoʻllaganida, odatda, “*passions vitieuses*” – hayotiy ehtiroslar, “*la cruauté*” – shafqatsizlik, “*la flatterie*” – xushomadgoylik, “*le pédantisme*” – oʻtaketgan rasmiyatchilik, “*le snobisme*” – bemaʼnilik, “*l’hypocrisie*”¹⁵⁸ – ikkiyuzlamachilik kabilarga nisbatan nafratni ifodalagan. Shuningdek, “haine” tushunchasining sifat shakllaridan *haineux* (m.adj.sing.), *haineux* (m.plur.), *haineuse* (f.adj.), *haineuses* (f.pl.) – nafratlanarli koʻrinishlaridan asarda ot bilan birikib (*haineuse volonté*) rod va sonida mos boʻlib qoʻllanganini tahlil jarayonida aniqlandi.

Aytish mumkinki, “haine” (n.f) – nafrat leksemasi oʻzining feʼl shaklidan tashqari semantik-morfologik jihatdan ot, emotiv mazmuni bildirish xususiyati yetakchiligi sababli u koʻpincha boshqa feʼllar (*feʼl+ot*) bilan birikishi kuzatildi, jumladan: *entrer en haine, prendre en haine, occuper à la haine, se changer en haine, recevoir la haine, porter avec haine, s’opiniâtrer contre la haine, servir de fondement de haine capitale, avoir de haines implacable, sacrifier à la haine du peuple, payer de haine, aider de sa haine, modérer entre la haine de la douleur* singari.

Ot shaklidagi leksema quyidagi soʻz birikmalari bilan qoʻllangan: *haine mortelle* (nom+adjectif), *haine particulière* (nom+adj), *la haine des livres* (nom+nom), *pleines de haine* (adv+nom), *haines intestines* (nom+adj). Nafrat tushunchasini berishda Monten soʻz qoʻllash borasidagi mahoratini ishga solib: *d’affection et d’envie [haine], jalousies et d’envies [haines], vengeance ou d’envie [haine], maltaient [haine]* soʻz

¹⁵⁷ Legros A. Essais sur poutres: Peintures et inscriptions chez Montaigne. – Paris, 2000. – 75-p.

¹⁵⁸ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. 429,253,133,136,646-p.

va soʻz birikmalari orqali *haine* leksemasining sememalarini hosil qilishga erishgan.

Navbatdagi *altération de la santé* ifodasidagi “maladie” (n.f) – kasallik, xastalik, kasal, dard leksemasi “*Tajribalar*” asaridagi qoʻllanilish chastotasi 169 ta, ot, olmosh, feʼl, sifat darajalari, ravish va predloglar qurshovida qoʻllangan. Asarda muallif “maladie” leksemasining emotivligini ochib berishda “trouble” (sarosima, notinchlik, besarangjomlik, bezovtalik, hayajon) sememasini sinonim sifatida 134 marotaba foydalangan. Monten “*gravelle*” (buyrak toshi) kasalligidan doimiy aziyat chekkan, bu kasallik uni oʻlimiga ham sabab boʻlgan. Monten “maladie” leksemasini “souffrir” (qiynalmoq, oʻgrimoq, azoblanmoq; azob-uqubat chekmoq) feʼlini birga qoʻllash orqali kasallikka bardosh berish qanchalik qiyinligini ifodalagan: “*Je suis aux prises avec la pire de toutes les maladies, la plus soudaine, la plus douloureuse, la plus mortelle, et la plus irremediable.*”

Montenning ikkinchi kitob 37-bobi “*De la ressemblance des enfants aux pères*” qismida Monten ogʻriqlar taʼsirida tibbiyot chorasizligi, qaysidir maʼnoda shifokorlarning “koʻz boʻyamachiligi” ekanligi haqida gapiradi. Monten kasallikni ogʻriqli va xayoliy bezovtalik kabi turlarga ajratadi. Xayoliy bezovtalikka quyidagicha fikr bildiradi: “*Combien en a rendu malades la seule force de l’imagination? Nous en voyons ordinairement se faire saigner, purger et médeciner pour guérir des maux qu’ils ne sentent qu’en leurs discours*”, yaʼni qancha odam xayol kuchi bilan kasallangan? Odatda, biz ularning qon ketishini, tozalanishini va faqat nutqlarida his qiladigan kasalliklarni davolash uchun dori-darmonlarni koʻramiz. Bunday xayollarga qul boʻlgan odamning hayotini tabiiy nafsiga ergashadigan, narsalarni faqat hozirgi sezgilar bilan baholaydigan, ilmsiz va tahlilsiz, ozor cheksagina ogʻriydigan odamning hayoti bilan solishtiring; bularning buyragida emas, ruhida tosh bor deya asarda qatʼiy taʼkidlaydi.

Muallif kasallik aslida qanday davolashni bilmagan, ammo bemorning fantaziyalarini boshqara olgan “tajribali” shifokorlarning ixtirosi ekanligi haqida gumon qilishimiz kerak, degan fikrni aytib oʻtadi. Yana taʼkidlashicha, tibbiyot – borliqning ikkita tekisligi oʻrtasidagi chegara, tibbiyot – mavjudlikning ikkita tubdan qarama-qarshi tekisligi – sogʻlom muvozanat va kasallik muvozanati oʻrtasidagi chegarani chizgan,

u tananing ko‘rinishiga bo‘ysunadi, bu tananing “cosmique” fazoviy ko‘rinishidir¹⁵⁹.

Shuningdek, Monten “*Tajribalar*” asarida yuqorida tilga olingan ma’lumotlardan tashqari (III.13.1068, III.5.845, III.9.947; III.1.790, I.14.55, II.12.569, III.13.1079 boblari)da ham “maladie” leksemasining semantik maydonini yoritib, farzand kamolida aqliy, axloqiy nuqsonlardan xoli qilib tarbiyalash muhimligini uqtirgan.

“Salbiy xususiyat” ta’rifidagi navbatdagi leksema “Mensonge” (n.m):

1. *Action de mentir, de déguiser, d’altérer la vérité* – yolg‘on, yolg‘on gap, yolg‘on-yashiq, uydirma, to‘qima, bo‘hton.

2. *Assertion contraire à la vérité* – yolg‘onchilik, yolg‘on-yashiq ishlatish, uydirmachilik, to‘qimachilik kabi ma’nolari mavjud.

Mujskoy rod holatida “menteur”; jenskoy rod holatida “menteuse” ot shaklida shaxsga ko‘chadi, o‘zbek tilida yolg‘onchi, aldamchi, kazzob kabi tarjimalari mavjud. “Mensonge” leksemasining qo‘llanilish chastotasi 34 ta, “menteur” leksemasiniki 4 ta, jenskoy rod holati esa umuman qo‘llanmaganligi tadqiqot jarayonida aniqlandi.

Montenga ko‘ra, eng avvalo, asar boshlanishida keltirilgan jumla: “*C’est icy un livre de bonne foy, lecteur*”, “*projet de sincérité*” – samimiyat loyihasi qanchalik paradoksal bo‘lmasin, “*Au Lecteur*” – kitobxonga murojaati qanchalik ritorik ko‘rinsa-da, “*bonne foy*” – yaxshi niyat bayonotining vijdoniylikiga shubha qilish uchun asos yo‘q edi. Zotan, yolg‘onni qorolash Montening doimiy va yaxshi ifodalangan axloqiy va falsafiy holatlaridan biri.

Montening yolg‘on gapirishdan bosh tortishi, birinchi navbatda, “*complexion*” – fe‘l-atvor xususiyatiga bog‘liq: “*Mon ame, de sa complexion, refuit la menterie et hait mesmes à la penser*”, ya’ni o‘z fe‘l-atvoriga ko‘ra, yolg‘on gapirishdan bosh tortishi va hatto bu haqida o‘ylashni ham yomon ko‘rishini aytgan. Monten bu fikrni qo‘llab-quvvatlab jiddiy bahsga bormasdan, “*complexion*” – fe‘l-atvori “*discours*” – nutqi orqali haqiqatni gapirishga qaratilgan qaror qabul qiladi.

Lekin, avvalo, yolg‘on tushunchasining murakkab tuzilishiga oydinlik kiritishda ushbu fikrni aytadi: “*les grammairiens font difference entre dire mensonge, et mentir: et disent, que dire mensonge, c’est dire chose fauce, mais qu’on a pris pour vraye, et que la definition du mot de*

¹⁵⁹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. 491.

*mentir en Latin, d'où nostre François est party, porte autant comme aller contre sa conscience, et que par consequent cela ne touche que ceux qui disent contre ce qu'ils sçavent*¹⁶⁰.”

“Mensonge” – Montenga ko‘ra, yolg‘on leksemasini qo‘llashda “dire mensonge” – yolg‘on aytmoq va “mentir” – aldamoq so‘zlari orasidagi farqni aniqlab aytadigan bo‘lsak, *dire mensonge* – yolg‘on gapirmoq noto‘g‘ri narsani aytish ma‘nosida, lekin haqiqat deb qabul qilinadi, *mentir* leksemasi lotin tilidan fransuz tiliga kirib kelgan “o‘z vijdoniga qarshi chiqish” degan ma‘noni anglatib, o‘zi bilgan narsasiga qarshi gapiradiganlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Obyektiv yolg‘on “se tromper” – adashmoq, yanglishmoq fe‘li bilan qo‘llansa, subyektiv yolg‘on “dire délibérément le faux” – ataylab yolg‘on gapirishga nisbatan farqli ekani ko‘rinadi.

Birinchi ma‘noda Monten, ko‘pincha, “disent mensonge” so‘zi orqali “mentir”dan farqli ravishda ataylab yolg‘on gapirishni tushunadi. Bu yolg‘on ikki xil: yolg‘on so‘z va hatti-harakatlar yolg‘oni. “Mentir” esa bu faqat ataylab yolg‘on gapirish emas, shuningdek, adolatsiz harakat qilish va tildan nayrangbozlik uchun foydalanish – yolg‘onning bu ikki shakli o‘rtasida vositachilik qilishdir.

Aynan o‘sha holat jarayoni XVI-asrda “démentir quelqu’un” – kimnidir aldaganlikda ayblamoq, “*Du démentir*”, II.18 bobida “*démenti est une accusation de mensonge*¹⁶¹” – yolg‘onchilikda ayblash, yolg‘onchiligini oshkor qilish, yolg‘onligini ko‘rsatadigan jihatlari muallif tomonidan ochib berilgan. Shuningdek, *démentir* leksemasi harakat nomi hamda olmoshli fe‘l bo‘lib ham asarda qo‘llangan: *sentir un démentir, sauver un démentir, voir se démentir*.

Sentiment par lequel on juge quelqu'un ou sa conduite moralement condamnables, indignes d'estime, d'attention ifodasidagi “mépris” (n.m) leksemasi mensimaslik, e‘tiborsizlik, pisand qilmaslik, nazarga ilmaslik, nazar-pisand qilmaslik singari ma‘nolari mavjud. Asardagi qo‘llanilish chastotasi 42 ta. Aytish joizki, “se méprendre” fe‘lidan hosil bo‘lgan. Monten ijodida “mépris” (“nafrat”) lisoniy birlik olijanob qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy nafratda namoyon bo‘ladi¹⁶². Monten yengiltaklikni qoralaydi: “*accointances venales et publiques*” – buzuq va ommaviy

¹⁶⁰ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. -537.

¹⁶¹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. 35,595-603,118.

¹⁶² Mathieu-Castellani G. “Le paysage de l’honneste dans les Essais de Montaigne”, La Catégorie de l’honneste dans la culture du XVIIe siècle, Saint Etienne, 1985. – 15-p.

munosabatlardan, “*des prostituées*” – fohishalardan voz kechish zarurligini aytadi, chunki u “*esguiser ce plaisir par la difficulté, par le desir et par quelque gloire*¹⁶³” – bu zavqni qiyinchilik, xohish va qandaydir shon-shuhrat bilan sharhlash, deya izoh beradi.

Muallif uchun “*mépris*” – bu hikmatga erishish uchun insonning o‘z-o‘zida tarbiyalashi kerak bo‘lgan nafrat, ezgulik kamolotiga erishishga to‘sqinlik qiladigan hamma narsaga nisbatan nafratdir. Montenda “*mépris de la douleur*” – og‘riqqa nisbatan nafrat, “*mépris de la mort*” – o‘limga nisbatan, aytish mumkinki, “*mépris de la vie*” – hayotga nisbatan nafrat, “*mépris de la gloire*” – shon-shuhratga nisbatan nafrat qayd qilingan, ammo bu holat mulohazalarga butunlay nafrat bilan qarash degani ham emas. Montenda og‘riq va o‘lim qo‘rquv tomon o‘z strategiyasidan boshqa tomonga burish usuli uchinchi kitobning “*De la diversion*” 4-bobida nafrat tushunchasi ostida o‘ylash imkonini bergani ko‘rinadi. Monten nafrat tushunchasini ifodalashda “*avoir du mépris pour qqch*” – biror narsadan hazar qilmoq, “*mépriser*” – e‘tiborsizlik, beparvolik bilan qaramoq, ahamiyat bermaslik, nazar-pisand qilmaslik kabi fe‘llardan, sifat shaklida *méprisant* leksemasidan foydalangan.

“Salbiy jihat” ta’rifidagi ushbu leksema “*naïveté*” (n.f) – soddalik, sofdillik ma’nolari mavjud. Asarda ushbu leksemaning qo‘llanilish chastotasi 18 ta, sinonim tarzda “*simplicité*” so‘zi 22 marta qo‘llangan. Asarda muallif: “*Mes défauts s’y liront au vif, et ma forme naïfve, autant que la reverence publique me l’a permis*¹⁶⁴” – mening kamchiliklarim tez o‘qiladi va mening shaklim sodda, chunki jamoat hurmati menga ijozat bergan, deydi o‘quvchiga qilgan murojaatida. Monten da’vo qiladigan soddalik “*simple, naturelle et ordinaire, sans contention et artifice*¹⁶⁵” – ya’ni oddiy, tabiiy, odatdagi cheklovlarsiz va hashamatsizdir.

Monten “*naïveté*” tushunchasini qarama-qarshi “*la feinte*”, “*la finesse*”, “*la vaine subtilité*”, “*l’affectation*”, “*le fard*”, “*les figures de rhétorique*”, “*la glose*”, hatto “*la doctrine*”, ya’ni “*la science et la philosophie*” leksema va so‘z birikmalari bilan ham tavsiflaydi. “*Naïveté*” leksemasini quyidagi so‘zlar bilan juftlikda qo‘llaydi: “*naïfve et simple obeissance*”, “*naïveté et aisance*”, “*un parler simple et naïf*”, “*la vraye et naïfve philosophie*”, “*narrations naïfves et droictes*”, “*vertu nayfve et sincere*”, “*beauté naïve, active, genereuse*”.

¹⁶³ Ўша маъба -649.

¹⁶⁴ Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. -3.

¹⁶⁵ Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. 74,171,248,941,993,162,1037.

XVI-asrda kamdan-kam uchraydigan *crédulité de quelqu'un qui résulte de l'inexpérience, de trop de confiance allant jusqu'au ridicule* ifodasida ham leksemaning kamsituvchi ma'nosini Monten e'tibordan chetda qoldirmaydi: “*Est pas la naïveté, selon nous, germeine à la sottise et qualité de reproche*¹⁶⁶” – bizningcha, soddalik ahmoqlik va malomat sifatiga xos emas, muallif uni inkor etadi. 1550-yildagina “naïveté” – samimiylik singari ijobiy ma'noda qo'llana boshlagan.

Monten uslubida *naïveté* atamasi biror narsani ifodalashning tabiiy va oqlangan soddaligini ifodalashda ishlatilgan¹⁶⁷. Pyer Villeyning ta'kidlashicha, muallif xalqchil so'zlardan maqollarning ishlatilishidagi soddalik va tabiiylik tasvirini bayon qilishda foydalangan.

Shuningdek, ko'rib o'tilgan “salbiy jihat” ta'rifidagi leksemalarning emotiv ta'sirchanligi ortidagi ijobiylik xususiyatlari kishida tushunchalar anglatgan teran ma'no hamda mazmuniga ko'ra ong va tanadagi doimiy nuqson, tuzatib bo'lmaydigan xato va kamchiliklarga qarshi kurashish, buning uchun o'zida kuch topa bilishga undaydi. XVI-asrda ushbu ifodani saqlagan lisoniy birliklarning bizning asrimizda ham semantik ma'nosi, konnotativ jihatlarini yoritish, mazmuniy bog'lanish sathida ma'nolar zanjiri nuqtai nazaridan hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi ma'lum bo'ladi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Insonning ichki dunyosini his qilish va ayni holat bilan bog'liq bo'lgan so'zlarning semantik tarkibi, axloqiy, mantiqiy baholari, ma'naviy va g'oyaviy munosabatlari denotat sifatida an'anaviy ravishda tarixiy hamda semantik tadqiqotlarda tushuncha, ma'nolar nuqtai nazaridan talqin etiladi. Mazkur bobda Mishel Monten falsafiy tafakkuri taraqqiyoti jarayonida sezilarli o'zgarishlarga uchragan “yaxshi fazilat” tushunchasi mutafakkir dunyoqarashida yetakchi o'rinlardan birini egallashi, inson tarbiyasida o'zini anglashga undashi va oilada farzand tarbiyasini mukammal shakllantirishdagi lingvofalsafiy qarashlari ahamiyati yoritildi.

2. Muallif Mishel Monten “*Les Essais*” (*Tajribalar*) asarini yozishda o'zidan oldingi davr yozuvchi, tarixchi va faylasuflarining asarlariga, hayot tajribalariga murojaat qilib, o'z asarida axloqiy jihatlarni aks ettirish

¹⁶⁶ Ўша маъба-162.

¹⁶⁷ Montaigne M. *Les Essais* / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. 74,171,248,941,993,162,1037.

jarayonida ko‘pgina manbalarga tayangan. Xususan, muallif o‘sha davr xorij tili: lotin, yunon yozuvchilarining asarlarini o‘rgangan va ular orqali fikr va munosabatini yorqin ifodalashga erishgani aniqlandi.

3. Mishel Monten tomonidan yunon va rim mualliflari asarlariga qilingan murojaatlar miqdori va u mutolaa qilgan asarlar xronologiyasini tuzib chiqishga erishildi.

4.“Tajribalar” asarida “salbiy jihat” leksemalari sifatida “*bêtise, colère, confession, consolation, contradiction, folie, haine, maladie, mensonge – menteurs, mépris, naïveté*” lisoniy birliklari tanlab olindi va shu asosda semantik ma’no xususiyatining tarbiyadagi ijobiy jihatlari aniqlandi.

5.Farzand tarbiyasida “salbiy jihat” leksemalari nutq tarkibida turli qurshov va ma’noda qo‘llanilishi, ularning aloqa joylashuvi bilan bog‘liq konstruksiyalarda ijobiylik semantik guruhi tavsiflandi. “Salbiy jihat” leksemalari nafaqat doimiy belgilarni, balki o‘tkinchi holatlar, qarama-qarshi harakatlar bo‘yoqdorligini oshirish uchun ham qo‘llanganligi ko‘rib chiqildi.

III BOB. MISHEL MONTENNING “TAJRIBALAR” ASARIDA “OILA TARBIYASI FAZILATLARI” LISONIY BIRLIKLARINING LEKSIK, SEMANTIK VA PARADIGMATIK XUSUSIYATLARI

3.1. M. Monten asarida “oila tarbiyasi fazilatlari” leksemalarining leksik-semantik jihatlari

Lug‘aviy birliklar, xuddi boshqa satxlardagidek, til tizimida muayyan tartibdagi guruhlarni tashkil qiladi va ma’no jihatidan (ushbu guruhlar doirasida) o‘zaro paradigmatic munosabatda bo‘ladi. T. Bushuy va Sh. Safarovlar til satxlari xususida quyidagilarni o‘rinli ta’kidlashgan: *“Tilning har bir birligiga xos ichki yaxlitlikka belgi yoki belgilar birikmasining sintagmatik, paradigmatic va ierarxik munosabatlariga asoslangan yagona mezonning qo‘llanishi til tizimida ma’lum ko‘rinishdagi satxlarni ajratish imkonini yaratadi¹⁶⁸.”*

Bunday paradigmatic birlashmalarni “mavzuviy guruhlar” yoki “leksik-semantik guruhlar” deb ataydilar. Tadqiqot jarayonida tarixiy-filologik tahlilning quyidagi modeli taklif qilinadi:

1. Birinchi bosqichda tushunchaning g‘oya – prototipi, “ma’no embrioni”ni aniqlash maqsadida etimologik tahlil o‘tkaziladi. So‘zning etimologiyasi o‘rganiladi, etimonning dastlabki ma’nolari ochib beriladi, ma’nolarning rivojlanish yo‘llari, so‘z ma’nolarining tarixi o‘rganiladi. *“So‘z, bir tomondan, uni idrok etishning ko‘p qirraliligiga hissa qo‘shishi mumkin, ikkinchi tomondan, ma’nolarning etimologik doirasiga ko‘ra foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi¹⁶⁹.”*

2. Lug‘atda berilgan ta’riflarni tahlil qilish asosida tarbiyaning mazmun minimumi aniqlanadi. Izohli lug‘atlarda keltirilgan tavsiflar, ularning ta’riflarini tahlil qilish asosida aniqlangan konseptual xususiyatlar zarur bo‘lgan mazmunli minimumni (konsepsiyaning umumlashtirilgan prototipini) tashkil qiladi. Lug‘at tavsifiga ko‘ra, leksik ma’noni aniqlash tushunchaning asosiy semantikasini ochishdagi muhim qadamdir.

3. Uchinchi bosqichda XVI-asrdagi “oila tarbiyasi fazilatlari” tushunchasini ifodalovchi asosiy leksik birliklarning semantik tuzilishi ochib beriladi.

¹⁶⁸ Бушуй Т.А., Сафаров Ш.С. Тил курилиши: таҳлил методлари ва методологияси. Илмий нашр. – Т.: Фан, 2007. – 43-б.

¹⁶⁹ Сафаров Ш.С. Семантика. – Т.: ЎзМЭ, 2013. – 65-б.

4. Tushuncha nomlari qo‘llanilgan kontekstlarning izohli semantik tahlili amalga oshiriladi.

Tabiiyki, oila fazilatlarini tushunchasining semantik maydoni nafaqat otlar bilan ifodalanadi. V.V.Kolesovning fikricha, balki boshqa birliklar ham mansublik kasb etadi¹⁷⁰. M.K.Golovanitskaya o‘z tadqiqotida faqat otlarni tavsiflaydi, *“juda munozarali intuitiv fikrga asoslanib, ot o‘z-o‘zidan vakilliklarning dastlabki mos yozuvlar nuqtalarini ‘siqadi’, unda qarashlar tizimini, mentalitetning tuzilishini aniqroq ko‘rish mumkin.”* Ba’zi tadqiqotchilar fikricha, *“har qanday bilim sohasini taqdim etishda 90 foiz ifodalangan tushunchalarni tushuntirish otlar orqali amalga oshiriladi”¹⁷¹.*

Leksik-semantik guruh birliklar orasidagi bog‘lanishlarning ancha yuqori tartibliligi bilan tavsiflanadi. Leksik-semantik guruh tuzilishida yadro va periferiya ajralib turadi. Leksik-semantik guruhning markazi bo‘lgan yadro uslubiy jihatdan neytral va ma‘nosi bo‘yicha eng umumiy so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

Leksik-semantik guruhning periferiyasi eng ko‘p differensial semalarga ega bo‘lgan leksik birliklardan iborat: bular maxsus so‘zlar (terminlar), ma‘nosidagi konnotativ elementi yetakchi bo‘lgan so‘zlar bo‘lishi mumkin. I.P.Slesareva ta’kidlaganidek, leksik-semantik guruhdagi so‘zlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarning tabiati, ularning semantik yaqinlik darajasi leksik-semantik guruh yadrosini to‘liq semantizatsiya obyektiga aylantiradi¹⁷².

Leksik-semantik guruh yadrosida asosiy so‘z yoki asosiy sinonimik qatorni ajratib ko‘rsatish mumkin. Leksik-semantik guruhning asosiy so‘zi o‘z semantikasida berilgan leksik-semantik guruhning barcha birliklari uchun umumiy bo‘lgan integral semani o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotchilar fikricha, asosiy so‘z-guruh identifikatori morfemik tarkibda sodda bo‘lishi, ushbu leksik-semantik guruh birliklari orasida eng keng moslashuvga ega bo‘lishi, ona tilida so‘zlashuvchilar uchun psixologik ahamiyatga ega bo‘lishi kerak. Asosiy identifikatorning qiymati butun guruhning umumiy qiymati sifatida ko‘rib chiqilishi lozim. Asosiy identifikator, odatda, guruhdagi faol so‘zdir. Ba’zi hollarda bir nechta so‘zlar tayanch identifikator vazifasini bajarishi mumkin. Leksik-semantik guruhning istalgan a‘zosining ma‘nosini asosiy identifikator

¹⁷⁰ Колесов В.В. Жизнь происходит от слова. – СПб: Златоуст, 1999. –158-с.

¹⁷¹ Головановская М.К. Французский менталитет с точки зрения носителя русского языка: монография. – Москва, 1997. – 10-с.

¹⁷² Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. –55-56-с.

yordamida ifodalash, ochish mumkin¹⁷³. Leksik-semantik guruh tarkibiga kiruvchi barcha soʻzlar maʼnolarini qamrab olgan maʼno umumlashtirilishi tufayli asosiy identifikator ushbu leksik-semantik guruhga mansub istalgan birlikning funksional ekvivalenti vazifasini bajarishi mumkin.

E.V.Kuznetsova fikricha, bosqichma-bosqich identifikatsiyalash usulidan foydalangan holda soʻzlarning keng doirasini doimiy ravishda bitta asosiy identifikatorga qisqartirish mumkin, uning umumiy maʼnosida u yoki bu asosiy sema ifodalanadi¹⁷⁴. Taʼkidlash kerakki, leksikada leksik-semantik guruh tarkibiy tuzilishining u yoki bu turini sof shaklda ifodalash juda qiyin, chunki leksik tizimlar, ayniqsa, harakatchan, leksik-semantik guruh chegaralari beqaror va alohida soʻz guruhlari har doim yangi soʻzlar va qoʻshni semantik sinflar birliklari bilan kengaytiriladi.

Umuman olganda, leksik-semantik guruh lugʻaviy tizimning eng yorqin ifodasidir, chunki u sinonimiya, antonimiya, polisemiya, sintagmatik bogʻlanishlarni hisobga oladi. Tilning leksik tizimlarini ajratishda toʻgʻridan-toʻgʻri ishlatiladigan bosqichma-bosqich aniqlash usuliga alohida eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq boʻladi. E.V.Kuznetsov aytganidek, bosqichma-bosqich aniqlash usuli soʻz maʼnolarining leksikografik taʼrif maʼlumotlariga asoslanadi¹⁷⁵.

Lugʻatda soʻz maʼnosini aniqlashda aniqlovchi bilan aniqlanayotgan soʻz bir leksik-semantik guruhga mansub, lekin mazmunan torroq, qoʻllanish doirasi kengroq boʻlgan soʻz bilan solishtiriladiki, ayrim soʻzlardan boshqasini aniqlash uchun foydalanish imkoniyati ularning til leksik tizimidagi obyektiv korrelyatsiyasi bilan taʼminlanadi.

Identifikatorlar boʻyicha kuzatuvlar hech boʻlmaganda oʻxshashlik chizigʻi boʻylab ushbu korrelyatsiyani aniqlashga imkon beradi. Bosqichli identifikatsiya natijasida barcha leksik-semantik guruh elementlari semantik korrelyatsiya asosida birlashtiradigan va soʻzlarning asl roʻyxatini tekshiradigan leksik-semantik guruh mohiyatini tasdiqlaydi¹⁷⁶.

XVI-asr Fransiya uchun mafkuraviy va madaniy taraqqiyotning murakkab va samarali davri hisoblanadi. Shuningdek, Fransiya Uygʻonish davri mutafakkirlarining butun galaktikasini yaratdi. Bundan

¹⁷³ Васильева Н.М. История французского языка – Москва, 1963. – 371-с.

¹⁷⁴ Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. – М.: ЧеРо, 2003. – 261-с.

¹⁷⁵ Кузнецова Э.В. О путях выделения компонентов значений слов при описании ЛСГ // Актуальные проблемы лексикологии и лексикографии. – Пермь, 1972. – 198-с.

¹⁷⁶ Кузнецова Э.В. Лексико-семантическая группа слов и методы ее описания // Актуальные проблемы лексикологии: доклады 2-ой лингвистической конференции. – Новосибирск, 1969. – 106-107-с.

tashqari, Uygʻonish davri fransuz tilining adabiyot, fan va huquqshunoslik tili sifatida tarqalishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol oʻynagan. Aynan shu davrda uning lugʻat boyligining rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganish alohida ahamiyatga ega edi. XVI-asrda leksikaning turli manbalardan faol toʻldirilishi uning boyish omillaridan biri boʻldi, xususan, qadimgi tillar, fransuz dialektlari, italyan tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlar shular jumlasidandir¹⁷⁷. P.Guiraud taʼkidlaganidek, XV–XVI- asrlarda juda koʻp yangi soʻzlar yaratildi. XVI-asrda grammatikada iboradagi soʻzlarning erkin tartibi ham, ularni tanlashning qatʼiy qoidalari ham chegaralanmagan edi.

F.Grey fikricha, Montening uslubi asosida XVI-asr boshidan boshlab olimlar va yozuvchilar lotin, grek va italyan tillarini boyitishga uringanlar. Monten esa bu qaramlikni oʻziga nisbatan tanqidiy munosabat bilan qarshi oldi. XVI-asrga kelib, tilda allaqachon “yetarli material bor, lekin uni ishlab chiqishning usullari yetarli emas¹⁷⁸”, deydi Flod Grey. U fransuz tili lugʻatini yangi leksik birliklar bilan toʻldirish va mavjud soʻzlarga yangi maʼnolar berish orqali boyitishni taklif qiladi. Monten lugʻati ilmiy lugʻat emas, ammo nihoyatda boy. P.Manjar taʼkidlaganidek, Monten tili XVI- asrda eng boy til boʻlgan (Magnard P; 2002). Bu yerda jonli kundalik tilidagi iboralar, maxsus atamalar fransuz xalq tili Gaskon lahjasidan olingan soʻzlar bilan yonma-yon turadi. Montenga koʻra, “... qayerda fransuzcha kuchsiz boʻlsa, Gaskon uning oʻrnini bossin... Men yaxshi koʻrgan nutq – lablardagi kabi qogʻozda ham sodda nutq; shirali va oʻtkir, qisqa va ixcham, har qanday dabdabadon xoli, dadil aytiladigan nutq; uning har bir boʻlagi oʻz vazifasini bajarishi kerak...¹⁷⁹”.

Ommaviy madaniyatning Monten ijodiga taʼsiri Rablega qaraganda kamroq ekanligi aniqlangan. Biroq maqollar va turgʻun iboralar “Tajribalar” asarida, darhaqiqat, mavjud. Voqelikni jonli, tabiiy tarzda gavdalantirish maqsadida Monten iboralarni ishlatgan, bu uslubning soddaligini va fikrning mazmunli va samarali boʻlishini taʼminlash uchun xizmat qilgan. Aniqlik talabi muallifning oʻzi haqidagi maʼlumotni ortiqcha “bezaklarsiz” yetkazishdan iborat boʻlgan: “*Je veux qu'on m'y voie en ma façon simple, naturelle et ordinaire, sans étude et artifice : car c'est moi que je peins. Mes défauts s'y liront au vif, mes imperfections et*

¹⁷⁷ Guiraud P. La sémantique. – Paris: PUF, 1962. – 8-p.

¹⁷⁸ Gray F. Montaigne bilingue. – Paris, 1991. – 35-p.

¹⁷⁹ Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. – М.: ЧеРо, 2003. – 160-161-с.

ma forme naïve, autant que la révérence publique me l'a permis.” O‘quvchi oldida “*au naturel*” (“tabiiy ravishda”) paydo bo‘lish istagidan kelib chiqqan holda, Monten o‘z talabini qo‘yadi. “Oila tarbiyasi fazilatlariga oid *éducation, condition humaine, affection, enfance* leksemalari tanlab olinib “Tajribalar” asaridagi leksik-semantik ifodasi ochib beriladi.

Conduite de la formation de l'enfant ou de l'adulte ifodasidagi “*éducation*” (n.f) leksemasi – tarbiya, tarbiya berish, ta’lim-tarbiya kabi ma’nolari mavjud. “*Éducation*” lisoniy birligi ilk bor Rable tomonidan 1552-yilda qo‘llangan, etimologik tarixiga nazar solsak, lotin tilidan olingan *institutio, -onis* – *instruction, éducation* shakliga kelgan. Mishel Monten asarining farzand tarbiyasiga oid boblarida “*éducation*” so‘zi ta’lim ma’nosida atigi uch marta: birinchi kitob 25-bob “*Du pédantisme*” 143 sahifasida, ikkinchi kitob 8-bob “*De l'affection des pères aux enfants*” 389 sahifasida va 31-bob “*De la colère*” 714 sahifasida tilga olingan. Ta’lim ma’nosini ifodalashda Monten antropogen va axloqiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan “*institution*” so‘zidan foydalanishni afzal ko‘rgan.

Farzand tarbiyasi haqida birinchi kitobning 26-bobida muallif: “*la plus grande difficulté et importante de l'humaine science semble estre en cet endroit où il se traite de la nourriture et institution des enfans*”, ya’ni “Inson aqli aynan bolani parvarishlash va tarbiyalash sohasida eng katta qiyinchilikka uchraydi”, deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, farzandni jismonan, aqlan va axloqan kamolga erishtirib hayot maydoniga kuchli, aqlli va yaxshi axloq bilan chiqarish zarur. Shuni e’tiborga olib olimlar tarbiyani uch qismdan iborat deb biladilar. Bular: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Lekin bu uch qismini bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Ular bir-birlariga shunday bog‘liq va yaqin-ki, biriga zarar yetsa, boshqalarida ham o‘zgarish paydo bo‘ladi. Mutafakkir *se traitez de la nourriture, élever, instruire, nourrir, alimenter, entretenir, enseigner* fe’llari yordamida “*éducation*” ifodasini gaplar tarkibida qo‘llaydi.

Ommaviy madaniyatning Monten ijodiga ta’siri Rablega qaraganda kamroq ekanligi aniqlangan. Biroq maqollar va turg‘un iboralar “Tajribalar” asarida, darhaqiqat, mavjud. Voqelikni jonli, tabiiy tarzda gavdalantirish maqsadida Monten iboralarni ishlatgan, bu uslubning soddaligini va fikrning mazmunli va samarali bo‘lishini ta’minlash uchun xizmat qilgan. Aniqlik talabi muallifning o‘zi haqidagi ma’lumotni ortiqcha “bezaklarsiz” yetkazishdan iborat bo‘lgan: “*Je veux qu'on m'y voie en ma façon simple, naturelle et ordinaire, sans étude et artifice : car*

*c'est moi que je peins. Mes défauts s'y liront au vif, mes imperfections et ma forme naïve, autant que la révérence publique me l'a permis*¹⁸⁰". O'quvchi oldida "au naturel" ("tabiiy ravishda") paydo bo'lish istagidan kelib chiqqan holda, Monten o'z talabini qo'yadi. "Oila tarbiyasi fazilatlariga" oid *éducation, condition humaine, affection, enfance* leksemalari tanlab olinib "Tajribalar" asaridagi leksik-semantik ifodasi ochib beriladi.

"Discipline de l'enfance", ya'ni "intizom" bilan cheklanmagan ta'limning, shubhasiz, markaziyliigi, shuningdek, hukumatning yaxshi davlat boshqaruviga ham bog'liqligi masalasi ikkinchi kitobning 31-bobida yoritiladi. Farzand tarbiyasidagi muhimlik va murakkablik masalasi uning axloqiy-siyosiy qiymati bilan bog'liqlikda sintez qilinadi: "*Une bonne institution, elle change le jugement et les mœurs*". Bu sabab ta'lim va axloqning o'zaro bog'liqligini tasdiqlaydi, albatta. Ta'limning pirovard maqsadi tushunchalar va usullarni o'rganish emas, balki bilimdonan ko'ra dono odamni shakllantirish va takomillashtirishdir, deydi mutafakkir. Fikrining davomi sifatida Plutarxning "An virtus doceri possit" asaridan o'rin olgan "tarbiyaning maqsadi donolikka erishishdir, ularsiz boshqa bilim hosilasi bo'lmaydi", degan iqtibosni ham keltiradi. Muallif buni ezgulik yo'lidagi intilish deb baholaydi va nafaqat bolalik, balki balog'atni ham nazarda tutadigan uzluksiz, tugallanmagan jarayonga o'xshatadi. Monten "muntazam ta'lim" tushunchasini doimiy ravishda ozod inson hayotining har bir bosqichida inson tarbiyasi asoschilarining tushunchalaridan biri sifatida qaraydi¹⁸¹.

Ta'lim aqliy qobiliyatlarni axloqiy energiyaga aylantirish bilan bog'liq bo'lgan yechimdan to'g'ri foydalanish, umumiy "*sensus communis*" – aql operatsiyalarini axloqiy harakatlarga aylantirish va tarjima qilish uchun mos bo'lgan nazariy amaliyotdir¹⁸². Montening mavhum fikrlash sababining sof rasmiyatchiligini tanqid qilishi ba'zida suhbat funksiyalarini o'z ichiga olgandek tuyuladi, ularni o'z-o'zidan va oxirida saqlaydigan kishining diqqatini qaratilgan "*stulta logicalia*" (mantiqning kengaytmasi) sifatida ko'rinishni niqoblaydi. "Ijtimoiy" ta'limga e'tibor bir necha bor tasdiqlangan. Bu o'quvchining "ko'zlari" bo'lishi kerak va nafaqat dunyo uning kitobi bo'lishi kerak! Gumon

¹⁸⁰ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –3-149.

¹⁸¹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. 714,660,414,168-177,431.

¹⁸² Ўша манба 112-р.

qilingan motivatsiya Monten o'quvchining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishini xohlayotganini aniq ko'rsatib beradi.

“Oila tarbiyasi fazilatlarini” leksemalarining navbatdagi *condition humaine* (nom+adjectif) so'z birikmasi inson taqdiri ma'nosida qo'llangan. Montening: “*Chaque homme porte la forme entiere de l'humaine condition*” “*humaine condition*” (inson holati) birikmasi va “*forme*” (shakl) so'zi o'rtasidagi kesishuv, bu lisoniy birlikning tushuntirilishidagi murakkablashgan formulalardan biridir. “Tajribalar” matni ma'nosining bir qismi insonga bag'ishlangan. “*Condition*” so'zining etimologik kelib chiqishi “*condicio*”, dastlab “*condition*” bilan bog'liqligi manbalarda qayd qilingan. “*Condition humaine*” – inson holati, biz asarda “*notre mortelle condition*” – bizning o'lim holatimiz, “*notre miserable condition humaine*¹⁸³”, unga bog'langan “*misère*” baxtsizlik so'zi “bizning baxtsiz taqdirimiz”, “*les appetits desordonnez et imperfections de notre condition*” – ishtahaning buzilishi va bizning holatimizning nomukammalligi haqidagi an'anaviy formulalarni kuzatdik: “*Il faut souffrir doucement les loix de notre condition*” – Asarda taqdirimiz qonunlariga, azobga chidashimiz zarur, deya inson zimmasiga yuklangan majburiyatlar ta'kidlangan.

Inson har qanday dori-darmonsiz keksayib, zaiflashishi, kasal bo'lishi “*Il faut apprendre à souffrir ce qu'on ne peut éviter*” – qochib qutula olmaydigan narsaga chidashni o'rganishi kerakligi, shuningdek, u o'z istaklariga qo'yadigan chegaralar, ya'ni o'zida bo'lgan ko'p nomukammal va ojiz xususiyatlarning qachon va qayerda inobatga olinishi bilgan odamni biror jihat ranjitmaydi, deydi ijodkor.

Sentiment d'amitié, de tendresse d'attachement pour quelqu'un ifodasidagi “*affection*” (n.f.) leksemasi mehr, mehr qo'yish, mehribonlik ma'nolarida asarda 152 marta ishlatilgan. U XIII-asr oxirida ilk marta “*mouvement qui porte l'âme vers qqn*” ya'ni qalbni kimgadir eltuvchi harakat sifatida ishlatilgan. 1609-yildan “*attachement, amitié pour un être humain*” – inson bilan do'stona bog'lanish ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan¹⁸⁴. 1539-yildan boshlab tibbiyot sohasida “*modification physique, état maladif*” – “jismoniy o'zgarish”, “kasallik holati” kabi ma'noda ham qo'llana boshlangan. Biroq Mishel Montening “*Tajribalar*” asarida “*affection*” otining kasallik ma'nosida ishlatilmaganligi kuzatiladi.

¹⁸³ Ўша маъба.551,50.

¹⁸⁴ Aulotte R. Montaigne: “Essais”. – Paris, 1988. – 21-p.

Adib ijodida “affection” otining gapda qo‘llanilishi quyidagi qurshovlarda kuzatiladi: pronom+nom, adjectif+nom, adverb+nom kabilar. Oila va farzand tarbiyasidagi fazilatni ko‘rsatuvchi tuyg‘u bu mehrdir. Mehribonlik, asosan, Mishel Montenda bog‘lanish, ta’sirchan moyillikni ifodalaydi. Xususan, otalarning bolalarga bo‘lgan mehri, erning xotinga mehri, ayolga, vatanga, podshohga, do‘stga yoki o‘z-o‘ziga mehri haqida hikoya qiladi. Haqiqiy mehr yaxshi tartibga solingan bo‘lib, bilim bilan oshirib borilishi tufayli olingan bilimlarni farzandlar bizlarga qaytarishlari lozim, deya ta’kidlaydi.

Biz tabiatga oddiy o‘z-o‘zini boshqarishni berishimiz kerak, lekin biz uni zolimona tarzda o‘zimiz bilan olib ketishimizga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak; yagona sabab bizning moyilliklarimizni boshqarishdir. Ammo baribir biz ota-ona mehrini instinkt deb bilamiz, bu – hech qayerda o‘z me’yoriy qiymatiga ega bo‘lmagan tuyg‘udir.

“Affection” (mehr) leksemasi kengroq tushuncha bo‘lib, begonalikni berkituvchi bog‘liqlikdan biz g‘ururlansakkina, u paydo bo‘ladi, deydi Monten. Aftidan, hamma o‘rinlarda Monten emotsional harakatni o‘zidan uzoqroq tutadi. Shuningdek, hatto ota-onasiga nisbatan muhabbatida ham gipoteza orqali tabiiy qonunni ko‘rib chiqishga urinadi¹⁸⁵. U tanqidiy ongning huquqlarini talab qiladi, bu holatni tahlil qilish bilan bir qatorda uning me’yoriy qiymatini ham tasdiqlaydi.

Bu yerda gap tabiiy bog‘lanishni yo‘q qilish emas, balki uning tarkibidagi qarorni o‘zgartirish bilan kurashishdir. Bu haqda yana shunday fikrni ham bildiradi: “*Une vraye affection et bien réglée devroit naistre et s’augmenter avec la connoissance qu’ils nous donnent*¹⁸⁶.” – Bizning bolalarimiz haqiqiy mehrga to‘yib, o‘z oilasida o‘sishi va mehrni olib keyin biz–ota-onalarga qaytarishlari zarur; shu sababdan bog‘lanishni buzmaslik emas, balki doimiy bog‘lanish shart bo‘lishi kerakligi haqida aytadi. Qaysidir ma’noda, xuddi shu holat barcha muammolarga tegishli bo‘lib qoladi. Shuningdek, er-xotin munosabatlari mehr bilan bog‘liq munosabatlardan farq qiladi, chunki kuchli va sog‘lom bo‘lish uchun u sevgidan tashqari boshqa asoslarda ham bo‘lishi kerak. Ular nikoh istisno holatda ehtirosli sevgi shartlari va o‘zaro nikohga asoslangan bo‘lsa, u qancha davom etishini bilmaydi, odamlarning tanlovi uchun zarur bo‘lgan juda ko‘p ijtimoiy bog‘liqliklar mavjud¹⁸⁷. Bu, aksincha, nikoh munosabatlari bog‘lanmagan degani emas. Montenga

¹⁸⁵ Ўша манба. –386-р.

¹⁸⁶ Ўша манба. –387-р.

¹⁸⁷ Compagnon A. Nous, Michel de Montaigne. – Paris, 1980. – 7-16-p.

ko‘ra, yaxshi nikoh, hamdardlikni rad etadi va sevgi asoslariga tayanadi, do‘stlikni ifodalaydi. Sevgimi yoki nikohmi, bog‘lanish yaxshi, faqat u qancha muddat davom etishini bilmaslikni Monten ham tan oladi. Bu “*philautia*”dan uzoqda bo‘lgan tuyg‘u nafaqat axloqiy, balki uning oqibatlari hali ham nazariy, shuning uchun u o‘zini obyektivlashtirishga imkon beradi.

Bu xususda Monten shunday yozadi: “*Je ne m’ayme pas si indiscretement et ne suis si attaché et meslé à moy, que je ne me puisse distinguer et considerer à quartier*”: *comme un voisin, comme un arbre*”. Mazkur etik holatga Monten ikkinchi kitobning “*De la ressemblance des enfans aux pères*¹⁸⁸” bobida batafsil to‘xtalib o‘tgan. U tibbiyot tanqidida asar yozilgungacha bo‘lgan davr tibbiyotining holatini tavsiflaydi. Ushbu bobda bolalarga bo‘lgan mehr tilga olinib, tibbiyotga nisbatan tabiiy g‘ashlik va dori-darmonlarni yoqtirmaslik fikrlari keyin paydo bo‘ladi. Aynan o‘sha bobda muallifning shaxsiy holatidan kelib chiqib ifodalangan qarashlari qog‘ozga tushirilgan. Montenda ushbu so‘zni ishlatishda ikkita ijobiy maqsad aniqlandi, birinchidan, qalbning har qanday ratsionalizatsiya shakliga qaytarilmasligini tasdiqlash. Bunda qalb har qanday metafizikadan tashqari, bizning mavjudligimizning eng samimiy qismini anglatadi, uning o‘zgaruvchan va qarama-qarshi tabiatini xarakterlarning har qanday oqilona qisqarishiga harakatchan va ziddiyatli bo‘lib qolishdan qochadi.

Période de la vie humaine qui va de la naissance à l’adolescence ifodasidagi *enfance* (n.f.) leksemasining bolalik, bolalik yillari kabi ma‘nolari mavjud asardagi qo‘llanish chastotasi 64. Dastlab lotin tilidan olingan ushbu so‘z *infantia* “*bas âge; les enfants; la jeunesse*” 1120–50 yillarda “*première période de la vie humaine*”, 1667-yilda jamlovchi ot “*les enfants*” shaklida ham qo‘llanilgan. Shuningdek, *première enfance, tendre enfance, discipline de l’enfance, les amours de son enfance, singeries de son enfance, la naïveté de l’enfance, quelque enfance, voisin de l’enfance, les gouverneurs de l’enfance* qurshovida asar matnida qo‘llanilgan. Aytish mumkinki, *tendre enfance*, adjective+nom bilan so‘z birikmasi hosil qilib, *tendre* – mayin, nozik, nazokatli, muloyim, barra, yumshoq, mehrlil ma‘nolaridan *enfance* oti bilan birga shirin bolalik, degan mazmunni bermoqda.

Enfant(s) (n.n.) leksemasi farzand, bola ma‘nolarida asarda 371 marta birlik va ko‘plik shakllarida qo‘llangan. Morfologik jihatdan *jeunes*

¹⁸⁸ Ўша маъба. – 942-р.

enfants (adj+nom), *communiquer aux enfants* (verbe+préposition+nom), *exercer des enfants*, *se jouant avec ses enfants*, *obéir à un enfant*, *l'instruction à leurs enfants* (nom+préposition+pronom+nom), *ses enfants* (pronom+nom) qurshovida qo'llangan. Asarda Monten o'zi va oilaviy avlodlari haqida aytib o'tadi. Montendan oldin go'dakligida vafot etgan ikkita boladan tashqari (u aka-ukalarning eng kattasi bo'lgan), Pyer Eyquemning "*tous d'une mère*" – barchasi bir onadan sakkiz farzand dunyoga kelganligi haqida yozib qoldirgan. 1565-yil sentyabr oyida Mariga uylangach Monten ketma-ket oltita qiz farzand ko'radi, ammo ulardan faqat bittasigina tirik qoladi.

Asarda Monten farzandlari haqida gapirganda beparvodek ko'rinadi: "*J'en ai perdu, mais en nourrice, deux ou trois, sinon sans regret, au moins sans fâcherie*", "*ils meurent tous en nourrice*" – ya'ni ular chaqaloq vaqtida vafot etdilar, deya aytadi. Yolg'iz qizi Leonorning ulg'ayishini kuzatsa, unga olti yoshga to'lgungacha faqat yumshoq so'zlar bilan murojaat qilingan. Monten farzand tarbiyasiga rafiqasini yuzlantiradi: "*je ne m'empêche aucunement de ce gouvernement: la police féminine a un train mystérieux, il faut le leur quitter*" – men bu boshqaruvga halaqit bermadim, ayol kishi sirli band bo'lib shug'ullanadilar, ularga buni qo'yib berish kerak, deya ta'kidlaydi.

Asarda farzand tarbiyasidagi fikrlar, asosan, "*Du pédantisme*" (I.25), "*De l'institution des enfants*" (I.26), shuningdek, "*De l'affection des pères aux enfants*" (II.8) boblarini qamrab olgan. Oxirgi bobda Monten onalarning farzand tarbiyasidagi o'rnini qoralaydi. "*Affection naturelle*" – tabiiy mehr, ko'pincha, onaning qarov bolani qandaydir "*inique et fantastique*" – g'ayritabiiy va nohaq afzal ko'rishiga olib keladi, tartibsiz ishtaha va kasallikka moyillik ularning homiladorlik paytida paydo bo'ladi va bu hamma vaqt ularning qalbida mavjud bo'ladi; odatda, biz ularning zaif holatda bo'yinga osilganlariga berilib ketayotganini ko'ramiz, degan fikrni bildiradi. Qo'shimcha tarzda hayvonlar harakatini kichkintoyini faqatgina elinini tortqilaganda tanishini misol tariqasida keltirib o'tadi: "*qui n'ont connaissance de leurs petits, que pendant qu'ils tiennent à leur mamelle*¹⁸⁹".

Monten "*meilleur père qui fut onques*" – dunyodagi eng yaxshi ota unvoniga sazovor bo'ldi, har doimgidek yosh bolalarga hurmat va ota-onalik martabasini zabt etgan¹⁹⁰. Monten fikricha, "*enfant de maison*" –

¹⁸⁹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965.– 399-p.

¹⁹⁰ Ўша манба. – 400-р.

uy bolasini tarbiyalash haqidagi g‘oyalarga e‘tibor berilsa, ular ham ko‘p jihatdan bolalik davridagi o‘z tajribasi va his-tuyg‘ulariga asoslanganligi ma‘lum bo‘ladi: “*sévère douceur*¹⁹¹” – qattiqqo‘l yumshoqlikni, “*tendresse*” – mehrni hisobga oladi, bola buni e‘tibor obyekti deb bilmagan, u bilan o‘ynaganda, bola – podshoh deya munosabatda bo‘ladi, bu xato “*grandeur*” – buyuklik aslida ular uchun “*incommode*¹⁹²” – noqulayliklarga ko‘nikishdir, deydi muallif.

Shuningdek, ijodkorning qarashlarida farzand tarbiyasida nafaqat ota-ona, balki ustozning ham o‘rni va mavqei masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Hatto ba‘zi murabbiylarning bolalarda fanga nisbatan qiziqish tug‘dirish o‘rniga, ularda do‘q va po‘pisa bilan qilingan murojaatini qorolaydi. Zo‘ravonlik va kuch ishlatishdan voz kechish lozimligini, buning natijasida bolalarda xulqning buzilishi mumkinligini, o‘quvchini uyat va jazodan qo‘rqishini istasak, ularni loqayd bo‘lmaslikka o‘rgatish, bolani sovuqqa, shamolga, quyoshga, nafratlanishi lozim bo‘lgan salbiy jihatlarga chiniqtirishni o‘z asarida atroflicha yoritib beradi.

3.2. Asarda “fazilat” ta‘rifidagi leksemalarning berilishi

Til nafaqat inson dunyosi va uning madaniyatini aks ettiradi, balki til egalari madaniyatini o‘zida saqlash, uni avloddan avlodga yetkazish vazifasini ham bajaradi¹⁹³. Til millatning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ona tilida so‘zlashuvchining milliy madaniyati haqida ma‘lumot manbai hisoblanadi. Til va madaniyat o‘zaro ta‘sirining ko‘p qirraligi butun insoniyat uchun umumiy tushunchalarning lingvistik ifodada o‘ziga xos milliy komponentning hosil bo‘lishiga olib keladi.

A.P.Babushkinning fikriga ko‘ra, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar, ko‘pincha, madaniy nomuvofiqlik faktlari bilan, boshqa til bilan taqqoslanganda olingan muayyan tilning “semantik xaritasi”dagi bo‘shliqlarni aniqlash bilan bog‘liq.

So‘nggi yillarda tizimni tashkil etishning universal qonuniyatlarini va uning madaniy xususiyatlarini o‘rnatish uchun lingvistik semantikasi qiyosiy o‘rganishga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Taqqoslashning

¹⁹¹ Ўша манба. –1 65-р.

¹⁹² Ўша манба. –918-р.

¹⁹³ Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish, Toshkent-2007, -4 b.

indikativligi, asosan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tushunchani tanlash bilan bog'liq¹⁹⁴.

Tushuncha turlaridan biri mavhum tushunchalar – aniq voqelikdan mavhumlashgan umumlashgan semantik xususiyatlardan olingan tushunchalardir. Bunday tushunchalarni faqat so'z, tavsif bilan aniqlash mumkin; ularning orqasida abadiy referent yo'q. Bunday tushunchalar (sabab, maqsad, vijdon, or-nomus, xiyonat, sadoqat, mas'uliyat, foyda va boshqalar), odatda, o'quv va ma'lumot beruvchi adabiyotlarda batafsil sharhlanadi.

Ekstralingvistik dunyoda “moddiy referent”ning yo'qligi bunday tushunchalarni aniqlash va talqin qilishni murakkablashtiradi, ularni juda erkin talqin qilish imkonini beradi¹⁹⁵. S.G.Vorkachevning ta'kidlashicha, chet tilida tushunchaning leksik analoqlari nihoyatda ko'p, bu holat uning ta'riflanish xususiyatlari bilan bog'liqdir. Barcha dolzarb etnik-madaniy ma'lumotlar – lingvistik shaxsning o'ziga xos dunyoqarashi tasvirlari to'plami – muayyan etnik tilning “til doirasi”dan tashqariga chiqmaydi¹⁹⁶.

Shuningdek, ushbu qismda “fazilat” ta'rifidagi *vertu, beauté, bonheur, courage, croyance, curiosité, foi, force, honnête – honnêteté, honneur, justice, générosité, mœurs* kabi leksemalarning “Tajribalari” asaridagi xususiyatlari semantik va vazifaviy ko'lami jihatidan berilishi talqin qilinadi.

1. *Disposition spirituelle à agir avec persévérance en accord avec la loi divine;*

2. *Disposition particulière pour tel devoir, telle bonne action* ifodalaridagi “*vertu*” (n.f.) leksemasining o'zbek tilidagi tarjima ma'nolari quyidagicha:

1. Yaxshi fazilat, xislat, layoqat, xosiyat, odamgarchilik, ezgu ish; saxovat, himmat; fidokorlik.

2. Jasorat, botirlik, mardlik.

Ushbu so'zning qo'llanilish chastotasi asarda 360. Mishel Monten asarlarida “*vertu*” (fazilat) so'zi “*vérité*” (haqiqat) so'ziga nisbatan ko'proq uchraydi. Ijodkor tomonidan fazilat tushunchasini ifodalovchi so'zlar ma'nosiga aynan o'z asarida urg'u berilishi uning inson va shaxs takomilida alohida, muhim o'rin egallashidan dalolat beradi. Monten asarida fazilat so'zining “qobiliyat” yoki “xos xislat” ma'nosida qo'llanishi ham ushbu tushuncha doirasiga alohida e'tibor qaratilgan.

¹⁹⁴ Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка, их личностная и национальная специфика: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Воронеж, 1998.–10-с.

¹⁹⁵ Колесов В.В. Жизнь происходит от слова. – СПб: Златоуст, 1999. –58-с.

¹⁹⁶ Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт. – Москва, 2004. –88-с.

Shuningdek, leksik muvofiqlikning xilma-xil misollari axloqiy va oqilona baholashdagi ifodalovchi birliklar guruhlarida kuzatildi:

1. **Fikrni baholashda:** *simple, affaireuse, naturelle, nette, militaire, ferme, nouvelle, chère, sotté, superstitieuse, philosophique;*

2. **Axloqni baholashda:** *rare, naïfe, délicateuse, courageuse, vraye, humaine, gaillarde, noble, généreuse, sincère, lâche, catarreuse;*

3. **Hissiy jihatni baholashda:** *trionphante, amoureuse, sauvage, excessive, novice, morne, sombre;*

4. **Estetik jihatni baholashda:** *notable, verte, belle, eslevée, parfaite, singulière;*

5. **Tashqi ko‘rinishni baholashda:** *semblable, excellente, suprême, entière, éminente, commune, royale, superbe.*

Xilma-xil baholash turlari o‘rtasida aniq chiziq chizish qiyin va ma’nolarni kontekstual amalga oshirishga asoslangan tasnif subyektivlikdan mahrum emas, albatta. Dalil sifatida sifat turli xil semantikadagi otlarga osongina moslashib, turli xil ma’nolarni o‘zgartirishga imkon berishini, denotatning yadrosini belgilashdan yadro bilan bog‘liq jihatlarni belgilashga o‘tish tobora ko‘proq bilvosita bo‘lishini, sifatlar ikkilamchi ma’nolarga ega ekanligini, ular tobora xilma-xil obyektlar va hodisalarga nomlari bilan so‘z birikmasi hosil qilib, semantik foydalanish sohasini shakllantirishini keltirish mumkin.

Aytish joizki, “fazilat” so‘zining “qobiliyat” yoki “xos xislat” ma’nosida qo‘llanishi hisobga olinsa, fazilat masalasiga alohida e’tibor berilgani reallashadi. Birinchi kitobning 27-bobi “*C’est folie de rapporter le vrai et le faux à notre suffisance*” qismida “*les yeux ont une vertu ejaculatrice*¹⁹⁷” – ko‘zlarda ko‘rish fazilati bor, degan tavsif keltiriladi. XVI-asrda axloqning burch tushunchasiga nisbatan emas, balki inson fazilatida aks etishi “*Tajribalari*” asarida ko‘rinadi. U fazilatni an’anaviy qabul qilishda qalb holati “*hexis*”, “*habitus*” tomonidan vaqt o‘tishi bilan qo‘lga kiritilgan muvofiq takroriy ratsional tanlovlar “*droite raison*” (*orthos logos, recta ratio*), ya’ni “oqilona sabab”ning farovonligiga erishishga intiladi¹⁹⁸.

Monten o‘sha davr klassik ta’rifini saqlab qoladi, o‘zini to‘liq jasorat bilan namoyon qiladi, shunday qilib, “*saillies*”, ya’ni “kutilmagan aql” imo-ishoralardan tashqari, ezgu fazilat yaratish uchun yetarli emas, deb

¹⁹⁷ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965.-87.

¹⁹⁸ Lebrun F. La Vie conjugale sous l’Ancien Régime. – Paris, 1975. –77-100-p.

ikkinchi kitobning 29-bobidagi “*De la vertu*” – “Fazilat to‘g‘risida” qismida yoritadi.

Qualité de quelqu’un, de quelque chose qui est beau, conforme à un idéal esthétique ifodasidagi “*beauté*” (n.f.) go‘zallik ma’nosini ifodalovchi leksema asar tarkibida 157 marta birlik va ko‘plik shakllarida qo‘llangan, quyidagi qurshovlarda ishtirok etib, denotativ ma’nosini namoyon qilgan: *pronom+nom, déterminative+nom, préposition+nom, nom+adjectif, nom+déterminative+nom*.

Etimologik jihatdan bu lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib *bellitas, bellus, beau, bel* sifatiga *-té (é, -ité)* qo‘shimchasi qo‘shilib ot shakli yasalgan. Sifat ma’nosini beruvchi *beau* (mujskoy rod, chiroyli) so‘zining “*Tajribalari*” asarida birlik shakldagi qo‘llanish chastotasi 99 ta, *beaux* (mujassal rod ko‘plik shakl) qo‘llanish chastotasi 30 tani tashkil etgan. Ushbu so‘zning jenskiy rod shakli *belledan* 170 marta, *belles* ko‘plik shaklidan 100 marta ishlatilgan. Va quyidagi qurshovlarda *adverbe+adjectif (natures belles), déterminative+adjectif, adjectif+nom, pronom+adjectif, verbe+adjectif* namoyon bo‘lgani kuzatildi.

Monten “*Tajribalari*” asarida “Go‘zallik” haqida aynan yozmagan, biroq uchinchi kitob “*De la physionomie*” 12-bobida mavzu aynan shu haqda borganligi tadqiqot jarayonida aniqlandi. Go‘zallik to‘g‘risidagi savollar har doim ham uning xayolini band etmagan, ammo Monten asarida baxt, shon-shuhrat va fazilatdan ilhomlangandek go‘zallik haqida “*la gentillesse et la beauté me remplissent et occupent*¹⁹⁹” – chiroylilik va go‘zallik meni to‘ldiradi va band qiladi, deydi.

Boshqa hech bir tushuncha Monten tajribasida sezgirligi va madaniyatining estetik tajribasi bilan bizning zamonaviy vaziyatimiz, barcha estetik tajribalar, his-tuyg‘ular va madaniyatlarga ega bo‘lgan postmodern vaziyati o‘rtasidagi almashtirib bo‘lmaydigan tafovutni yaxshi tasvirlab bera olmaydi²⁰⁰, deydi Girod.

Go‘zallik haqida so‘z borganda “*Tajribalari*” asarida san’at haqidagi qarashlar kam bo‘lsa-da, Monten o‘z tadqiqotida to‘plagan “*beauté d’une tapisserie*²⁰¹” – gul qog‘oz san’ati yoki “*des objets des Indiens*” – hind buyumlari bilan bog‘liq bo‘lsa-da, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va kuchli izohlar, haqiqatan ham, tashqi ko‘rinishi, ijtimoiy ahamiyati “*grâce et beauté*²⁰²” – xush ko‘rish va go‘zallik, ayniqsa, “*de grande recommandation au*

¹⁹⁹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965.819.

²⁰⁰ Guiraud P. La sémantique. – Paris: PUF, 1962. – 80-86-p.

²⁰¹ Ўша манба. –155-p.

²⁰² Ўша манба. – 49-p.

*commerce des hommes*²⁰³” – odamlar savdosi uchun katta ahamiyatga ega, tashqi ko‘rinish bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababdan “*beauté*” – go‘zallik o‘tkinchi va aldamchi, shuningdek, xatolarning bekasi ham, deya ta’kidlangan.

Montenning “*physionomie*” – ko‘rinish, qiyofa haqidagi bilimi o‘sha paytda inson haqidagi haqiqiy bilim sifatida tushunilgan.

Monten esa mutlaq go‘zallikdan xabardor; bu esa uni yolg‘iz xudoga yaxshilik va qudrat bilan birlashtiradi²⁰⁴. Inson, o‘z navbatida, “*en disette de beauté*” – go‘zallikdan mahrumdir²⁰⁵. U, albatta, “*la Nature*” – tabiatda, “*le mouvement des corps célestes*” – samoviy jismlarning harakatida, “*l’éclat du soleil*” – quyosh nurida uning sezgisiga ega, u joy va vaqtga qarab o‘zgarib turadigan son-sanoqsiz shakllarni biladi. Ular insonda o‘tkinchi holatlar, unda og‘riqli istakni uyg‘otadigan chaqnashlar, sog‘inch va g‘azab yo‘sinda erishish mumkin bo‘lgan mutlaq sezgini taklif qiladi²⁰⁶, deydi faylasuf.

“Tajribalari” asarining maqsadi kishida estetik tarbiya paydo qilish, “*belle vie*” – yaxshi hayot qurish, yaxshilik bilan hamohang hayot sifatida ko‘rilgan asar ham ko‘makchi, ham aks ettiruvchi sanaladi. E.Faure Montenning “*attitude esthétique*”, ya’ni estetik munosabatni hayoti davomida olganini ta’kidlaydi²⁰⁷. Fikrimizcha, Monten bu hayotni vizual nuqtai nazardan emas, balki musiqada zabt etilganligiga monand yoki dunyo go‘zalligiga mos ravishda qayta kashf etilgan uyg‘unlik sifatida tasvirlashi bejiz emas.

Circonstance favorable ifodasidagi “bonheur” (n.m.) leksemasining birinchi ma’nosi – baxt, saodat, omad; ikkinchi ma’nosi – huzur-halovat, eson-omonlik tarzida o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. Dastlabki bosqichlarida ushbu baxt ma’nosini ifodalovchi leksema *bon* – “yaxshi”, *heur* – “mahal, payt” sifatida alohida ajratilib, Rablening “*Gargantua*” asarida 1534-yilda ishlatilgan. Keyinchalik so‘z birikmasi shaklida bugungi zamonaviy fransuz tilida “*bonheur*” tarzida qo‘llanilmoqda. Monten ushbu so‘zdan asarining 42 o‘rnida foydalangan. “*Bonheur*” leksemasi adib ijodida *pronom+nom*, *préposition+nom*, *déterminative+nom*, *adjectif+nom* kabi qurshovlarda ishtirok etadi.

“*Tajribalar*” asari, ko‘pincha, amaliy falsafiy qo‘llanma sifatida ko‘rinadi, *art d’être heureux* – “baxtli bo‘lish san’ati” nekbinlik

²⁰³ Ўша манба. – 639-640-р.

²⁰⁴ Ўша манба. – 444-523-р.

²⁰⁵ Ўша манба. – 639-618-р.

²⁰⁶ Ўша манба. – 206,450,514-р.

²⁰⁷ Faure E. Montaigne. – Paris, 1923. – 29-р.

sabog‘ini, hatto *jouir* – “zavq olish” san‘atini taklif qiladi. “*Qu’il ne faut juger de nostre heur, qu’après la mort*²⁰⁸” sarlavhali bobida “*bonheur beatitudo*” leksemasidan ko‘ra “*felicitas*”, Monten manbalariga ko‘ra, salbiy jihatni namoyon qiladi, unga faqat o‘limgina amal qilish muddatini bera oladi²⁰⁹, deya ta’kidlaydi. Inson harakati va uning yakuni, xuddi “*bien vivre*” – yaxshi yashash yoki o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish sifatida, bu dunyo tartibida baxt va uning injiqliklari, to‘g‘rirog‘i, uning kinoyasi, an’anaviy ravishda Montenga juda mos keladi. “*Tajribalari*” asari taqdir burilishlaridagi misollari bilan boyitilgan. Inson undan foyda, omad, baxtli qoniqish hissini olishi mumkin.

“*Bonheur*” lisoniy birligining semantik ma’nosini aniqlashtirish maqsadida Monten shunday deydi: “*d’une bonne fortune à laquelle s’identifie un ‘bon’ heur; il connaît le succès d’une entreprise hasardeuse*²¹⁰.” Aytish mumkinki, Monten uchun, haqiqatan ham, burch bor edi, baxtiyor bo‘lish burchi, “*bonheur*” talqiniga ko‘ra, bu mantiqqa to‘g‘ri kelmas, azob-uqubatlarni yengish baxtsizliklar orasida insoniy holatning falsafiy anglanishi sifatida qaraladi²¹¹. U faylasufning huzur-halovat uchun emas, balki baxt haqida aytgan minnatdorchiligi bilan birlashadi; u yaratuvchi bergan ne’matlari uchun muvaffaqiyatli hayot kechirishi, eng avvalo, oxirigacha yashashiga imkon bergani uchun tahsinga sazovor, deb hisoblaydi.

“*Bonheur*” – baxt, inson nazorat qila olmaydigan vaqtinchalik muvaffaqiyat na savob, na fazilat natijasidir; faqat uning o‘tkinchiligini anglab, vaqtida zavqlanmoq lozim²¹², deydi ijodkor. Uning bu fikri quyidagi jumlada ham davom etadi: “*Gaudeat de bona fortuna qu’il jouisse de ce bon heur*²¹³” – yaxshi damdan huzurlanishadi. Monten, shuningdek, birinchi kitobning “*De la solitude*” 39-bobida Iskandarning “*bonheur*” – baxtini xotirlaydi. Bu o‘rinda aytadiki, shohlarning aqlga mos kelmaydigan huzur-halovati qayerda? Kim baxtning sharofatidan naf ko‘radi? Kim undan zavq olishni bilmaydi? “*C’est le jouir non le posséder, qui nous rend heureux*” – unga egalik qilmasdan zavqlanish, bu bizga xursandchilik bag‘ishlaydi²¹⁴, deydi. Ammo “*la bonne fortune est*

²⁰⁸ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. -68.

²⁰⁹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. 174-175.

²¹⁰ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. 216-755.

²¹¹ Conche M. Montaigne ou la conscience heureuse. – Paris, 1964. – 107 p.

²¹² Ўша манба 6.90.

²¹³ Ўша манба. – 564-р.

²¹⁴ Ўша манба. – 263-р.

aussi une illusion qu'accentuent d'heureux commencements appelés à mal tourner” – baxt va baxtsizlik o‘zgaruvchanlik jarayonidir. Zero, Monten uchun burilishlar oldindan aytib bo‘lmaydigan murakkab jarayonni tashkil qiladi: qayerda yomonlik bo‘lsa, har doim ham darhol yaxshilikka, yaxshilik esa yomonlikka o‘z o‘rnini bo‘shatib bermaydi²¹⁵.

XVI-asr fransuz tilida “*bonheur*” leksemasining bir nechta sememalari mavjud: *bonne fortune, chance, prospérité, veine* kabi. Lekin bu so‘z, shuningdek, xavf, baxtsiz hodisa, sarguzasht, kishi taqdirida boylikni ham anglatib²¹⁶, mutafakkir ijodida quyidagi lisoniy birliklar, jumladan: “*hazard*” o‘rnida 55, “*heur*” o‘rnida 27, “*malheur*” o‘rnida 39, “*accident*” o‘rnida 60, “*dieux*” o‘rnida 120 marta almashtirib qo‘llaydi. Shu bilan birga, u o‘xshash ma’noga ega bo‘lgan ba’zi leksemalardan ko‘ra, “*fortune*” leksemasiga ustunlik berib, “*destin*” so‘zi o‘rnida 2, “*destinée*” o‘rnida 10, “*chance*” o‘rnida 3, “*Providence*” o‘rnida 6 marta “*fortune*” leksemasini ishlatadi.

Fermeté, force de caractère qui permet d'affronter le danger, la souffrance, les revers, les circonstances difficiles ifodasidagi “*courage*” (n.m.) leksemasi botirlik, jasurlik, mardlik, dovyuraklik, jasorat, dadillik, qahramonlik, mardonavorlik, tetiklik, bardamlik, baquvvatlik kabi ma’nolarni ifodalovchi birliklarga ekvivalentdir. Ushbu lisoniy birlikning asardagi qo‘llanilish chastotasi 78 bo‘lib, *verbe+nom, déterminative+nom, pronom+nom, adverbe+nom, nom+verbe, nom+déterminative+nom* kabi qurshovlarda ishtirok etadi.

“*Tajribalar*” asari jasoratning haqiqiy namunasi, “*courage*” so‘zi umumiy ma’noda – qalb fazilatlarini, “*braverie et la constance*” – mardlik va qat’iyatni tarannum etgan. Kitob “*trois gentilshommes François, qui d’une hardiesse incroyable soustenoyent seuls l’effort*²¹⁷” – g‘olib armiya sa’y-harakatlariga aql bovar qilmaydigan jasorat bilan qarshilik ko‘rsatgan uchta fransuz janoblarning “*armée victorieuse*” – g‘olib qo‘shin jasorati bilan boshlanadi. Monten o‘sha bobda Denis Tirant tomonidan ruhan ko‘tarilgan, azob-uqubatlarda “*courage tousjours constant*” – o‘zgarmas jasoratni saqlab qolishga qodir bo‘lgan “*grand homme de bien*²¹⁸” – buyuk yigit, Regiusning himoyachisi Fiton misolida tasvirlagan. Monten bu fazilatni, to‘g‘rirog‘i, erkaklik fazilatlarini

²¹⁵ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –230-235-p.

²¹⁶ Villey P. Les Sources et evolution des Essais de Montaigne. – Paris, 1933. – 491-504-p.

²¹⁷ Ўша манба 17 p.

²¹⁸ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. 220-p.

yig'indisini maqtaydi va shunga o'xshash qahramonlik misollarini keltiradi, lekin amalda sinab ko'rishdan ham chekinmaydi. *“Dans un premier temps, il lie étroitement dans une même série vertu, vaillance, force, magnanimité²¹⁹.”* Birinchidan, u *“vertu, vaillance, force, magnanimité”* – “fazilat, jasorat, kuch, saxovat”ni bir qatorda chambarchas bog'laydi, u tushunchalarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan *“biais”* jihatlariga oydinlik kiritadi: *“la vaillance, c'est la fermeté, non pas des jambes et des bras, mais du courage et de l'âme²²⁰”* – jasorat oyoq, qo'l emas, balki qalb mustahkamligi ekanligini aytadi. Shunday qilib, asarda jasorat leksemasi kishining fe'l-atvori, hatto o'rnak va ta'lim bilan mustahkamlangan temperament, qahramonga mard bo'lish imkonini beradigan, ya'ni azob yoki o'limdan qo'rqmasdan g'alaba qozonishga undagan fazilat ta'rifidagi so'z ekani aniqlandi.

1. *Fait de croire à l'existence de quelqu'un ou de quelque chose, à la vérité d'une doctrine, d'une thèse*

2. *Ce qu'on croit ; opinion professée en matière religieuse, philosophique, politique*

ifodalaridagi “croyance” (n.m.) leksemasi:

1. Ishonch, e'tiqod, bovar; ishonish.

2. Din, mazhab, maslak

kabi ma'nolarda o'zbek tiliga tarjima qilinadi. O'rta asrlarda *credentia, credere* nomemasi asosida lotin tilidan qadimgi fransuz tiliga *creance* shaklida kirib kelgan. Monten *“Tajribalari”* asarida 99 marta *croyance* otining birlik va ko'plik shakllaridan foydalangan. Fe'l shaklida *croire* leksemasini qo'llagan, shuningdek, *ramenés à la croyance, altérer notre croyance, appuyer leur croyance* kabi harakat fe'llari bilan ham ifoda etgan.

Ko'p hollarda asar matnida *notre croyance* (pronom+nom), *noble croyance, nouvelle croyance, ancienne croyance* (adjectif+nom), *vérité de sa croyance, pièces de sa croyance* (nom+préposition+pronom+nom), *manier aux croyances, hors de croyance* (nom+préposition+nom) qurshovidan foydalanish kuzatiladi.

Adibning ishonch haqidagi fikrlari – ishonganingizni bilmaslik, balki bilganga ishonishdan iborat. Inson qanchalik ko'p e'tibor bermasa, u shunchalik o'sib boraveradi: *“il n'est rien creu si fermement que ce qu'on sçait le moins²²¹”* – hech narsaga eng kam bilmagan narsa kabi qattiq

²¹⁹ Ўша манба. – 56-р.

²²⁰ Ўша манба. – 211-р.

²²¹ Ўша манба. – 215-р.

ishonilmaydi, deydi faylasuf. Biroq iymon nafaqat johil, xurofotli odamlarga ta'sir qiladi, balki u hali ham illyuziyaga botgan bilimdon odamda yashaydi, deya ta'kidlaydi. Agar *“les enfans, le vulgaire, les femmes et les malades sont plus subjects à ester menez par les oreilles²²²”* – ya'ni bolalar, johillar, ayollar va kasallar ko'proq quloq bilan yuradi, degan gap rost bo'lsa, iymon qanchalik kuchli bo'lsa, qalbdagi qarshilik shunchalik kam bo'lishi, shuningdek, ta'limotlarning o'zi ishonishi va jamoatning ishonchsizligidan ularning ishonchi kuchayishini ta'kidlaydi²²³. Fikrimizcha, e'tiqod o'ziga xos ratsional jismlarga taalluqli bo'lmagan holda, o'ziga qarshi zaharlarni keltirib chiqaradi, biroq tafakkur o'z e'tiqodiga oid ishida to'xtovsiz davom etadi.

Qualité de quelqu'un qui a le désir de connaître, de savoir ifodasidagi “curiosité” (n.f.) leksemasi sinchkovlik, har narsani bilishga intilish, qiziqish, bilimga intilish kabi tarjimalarga ega. Asarda so'zning qo'llanilish chastotasi 38. Ushbu leksemaning etimoni lotin tilidan olingan bo'lib, *curiositas* – “désir de connaître” ma'nosida fransuz tiliga kirib kelgan.

Shuningdek, quyidagi so'z birikmalarida qo'llangan: *la curiosité de connaître* (nom+préposition+nom), *la forcenée curiosité* (nom+nom), *une honnête curiosité*, *manque de curiosité*, *le propos de la curiosité*, *contraire à la curiosité*, *tumultuaire curiosité*, *singulière curiosité*, *matière à sa curiosité*, *maladive curiosité*, *la naturelle curiosité*, *extrême curiosité*, *pareille curiosité*, *quelque curiosité* (adjectif+nom), *amuser la curiosité* (verbe+nom).

Uyg'onish davridagi “curiosité” (“qiziqish”) so'zining ma'no ko'lami keng: bu oddiy psixologik, kulgili nuqson bo'lib, odamni va, ayniqsa, boshqa odamlarning sirlarini yashirmay yoyishga undash ma'nolariga ega. Monten *curiosité* so'zini qiziqish obyektini ma'nosida qo'llagan: bu ma'noda qiziqishning haqiqiy obyektini o'zi bo'lgan: *“Je n'ay veu monstre et miracle au monde plus expres que moy-mesme²²⁴”* – “Men dunyoda o'zimdanda ko'ra ko'proq maxluq va ajoyibotlarni ko'rmaganman.”

Qiziqish asl yovuzlikdir: biz gunohkor holat izmidamiz. Ammo bu tabiiy yovuzlik: buyuk onamiz – tabiatdan bizga kelgan sovg'ani rad

²²² Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. – 9-p.

²²³ Ўша манба. – 178-р.

²²⁴ Ўша манба. –1029-р.

etishimiz kerakmi? Qiziqish bizni xafa qiladi, u daholarni aqlidan ozdiradi, deydi Monten²²⁵.

“Foi” (n.f.) leksemasi:

1. Ishonch, e’tiqod.
2. Sodiqlik, vafo, to‘g‘rilik, rostlik, ishonchlilik, qat’iylik.
3. Ishonch, ishonish.

Asarda biz ularning uchtasini diniy fazilatlarni ifodalovchi atamalar sifatida kuzatamiz. Bu fazilatlar orqali Monten o‘zining xristianlik maqomini anglaydi²²⁶. Asarda “*foi*” lisoniy birligi o‘rnida “*charité*” sememasi “rahm, shafqat, marhamat” ma’nosida 6 marta qo‘llangan. *Injil* so‘zini eslab, lekin undan ajralib turishi uchun uni “*vengéance*” – qasos istagi uchun antonim sifatida ishlatgan.

Shuningdek, u masihiylarning bu fazilatni amalda qo‘llashini kulgi ostiga oladi: bu fazilat, qoida tariqasida, ulardan xalos bo‘lishi kerak: “*Sont-ils si justes, si charitables, si bons? ils sont donc chrétiens*²²⁷” – ular shunchalik solih, marhamatli, yaxshimi? Zero, ular xristianlardir, deya *foi* leksemasini sodiq ma’nosida ishlatgan.

Bundan tashqari, *foi* so‘zini “*espérance*” – umid, ishonch ma’nosida, ko‘pincha, baxtli ertangi kunni kutish haqidagi umumiy tushunchada fe’l bilan qo‘llanishlardan tashqari 59 o‘rinda ishlatgan. Bu so‘zga antonim sifatida *crainte* – “qo‘rquv” so‘zini keltirgan.

Monten “*foi*” so‘zini “*bonheur des religieux*” – diniy baxt ma’nosida “*qui rempliss[ent] leur courage [coeur] de la certitude des promesses divines*”, ya’ni ular o‘zlarining jasoratlarini (yuraklarini) ilohiy va’dalarning aniqligi bilan to‘ldiradilar, deya yuqoridagi uchala so‘zni bir o‘rinda qo‘llaydi: “*Et qui peut embraser son âme de l’ardeur de cette vive foi et espérance, réellement et constamment, il se bâtit en la solitude une vie voluptueuse et délicate au-delà de toute autre forme de vie*²²⁸.”

Shuningdek, tadqiqotimiz davomida “*foi*” – ishonch, e’tiqod so‘zini muallif 90 marta qo‘llagani aniqlandi. Bu so‘z umumiy va qadimiy ma’noga ega “*fides*” so‘zidan kelib chiqqan. Monten uni ishonch, berilgan so‘zga sodiqlik, yurak va ruhning sadoqati, samimiylik va ochiqlik, axloqiy va qonuniy qabul qilish ma’nosida qo‘llaydi. Bu holat

²²⁵ Ehrlich H.-H. Montaigne: la critique et le langage. – Paris, 1972. – 13-25-p.

²²⁶ Dotoli G. La voix de Montaigne: Langue, Corps et Parole dans les Essais. – Paris:Fernand Lanore,2007.–48-55-

p.

²²⁷ Ўша манба. –442-р.

²²⁸ Ўша манба. – 245-р.

uning “*Au lecteur*” – o‘quvchiga qilgan murojaatida ham ko‘rinadi: “*C’est ici un livre de bonne foi, lecteur. Il t’avertit dès l’entrée*²²⁹.”

Monten “*créance*” – ishonch ma’nosidagi sifat va fe’l bilan moslashish shakllarini hisobga olmaganda, yigirmaga yaqin *foi* leksemasini diniy ma’noda qo‘llaydi. Masalan: “*notre foi chrétienne*²³⁰”; “*Dieu seul nous l’a dit, et la foi*²³¹”; “*le Saint livre des sacrés mystères de notre créance*²³².”

Vigueur physique d’un être animé, de son corps ; capacité qu’il a de fournir un effort physique; énergie ifodasidagi “*force*” (n.f.) leksemasi tetiklik, chidamlilik kabi ma’nolarga ega. Muallif ushbu so‘zni birlik va ko‘plikda, *forcer, forcener* fe’l shakllarida jami 451 marotaba qo‘llagan. Fransuz tili so‘z boyligiga dastlab *fortia* ot shakli, *fortis* fe’l ko‘rinishi asosida lotin tilidan kirib kelgan.

Force ot shaklida fe’l bilan so‘z birikmasi hosil qilib matnda ishlatilgan: *emporter force, se présenter force, s’efforcer toute sa force, se choquer de forces, s’enquérir des forces, attaquer les forces, surmonter mes forces, mêler à force, s’attacher par force*; harakat nomi bilan *force de peser, mort de force*; *force* otidan sifat hosil bo‘lgan ko‘rinishda *forcenée d’amour, bicoques forcées, amoureux forcé*; bundan tashqari *forcer* fe’liga *é-* old qo‘shimchasi qo‘shilib *efforcées* hamda *renforcer* fe’l shaklidan *-(e)ment* qo‘shimchasidan hosil bo‘lgan *renforcement* ravish shaklidan ham mutafakkir foydalangan.

Adib ijodida “*force*” leksemasi “*faiblesse*” – zaiflik leksemasidan uch karra ko‘proq uchraydi. Ushbu ma’lumotdan kelib chiqib, aytish mumkinki, Monten zaiflikdan ko‘ra ko‘proq “*force*” – “kuch” leksemasiga asarda ko‘p bora urg‘u berganligi aniqlandi. Bu ikki tushunchani muallif bir-biriga bog‘lab: “*la force de l’imagination*” (I.21) – tasavvur kuchi, “*celle de la coutume*” (I.23, II.12) – odat kuchi yoki “*celle de l’opinion*” (I.14) – fikr kuchi va zaifligining sabablarini ochib beradi.

Kuch Monten uchun ba’zan zo‘ravonlikni bildiradi, ayniqsa, “*De l’institution des enfants*” (I.26) bobida u ta’limda jismoniy shafqatsizlikdan foydalanishni qoralaydi. Monten lug‘atida kuch nafaqat zaiflik, zo‘ravonlik, nafosatni kamsituvchi ma’noda tushuniladi, balki

²²⁹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965.6-p.

²³⁰ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –604-p.

²³¹ Ўша манба. – 554-р.

²³² Ўша манба. –321-р.

ayyorlikka ham zid mazmunda qo'yilgani tadqiqotimiz davomida kuzatildi.

Shuningdek, fazilat ta'rifidagi navbatdagi leksema "honnête" (adj) sifatining ikki tilli lug'atlarda halol, pok, vijdonli, to'g'ri, sofdil, insofsiz, andishali, nomusli, hurmatli, izzatli, muhtaram kabi ma'nolari mavjud. "Honnêteté" jenskiy rod otining o'zbek tilida:

1. Vijdonlilik, to'g'rilik, halollik, poklik, insoflilik, nomuslilik, andishalilik.

2. Odob, tartib, xushxulqlik, odamshavandalik.

3. Xushmuomalalik, muloyimlik, boadablik, nazokat, odoblilik, nazokatlilik ma'nolari borligi aniqlandi. Montendagi "honnête/honnêteté" juftligini, G. Matyo-Kastellani ko'rsatganidek, qat'iy va bir o'lchovli ta'rifga qisqartirib bo'lmaydi. Monten "Tajribalar" asarida "honnête" sifatini 106 marta birlik va ko'plik shakllarida qo'llaydi. Asosiy ta'rif kishilarga nisbatan *honnête femme*, *honnêtes hommes* so'z birikmasida foydalanilgan. Ushbu leksemaning *honnête* sifat shakliga *-ment* qo'shimchasi qo'shib *honnêtement* ravish shaklida ham matnda keltirilgan.

Ensemble de principes moraux qui incitent à ne jamais accomplir une action qui fasse perdre l'estime qu'on a de soi ou celle qu'autrui nous porte ta'rifidagi "honneur" (n.m.) leksemasi shon, sharaf, or-nomus, iftixor, izzat, obro', izzat-nafs kabi mazmunga ega. Asarda qo'llanilish chastotasi 216 ta, fe'l so'z turkumi bilan so'z birikmasi hosil qilib kelmoqda: *disposer l'honneur, avoir l'honneur, tenir à honneur, se distraire [retirer] des honneurs, donner à l'honneur, recharger d'honneur, résigner l'honneur, communiquer son honneur, dérober l'honneur, mépriser les honneurs, attirer par honneur, toucher l'honneur, monter par honneur*; shuningdek, ot so'z turkumi bilan *d'un lustre d'honneur, dégradé d'honneur, l'honneur des assistants, gens d'honneur, l'honneur de la liberté, un nom d'honneur, un aiguillon d'honneur* kabi qurshovda qo'llangan.

Mishel Monten or-nomus tushunchasining ikki asosiy jihatini ajratib talqin qiladi: biri vijdon hukmiga, ikkinchisi esa fikrga tegishli. U "homme d'honneur" – nomusli odam "honteuses et déshonestes" – uyatli va sharmandali ishlarni qilishdan, hatto buyurilgan bo'lsa ham, voz kechishi kerak, deb or-nomus tushunchasining vijdon hukmiga havolasini nazarda tutadi. Ikkinchi jihat esa, aksincha, shon-shuhrat kabi "la connaissance d'autrui, d'où l'honneur depend", ya'ni sharaf bilan bog'liq bo'lgan haqiqatni bilish, deb hisoblaydi. Shuningdek, qo'llangan

ushbu fazilat ijtimoiy jihatdan obro‘ga ega janoblar orasida jasorat yoki ayollar orasida iffat kabi ma’qullangan, shu sababli u jamoaviy qadriyatlar tomonidan taklif qilingan munosib moslikni asarda talab qilishi aniqlandi.

1. *Principe moral qui exige le respect du droit et de l'équité*

2. *Qualité morale qui invite à respecter les droits d'autrui*

ifodalaridagi “justice” (n.f.) leksemasi:

1. odillik, haqqoniylik, adolatlilik.

2. haqqoniyat, adolat, haqlik, to‘g‘riлик mazmunida muallif tomonidan qo‘llanilib, “*Tajribalar*” asarida foydalanish chastotasi 212 tani tashkil etadi. Asarda ushbu leksemaga zid ma’noda *injustice* sememasi berilgan.

Etimologik kelib chiqishiga nazar solsak, lotin tilidagi *justitia* nomemasidan olingan bo‘lib, “*conformité avec le droit, sentiment d'équité; esprit d'équité*”, “*le droit, les lois*” ko‘plikda “*jugements, préceptes*” ma’nolarida o‘rta asrlarga kelib “*circonscription judiciaire, pouvoir judiciaire*” mazmunida ishlatilgan. Mutafakkir ushbu leksemani ot so‘z turkumi bilan birikma holda *la justice divine, la justice aux hommes, la vérité de sa justice, l'humaine justice, couverture de justice* hamda quyidagicha ma’no ko‘chishini hosil qilgan: *les mains de justice, justice affamée, la voie de la justice*. Ta’kidlash joizki, *justice* lisoniy birligi o‘rnida *les arrêts* so‘zini keltirgan. Harakat, holat fe’llari bilan *corrompre sa justice, tirer justice, peindre la justice* matnning emotsional ta’sirchanligini oshirgan. Axloqiy fazilat ham qonunlarga muvofiqlik tamoyilidir. Adolat masalasi axloqiy ma’no bilan bog‘liq, lekin u qonunlar majmuini ijtimoiy-siyosiy va institutsional ma’noni ham anglatgan.

1. *Qualité de quelqu'un, de son action, qui se montre bienveillant, clément, indulgent ; magnanimité, grandeur d'âme*

2. *Disposition à donner avec libéralité ; qualité du don, du geste ainsi fait; largesse, libéralité*

ta’rifidagi “générosité” (n.f.) leksemasi:

1. muruvvat, himmat, karim, olijanoblik, oliyhimmatlik, keng fe’llik, vijdonlilik, poklik, aslzodalilik.

2. saxiylik, ochiq qo‘llik, qo‘li ochiqlik, hotamtovlik; ko‘plik shaklida esa xayr-ehson, xayr-saxovat, sovg‘a-salom

kabi mazmun muqobillari mavjud. Lotin tilidan fransuz tiliga o‘zlashgan dastlab *generositas* nomemasida “*bonté de la race, en parlant des animaux*”, keyinchalik “*magnanimité*” (1509), “*noblesse*” (1551),

“noblesse morale” (1590), “*qualité qui élève l’homme au-dessus de lui-même*” (1677) ma’nosida ishlatilgan. Montenga ko‘ra, “*générosité*” leksemasi antik davr namoyandalarini tasvirlashda, ulardagi yaxshi fazilatlarni ko‘rsatishda turli ma’noda, jumladan, *la bonne naissance, franchise* – nutqni rost so‘zlash borasida axloqiy saxiylik, xayr-saxovat ma’nosida ishlatilgan. “*Générosité*” leksemasi asar matnida bir marta qo‘llangan.

1. *Pratiques sociales, usages particuliers, communs à un groupe, un peuple, une époque*

2. *Habitudes particulières aux animaux de chaque espèce*

3. *Habitudes de vie, comportements individuels*

ifodalaridagi “*mœurs*” (n.f.) leksemasi har doim ko‘plik shaklda:

1. Axloq, odob

2. Rasm, odat, udum, urf-odat, taomil

3. Fe’l, xulq, fe’l-atvor

kabi mazmunda qo‘llaniladi. Lotin tilidan kirib kelgan *mores* ko‘plik shaklida *mos, moris* – “*volonté, désir; usage, coutume*” ko‘plikda “*genre de vie, traditions [morales, religieuses], habitudes; caractère, comportement; lois, règles*” ma’nolarida qo‘llangan. Asarda ushbu lisoniy birlikning qo‘llanilish chastotasi 127 ta.

Monten nazarida, “*la notion de mœurs*” axloq tushunchasi ikki xil ma’noga ega: shaxsni nazarda tutuvchi o‘ziga xos psixologik baholash va turli jamiyatning urf-odatlari hamda madaniy an’analarini tavsiflash imkonini beruvchi umumiy odatlar. Monten “*Tajribalari*” asarini “*publication de mes mœurs*” – axloqimning nashri deb ataydi hamda “*uniformité et simplessse de [s]es mœurs*” [III.9.980] – axloqning bir xil va sodda bo‘lishi haqida gapiradi.

Zotan, bu odatlar va xatti-harakatlar shaxsiy moyillik bilan belgilanadi, bu haqida Monten “*meurs de Hannibal et de Scipion*” – Gannibal va Scipionning odatlari va “*la constante bonté, douceur de mœurs et facilité consciencieuse de monsieur de la Nouë*” – Janob de la Nuenning o‘zgarmas mehribonligi, xarakterning yumshoqligi va vijdonning soddaligi haqida gapirishga imkon beradi. Bunda “*mœurs*” so‘zi shaxsning o‘ziga xos toifa va shaxsiy tabiatini bildiradi. Shunday qilib, Monten “[s]es meurs [qui] sont mousses, plustost fades qu’aspres” tan oladiki, “[s]es discours sont, conformément à [s]es meurs, bas et humbles” – kayfiyat va temperament shaxsning o‘zini namoyon qilishiga imkon beradigan individual “*mœurs*” – odatlarni keltirib chiqaradi.

Axloqiy bilimlar sohibi bo‘lgan mutafakkir “*Tajribalari*” asarida ot so‘z turkumi bilan *pureté de moeurs, douceur de ses moeurs, l’honnêteté de moeurs, la facilité des moeurs, conformément à mes moeurs, les moeurs souterraines, la facilité des moeurs, la condition de mes moeurs, contrôlé ses moeurs, considération des moeurs, variété de moeurs* kabi insoniy xislatlarni yoritib bergan. Ta’kidlash joizki, Montenga ko‘ra, “*moeurs*” xalqlarning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini ham ifodalaydi. Monten “*instabilité de nos moeurs*” – urf-odatlarining beqarorligini nazarda tutganida, o‘sha davrdagi Fransiyani vayron qilgan fuqarolar urushi haqida gapiradi va bizning odatlarimiz xatti-harakatlarimizdagi tartib va xotirjamlik bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, ta’kidlash joizki, tadqiqot uchun olingan fazilat tasnifidagi leksemalar XVI asr Mishel Monten ijodida insoniylikka xos yorqin jihatlarni namoyon qilgan. Chunonchi, adibning so‘z qo‘llashdagi mohirligi leksemalarning yangi ma’no qirralari shakllanishiga zamin yaratgan.

3.3. M. Monten asarida “insonparvarlik” tarbiyasiga doir leksemalarning paradigmatic tahlili

Lisoniy birliklar bir-birini eslatib turish xossasiga egaligini bilamiz. Shu boisdan ular jamiyat a’zolari ongida bir tizimga birlashgan holda yashaydi. Umumiy belgi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o‘ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar sistemasi paradigma deyiladi²³³. Ferdinand de Sossyur lisoniy paradigma tarkibidagi, lisoniy birliklar orasidagi paradigmatic (assotsiativ, bir-birini eslatib turish, o‘xshashlik) munosabatini lisoniy birlik uchun eng asosiy munosabat sifatida baholagan²³⁴.

Semantik-grammatik umumiylikka ega bo‘lgan leksik birliklar lug‘aviy paradigmani tashkil etadi²³⁵. Shuningdek, “*Tajribalar*” asarida “insonparvarlik” tarbiyasiga oid leksik birliklarning “Oila va farzand tarbiyasi”dagi muhim ahamiyat kasb etuvchi so‘zlar paradigmatic qatori sinonimlik holatlarini quyida *humanité, amitié, amour, alimentation, bonté, chanson, conscience, fortune, joie, liberté, mariage, obéissance, occasion, jeunesse* leksemalari misolida sinonimik, antonimik, lug‘aviy guruhlar, lug‘aviy-mazmuniy maydoniga ko‘ra o‘rganib chiqiladi.

²³³ Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили. –Т., 2018. – 49-б.

²³⁴ Ўша манба. – 50-б.

²³⁵ М.Саидова, Лингвокултурология, Наманган.-2017,17-б.

“*Humanité*” (n.f) leksemasi o‘zbek tilida insonparvarlik, odamgarchilik, odamiylik, insoniylik, muruvvat kabi ikki tilli lug‘atlarda tarjimasi mavjud. “Tajribalar” asarida ushbu birlikning qo‘llanilish chastotasi 19 ta. “*Humanité*” (insonparvarlik) kishida uning insoniyligi namunasi emas, balki barcha tirik mavjudotlar uchun umumiy bo‘lgan hayot omilidir, deb hisoblanadi²³⁶. Monten “Tajribalar” asarida insonparvarlik tushunchasini ifodalovchi so‘zning mohiyatini ochib berish uchun uni “*bestiaire*” (“hayvonot dunyosi”) bilan taqqoslaydi.

Monten: “*chaque homme porte la forme entiere de l’humaine condition*” – har bir inson insoniy holatning butun shaklini o‘z zimmasiga oladi, deganda, “*l’humaine condition*²³⁷” u ehtimol, “*condicio humana*”ni inson tabiatiga ekvivalent deb hisoblamasdan “*condicio*”, birinchi navbatda, holat, vaziyat, sharoit ekanligini, “*condicio humana*”, ya’ni insonning ularga qaramligini keltirib o‘tadi. Shuningdek, *humanité* leksemasiga munosib paradigmatic birliklar *montrer à l’humanité = Présenter la bonté, exemple de l’humanité = la bonté propre, devoir d’humanité = la bonté propre, reluire d’humanité = la bonté divine* matn tarkibida ularning denotatlari borliqda ifodalaydigan hodisalari bir mazmunda ekanligi bois nusxalab qo‘llanilgan. Ta’kidlash joizki, antonim sifatida qo‘llanilgan *inhumanité* leksemasiga semema o‘rnida *bestiaire* lisoniy birligi tanlangan.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, “Tajribalar” essesi insoniyatning axloqiy mohiyati uchun ishlaydigan fikrlash asari, unda insoniylik mehr-oqibat, rahm-shafqat ma’nosida axloqiy nutqning predmeti emas, balki harakatlarning tavsifi keltirilgan. Zotan, g‘ayriinsoniylik, shafqatsizlik paradigmasidan ko‘rinib turibdiki, hech qanday qat’iy mantiqiy g‘ayriinsoniylik, hech bir qat’iy ratsional dalil unga, aksincha, hech bir mulohaza insoniyatni oqlay olmasligini anglatadigan maqom bera olmasligi Monten asarida ko‘rsatilgan.

Insonparvarlik belgisi tasnifida kelayotgan navbatdagi *âme* (n.f) – qalb, ko‘ngil leksemasi “Tajribalar” asarida birlik shaklda 462 marta, ko‘plik shaklda 92 marta qo‘llanilgan. Chastota miqdorining ko‘pligi asarda shaxs ta’rifidagi fikr va mulohazalarda yetakchi so‘z mavqeini egallashidan dalolat beradi. Aytish mumkinki, *âme* lisoniy birligining paradigmatic qatori *cœur, conscience, esprit, moi, pensée* ekanligi, antonim paradigmatic qatori mavjud emasligi asarda aniqlandi. Montenda

²³⁶ Friedrich H. Montaigne. – Paris, 1993. – chap.3. – 14-p.

²³⁷ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –587-p.

prognozlash va rejalashtirish xatti-harakatining eng muhimi qalb falsafasiga qaratilganligidadir. Dastlab provansal dialektdan kirib kelgan ushbu leksema “anma”, “arma”; ispan va italyan tillarida “alma; anima” ko‘rinishida nafas, shamol, hayot, qalb, ruh ma’nosida qo‘llangan. Kuzatishlar jarayonida bu so‘zning faqat shamol ma’nosini saqlab qolgan yunoncha “ānemos” bilan semema ekanligi aniqlandi; “anima” va “ānemos” sanskrit tilidagi nafas olishga asoslangan.

Insonparvarlik guruhidagi *amitié* (n.f.) – do‘stlik leksemasining asardagi qo‘llanilish chastotasi 114 tani tashkil etadi. Ushbu so‘zning boshqa so‘z turkumlari bilan birikib kelishi kuzatilganida Monten 1563-yil, eng yaqin do‘sti Etien de la Boitie vafotidan so‘ng, do‘stlikning qadrdimmiati haqidagi mulohazalarini o‘z asarida bayon etgan. *Amitié* leksemasi XVI-asrda oddiy ijtimoiy yoki siyosiy birlashmalardan tortib eng yaqin do‘stlikkacha, hatto, ayol va erkak yaqinligigacha har qanday do‘stlik munosabatlariga tegishli bo‘lgan. Tadqiqot jarayonida Monten *amitié* atamasini ko‘plikda ishlatganida u, ko‘pincha, ojiz, kuchsiz kabi ma’noda qo‘llanganligini, chunki mustahkam do‘stlik faqat bitta mavjudot bilan ekanligini kuzatish mumkin.

*Amicitia*²³⁸ ning umumiy ma’nosi barcha jonli mavjudotlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga oladi. O‘z shubhalarini tasdiqlovchi misollar izlagan Monten “Apologie de Raimond Sebond²³⁹” (II.12) bobida “*les chiens sont capables d’amitié envers leurs maîtres, et que les chevaux prouvent de l’amitié les uns envers les autres*²⁴⁰.” Aytish mumkinki, itlar o‘z egalari bilan do‘stona munosabatda bo‘lishlari va otlarning bir-biriga nisbatan do‘stona tuyg‘ulari borligini ta’kidlaydi. Monten XVI-asrda *ami* so‘zi o‘rnida bugungi kundagi *frère* (aka) so‘zi leksik paradigma bo‘lib faol qo‘llangan. Monten do‘stlikni *parfaicte amitié*²⁴¹ – mukammal do‘stlikka ajratgan va do‘stlikning boshqa barcha turlari uning tabiatini o‘zgartiradigan aloqaga asoslangan. Monten *l’amitié* – do‘stlik haqida “propter honestum”, “honnête”, ya’ni halollik “propter utile” yoki “propter delectabile²⁴²” – hammasidan ustun bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi.

²³⁸ Joly E. Une stratégie de la relation amoureuse dans les ‘Essais’ de Montaigne. – Lille, 2003. – 348-354-p.

²³⁹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –322-p.

²⁴⁰ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –471-p.

²⁴¹ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –186-p.

²⁴² Defaux G. Montaigne et le travail de l’amitié. – Orléans, 2001. – 150-p.

Monten *familiale* – oilaviy ota va farzandni birlashtiradigan munosabat bilan do‘stlikning *naturelle*²⁴³ – tabiiylikni aralashtirmaydi, bu holat do‘stlar o‘rtasidagi mukammal muloqotga to‘sqinlik qilishini alohida ta’kidlaydi.

“Amour” (n.m.) ifodasi – sevgi, ishq, muhabbat; mehr ma’nolarida o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. Monten “De l’amitié” (“Do‘stlik to‘g‘risidagi insho”) bobida bu ikki tuyg‘uni uzoq taqqoslab, ularni muhabbat nomida ko‘radi. Biz o‘ylaganimizdek, do‘sti La Boétie bilan bog‘liqligini *passion* – ehtiros xususiyatida tan olishni niyat qilmaydi. Bu yerda u oddiygina XVI-asrda umumiy qabul qilingan *passion* – ehtirosga ko‘ra tasniflashga amal qiladi, qadimgilarning an‘analaridan meros bo‘lgan *pathè, adfectus, perturbationes animi* tushunchasi bilan paradigmatic qatorida ishlatadi.

Bu tushunchalar *tristesse, peur, audace, crainte, espérance, émulation*²⁴⁴ – qayg‘u, qo‘rquv, jasorat, xavotirlanish, ishonch, ishtiyoq kabi o‘ttizga yaqin paradigmatic mazmuni o‘z ichiga olgan edi. “Tajribalar” asarida *amour* so‘zining qo‘llanilish chastotasi 111 ta. Monten ushbu so‘zni odatdagi ma’noda, ishq-ehtirosdan tortib, buzqlikkacha bo‘lgan ma’no nozikliklari orasida, gomoseksualizm, ya’ni bir jinslilar jinsiy aloqasi masalasini ham e’tiborsiz qoldirmagan holda tahlilga tortgan. Kuzatishlarimizga ko‘ra, Monten hech qachon *amour* (muhabbat) so‘zini *fortune* – (muvaqqafiyat), *bastir* – hozirgi fransuz tilidagi *bâtir* – (qurmoq), *en trois siècles*²⁴⁵ – (uch asrda) kabi so‘zlar bilan bir paradigmatic qatorida bog‘lamaydi, unga ko‘ra, bu so‘zlar oddiy do‘stlik tabiatini chetlab o‘tadi. Muhabbatda Monten uchun ehtirosning ko‘p ifodalari mavjud, jumladan, *pathos*²⁴⁶ (kasallikdan azob chekish), hatto, *folie* (“jinnilik”) ham bor va shu sababdan u bu ishga qo‘l urishdan chekinadi.

Amour ot so‘z turkumiga oid so‘z bo‘lgani uchun asarda *déterminative+nom, nom+déterminative+nom, adjective+nom, adverb+nom* kabi qurshovlarda qo‘llagan. “Alimentation” (n.f) – boqish, yedirish, ovqatlantirish; oziqlanish, ovqatlanish kabi mazmunda o‘zbek tilining ikki tilli tarjima lug‘atlarida qayd qilingan. Montenda ovqatlanish mavzusi, asosan, madaniyatlik va ovqatga o‘chlikning tabiiy xususiyatini asoslashga qaratilgan. Monten bu da’vosining xususiyati

²⁴³ Ўша маъба. –184-р.

²⁴⁴ Blum C. De la Lettre sur la mort de La Boétie aux Essais: allongé ou répétition? – RHLF, 1988. –175-189-p.

²⁴⁵ Montaigne M. Les Essais / édition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), 1965. –184-p.

²⁴⁶ Blum C. De la Lettre sur la mort de La Boétie aux Essais: allongé ou répétition? – RHLF, 1988. –520-p.

achchiq, ya'ni iste'mol qilib bo'lmaydigan dorilarni kulgi ostiga olish bilan "*crotas de rat pulverisées*²⁴⁷", "*fantastique*" paradigmatic qatorda ishlatadi.

Birinchi kitobning "De l'institution des enfants" 26-bobidagi imtiyozli metaforada bolalarni "*nourrir*" – ovqatlantirish usullariga rioya qilish to'g'risida o'qituvchi tana va ruhdan iborat bo'lgan bu odamni "*conduire*" – boshqarishni bilishi uchun o'z o'quvchisini ziyofatga taklif qilishi kerak deya aytadi. Platonning fikrni chalg'itish g'oyasi unga o'quvchini qoidalar dasturxoniga "*convier*²⁴⁸" – undash imkonini beradi, unga taom sifatida "*aisée et naturelle*" yoqimli va tabiiy darsni taklif qiladi va bunda "*l'ame trouve où mordre et où se paistre*²⁴⁹" – ruh huzurhalovat topadi, deydi. Montening tarbiyaviy mushohadalari bu o'rinda o'qiganlarini o'zlashtirishda insonga xos bo'lgan qotib qolgan yondashuvni ifodalaydi: dastlabki o'zlashtirish va muallifning nimagadir taqlid qilishi tabiiy aqliy narsalarning "*la moelle*" – mag'zi bilan munosabatlariga bog'liqdir. Teskari holda esa ularning ko'rinishi maktabdagi tahsilning eng yomon ko'rinishiga mos keladi, ya'ni so'zlarning "*sens*" – mohiyatiga emas, alohida "*mots*" – so'zlarning eslab qolinishiga ahamiyat beriladi.

"La bonté" (n.f) o'zbek tiliga yaxshilik, ezgulik, yaxshi ish kabi ma'nolari mavjud. "Tajribalar" asarida ushbu so'zning qo'llanilish chastotasi 68, *déterminative+nom, nom+nom, adjectif+nom, pronom+nom, verb+déterminative+nom, adverb+nom* qurshovida qo'llangan. Monten insoniy fazilatlar borasida doimo iqtibos keltirish imkoniyatini qo'ldan boy bermaydi: "*douceur de moeurs*" – odob-axloq mavjudligi, "*la justice*" – haqqoniylik, "*l'humanité*" – insonparvarlik, "*la franchise et la gaieté*" – ochiqlik va quvonch, "*la devotion, l'obervance des lois, la libéralité, la loyauté*" – fidoyilik, qonunlarga rioya qilish, erkinlik, sadoqat bilan bir paradigmatic qatorda qo'llaydi.

"Conscience" (n.f.) – vijdon, insoflilik, diyonat tarzida o'zbek tiliga tarjima qilinadi. O'zining birinchi ma'nosida yunon-lotin merosiga bog'liq holda "vijdon" tushunchasi insonga tug'ma bo'lgan axloqiy tuyg'uni anglatadi. "*Suneidesis*" atamasi o'zining kelib chiqishida (Demokrit) insonning o'z xatti-harakatlarini idrok etishini, ularni baholash qobiliyatini, ayniqsa, ular yomon bo'lganda va ular uchun pushaymon bo'lishini anglatadi. O'rta asrlar tafakkurida "*conscience*" –

²⁴⁷ Ўша манба. –770-р.

²⁴⁸ Ўша манба.–165-р.

²⁴⁹ Ўша манба.–160-р.

vijdon “*syndérèse*” – bu insandagi yaxshilikni xatosiz tan olish qobiliyati paradigmasida bog‘langan holatlar ko‘payadi. Monten tushunchaning o‘ziga xos ma‘nolarini rivojlantiradi. “*Conscience*” atamasi ushbu asarda 124 marta birlik shaklda, 44 marta ko‘plik shaklda, 17 marta sifatdosh va ravishdosh sifatida ishlatilgan.

“Fortune” (n.f.) o‘zbek tilida quyidagi tarjima ma‘nolariga ega:

1. Baxt, omad, muvaffaqiyat.
